

FUTBOL VA UNI
O'QITISH METODIKASI

Darslik



MAXSUD SHERMATOV

SHERALI JURAYEV

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**MAXSUD SHERMATOV
SHERALI JURAYEV**

FUTBOL VA UNI O'QITISH METODIKASI

Darslik

Chirchiq - 2024

UO'K 373.3;37.013.2

KBK 74.2;74.6

J-13

MAXSUD SHERMATOV, SHERALI JURAYEV / FUTBOL VA UNI O'QITISH
METODIKASI / Darslik / – Chirchiq, "Olmaliq kitob business", 2024 y., 220 b.

ANNOTATSIYA

Mazkur darslik Oliy ta'lim muassasalari jismoniy madaniyat fakultetlari o'quv jarayoniga, maxsus sport maktablar, o'quvchilari, talabalar hamda futbol murabbiylari uchun mo'ljallangan.

Ushbu darslik futbol sport turining mazmun mohiyati, mashg'ulotlar jarayonining umumiy qonuniyatlari, vositalari va mashq qildirish usullari, jismoniy fazilatlarni tarbiyalashning nazariy va amaliy xususiyatlari, talabani futbolga tayyorlash va mashg'ulot jarayonining masalalari yoritilgan.

АННОТАЦИЯ

Данный учебник предназначен для учебного процесса факультетов физической культуры высших учебных заведений, специальных спортивных школ, учащихся, студентов и футбольных тренеров.

Этот учебник освещает содержание футбольного вида спорта, общие закономерности тренировочного процесса, средства и методы тренировок, теоретические и практические особенности воспитания физических качеств, вопросы подготовки школьника к футболу и тренировочному процессу.

ANNOTATION

This textbook is designed for the educational process of the faculties of physical culture and higher educational institutions as well as special sport schools, students and football coaches.

In addition this textbook covers the content of a sport of football, the general laws of the training process, means and methods of training, theoretical and practical features of physical education, issues of preparing a student for sport of football and the training process.

Mualliflar

M.N.Shermatov - Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti,
"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrası dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD).

Sh.M.Jurayev - Chirchiq Davlat Pedagogika
Universiteti, "Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrası
o'qituvchisi.

Taqrizchilar

B.K.Amanturdiyev - Termiz Davlat Universiteti "Jismoniy tarbiya va sport
o'yinlari" kafedrası proffessori

A.Y.Shadiyev - CHDPU "Sport chaqiriqqacha harbiy ta'lim" fakulteti "Jismoniy
madaniyat nazariyasi" kafedrası dotsenti

UO'K 373.3;37.013.2

KBK 74.2;74.6

ISBN 978-9910-9616-4-9

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

© «Olmaliq kitob business» nashriyoti, Chirchiq, 2024 y.

© MAXSUD SHERMATOV, SHERALI JURAYEV, 2024 y.

KIRISH

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni, Vazirlar Maxkamasining "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Respublika fanlar akademiyasining 80 yilligi haqidagi qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar O'zbekistonda ilm-fanni, shu jumladan mamlakatimizda futbolning ommaviyligini yanada oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish, trener va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbolni respublikamizda rivojlantirish fikrlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Prezidentning mazkur farmoniga muvofiq mamlakatimiz ilmiy salohiyatini oshirish va ilmiy tadqiqotda yangi yondashuvlarga o'tish, ilm-fanda yechilmay turgan muammolarni ilmiy tadqiqot ob'ekti qilib olish alohida ta'kidlangan. Shuni alohida qayd etish lozimki, mustaqillik tufayli jahonga yuz tutgan O'zbekistonimizda sportni rivojlantirish asosida barkamol avlodni sog'lom tarbiyalash, va sohadagi mummolarni ilmiy-tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Shu boisdan ta'lim tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan har tomonlama sog'lom, yetuk va yuksak ma'naviyatli komil insonlar etib tarbiyalash davlatimizning ustivor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bolalarning jamoatchilik, mehnatsevarlik va jamoat oldida o'z burchini his qilish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim masalalari hisoblanadi. Bola maktabga qadam qo'ygan birinchi kundan boshlab, unda mehnatga nisbatan muhabbat uyg'otish, uyushqoqlik, ishchanlik va boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilish xususiyatini tarbiyalash kerak. Buning uchun tarbiyaning barcha vositalaridan, jumladan bolalarning sevimli o'yinlaridan foydalanish ayni muddaodir.

O'yinlar hayotdagi to'siqlarni yengish hamda har xil xislat va qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy mashqlarning turli majmuasini o'z ichiga oladi. bundan tashqari, odatda, bolalar sevib o'ynaydigan ularga baxt, quvonch baxsh etadigan musobaqa elementlari ham harakatli o'yinlarga kiradi.

Hammamizga ma'lumki, kichik maktab yoshidagi bolalarning o'yinlari taqlid qilish tabiatida bo'ladi. Bola tevarak atrofidagi borliqni kuzatadi, undagi ba'zi narsalarni o'yinga kiritadi va shu o'yin vositasida o'zini qurshab turgan olamni bilib oladi, shunday ekan, unda turmush xodisalariga nisbatan muayyan munosabat paydo bo'ladi.

Futbol bilan shug'ullanishlar kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlanishiga imkon yaratadi. Futbol yosh avlodni aqliy va irodaviy tarbiyalashda ahamiyatga ega vositadir. Futbol mashg'ulotlari va musobaqalarini to'g'ri tashkil qilish intizomlilik, tashkilotchilik, intiluvchanlik, irodalilik, quvnoqlik, ishchanlik va to'g'ri qaror qabul qilish kabi sifatlarni tarbiyalashda ijobiy ta'sir qiladi. Bularni barchasini inobatga olib metodik qo'llanmada mustaqil ta'lim tizimi, ma'ruza kursi va amaliyot mashg'ulotlaridan tashkil topgan, jumladan metodik vazifalarni individual tarzda mustaqil ishlashni ham o'z ichiga oladi. Mazkur darslik oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat nazariyasi bo'limidagi futbolga oid talablar asosida yozilgan, amaliyot mashg'ulotlari shuning jumlasidan, albatta bularning barchasi DTSga mos ravishda tayyorlangan. Mazkur darslikni yozishdan maqsad – talabalarga futbol nazariyasi asoslarini va amaliyotini o'rgatishdir. Unda futbol tarixi, futbol mashqlaridan sog'lik uchun foydali jihatlar mazmuni tashkillashtirish masalalari haqida ta'rif qilinadi. Mazkur darslikni tayyorlashda manba sifatida futbol nazariyasi bo'yicha yozilgan adabiyotlardan foydalanildi, jumladan jismoniy madaniyat va futbol sohasinnig yetakchi olimlari ishlari o'rganilgan holda tahlil qilindi.

1. Bob. Futbolni vujudga kelishi, uni jahonda va O'zbekistonda rivojlanishi

1.1. Futbol o'yinining rivojlanish tarixi

«Futbol so'zi, fut – oyoq, bol – to'p ya'ni oyoqda to'p o'ynash ma'nosini bildiradi».

Futbol bu chinakam atletik o'yin. U tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilik va sakrovchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Futbolchi o'yin paytida xaddan tashqari ko'p ish bajaradi. Bu esa odamning funktsional imkoniyatlari darajasini oshirishga, ma'naviy, irodaviy xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Futbol o'ynash umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rishda yaxshi vosita bo'lib xizmat qila oladi. Yo'nalishni o'zgartirib xilma-xil yugurish, sakrashning turli xillari, tuzilish jixatdan turlicha gavda harakatlari, to'pni uzatish, to'xtatib olish va olib yurish, maksimal tezlikda harakat qilish, irodaviy xislatlarning, taktik tafakkurning kamol topishi kabilar, futbolni har qanday ixtisosdagi sportchiga zarur bo'lgan ko'pgina muhim xislatlarni o'stiradigan sport o'yini deb xisoblash imkoniyatini beradi.

Bundan juda ham ko'p yillar avval har xil davlatlarda odamlar shahar maydonlarida yoki bo'sh yotgan erlarda to'p o'ynashni o'ylab topdilar, bu o'yin esa harbiylarni raqib lageriga kirib olishi, ishtiyoqiga o'xshash harakatni eslatar edi.

Partiya o'yini (ikki jamoaga bo'linib), ma'lum chiziq orqasida ko'p marta to'pni olib o'tgan jamoa partiyada g'olib deb hisoblangan. Bunday o'yinlarda ayrim vaqtlarda bir necha yuz kishi qatnashar edi.

Futbolni qaysi oyda, qaysi yilda tug'ilganligi yoki kelib chiqqanligi tarixga ma'lum emas. Bu faqat futbol foydasigadir, chunki bu qadimgi oyoq to'p o'yinlari uning yer sharidagi ko'pchilik xalqlar orasida ommaviylashganligi haqida guvohlik beradi.

Juda qadim vaqtlardan beri xalqlarni qiziqtirayotgan savollardan biri: bu o'yin kim tomonidan qachon topilgan? Arxeologik qazilmalarning isbotlashishiga ko'ra, futbol «ajdodlaridan» biri Qadimgi Misrda yashagan ekan. Bu erda olimlar to'p o'ynovchi ta'svirini, balki to'pni o'zini statuetkasi ham topdilar. Tarixchilarni isbotlashiga ko'ra futbol o'yini qadim zamonlarda paydo bo'lgan, deydilar. Bu o'yinning elementlarini dunyodagi juda ko'p xalqlarda uchratish mumkin. Masalan Qadimgi Yunonistonda to'pni o'ynashni bilgan kishi katta shuhrat qozonar edi, bu o'yin gimnastika jismoniy mashqlar doirasiga kiritilgan edi.

To'p o'yini haqidagi birinchi yozma ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi zamon futboliga o'xshash to'p o'yini 180 yildan tilga olinadi. Pollukosning yunoncha lug'atida o'ynovchilar ikki partiyaga (jamoaga) bo'linganligi yozilgan. Har qaysi jamoada to'pni raqib o'yin maydon orqasiga o'tkazishga harakat qilardi. Xarakter jihatidan bu o'yin ko'roq hozirgi regbi o'yiniga o'xshab ketadi. Lekin bu o'yinda qo'l bilan o'ynash taqiqlangan edi. Qadimgi to'p o'yinlarining qaysi biridan hozirgi futbol kelib chiqqanligini aniqlashning iloji yo'q.

Qadimgi Yunonistonda to'p bilan o'ynaladigan boshqa o'yinar ham bo'lgan. Antik to'p o'yinlarining qaysi biri hozirgi zamon futbolining qonuniy asoschisi, uning asoschisi kim ekanligi aniq belgilanmagan yoki aytilmagan, bugun uni o'z-o'zidan tasavvur qilib bo'lmaydi. Baribir ko'pchilik futbol mutaxassislarining aksariyati, futbol «Garkasto'm» degan qadimgi Rim o'yinidan kelib chiqqan bo'lib, uni Britaniya, Italiya va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlariga Yuliy Sezar' yoki Rim legionerlari olib kelganlar, deb taxmin qiladilar.

Shuni eslatib o'tish zarurki, to'p bilan o'ynaladigan o'yinlarni boshqa davlatlarda ham o'ynaganlar. Shu bilan birga u juda ommabob bo'lib, har xil tabaqa va sinflar orasida ixlosmandlari bo'lgan. Masalan, eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda

Xitoyda o'ynaladigan o'yin, futbolga o'xshab ketadi. U harbiy tayyorgarlikning muhim elementlaridan biri hisoblanar edi. Xoilar sulolasi

tarixida (eramizdan avvalgi 206 yildan to eramizning 25 yillarigacha) «CHJU - KE» o'yinini tavsifi yoki bayoni saqlanib qolgan. «CHJU» - oyoqda tepish, «KE» charmli to'ldirma to'p ma'nosini bildiradi. Yozma manbalar guvohlik berishiga qaraganda, imperatorning tug'ilgan kunida, imperator saroyi oldida ikkita kuchli jamoa o'rtasida o'yin o'tkazilardi. O'yinga maxsus maydoncha tayyorlashar edi. 30 funt balandlikdagi bambukli tayoqchalar o'rtasiga ipakli to'r tortilardi, unda diametri bir funtdan ko'proq teshik qilinar edi. Ikkala jamoaning o'yinchilari, teshikka oyoqlari bilan to'pni kiritishga harakat qilardilar. G'oliblar gullar, mevalar, vino, kumush billur (kubok) bilan taqdirlanar edilar. Ayni vaqtda mohir o'yinchilarni xizmat yuzasidan yuqori lavozimga ko'tarish kutilardi. Shunday voqealar bo'lganki, bir o'yinchi, u to'p bilan chiroyli o'yin ko'rsatilganligi uchun general lavozimiga ko'tarilardi. Shu bilan birga yutqazgan jamoa sardorini, odatda, oshkora ravishda qamchilash bilan jazolashardi.

Tabiiyki, uzoq o'tmishda, hozirgi zamon futboliga o'xshash bo'lgan o'yinlarni o'ynagan Xitoy birdan-bir davlat bo'lgan emas. Masalan o'n to'rtinchi asr davomida «Komer» o'yini ommalashib borgan. Yaponlarning bu sevimli o'yinini o'tkazish uchun 14 kv. m kattalikdagi maydonda 8 o'yinchi joylashib turadilar. Maydonchani shimoliy-g'arbiy burchagida tol terak, janubiy-sharqiy burchagida tol, shimoliy-sharqiy burchagida olcha, janubiy-g'arbiy burchagida zarang (daraxtlari) qo'yilgan bo'ladi. O'yingning asosiy mazmuni shundan iboratki, o'rnatilgan udum an'anaga rioya qilgan holda, to'pni bir-biriga oshirish lozim

Mashhur fransuz futbolchisi Moris Pefferkorning ta'kidlashiga ko'ra, «La sul'» o'yinini to'g'ridan-to'g'ri hozirgi zamon futbolining ajdodi deb qo'rqmasdan aytish mumkin, chunki bu o'yinda ikkita jamoa havo bilan to'ldirilgan charm to'pda o'ynashar edi. Bu o'yin O'rta asrlardayoq Pefferkorning mamlakatida ommabop bo'lgan edi.

Italiya sport tarixchilari tasdiqlashishiga ko'ra, hozirgi futbol Fransiyada XVI asrda «La sul'» o'yinidan emas, balki «Kal'chie» o'yinidan tarqalgan.

«Kal'chie» o'yinini to'pda 100x50 maydonda o'ynaganlar. «Kal'chie» o'yini hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. An'anaga ko'ra P'yatstsa Dela janob Florentsiya maydonida yiliga ikki marta: may oyining birinchi yakshanbasida va 24 iyunda o'tkaziladi. Jamoalarning biri «V'yash» (oqlar), boshqasi «Rossi» (qizillar) deb ataladi. Ularning har birida 27 dan o'yinchi o'ynaydi, shulardan 15 tasi hujumchilar, 12 tasi himoya vazifasini bajaradilar. Ular butun maydon kengligida yoyilib, darvozani himoya qiladilar.

Ko'rib turibsizki, hozirgi zamon futbolining o'tmishdoshlari kam emas. Eramizdan avvalgi 1300 yilda Meksika yerida «Pok-ta-pok» nomi bilan o'yin dunyoga keldi. «Pok-ta-pok» o'yinchilar uchun jiddiy sinov edi va ulardan dadillikni hamda yaxshi jismoniy tayyorgarlikni talab qilar edi. Bu o'yin qatnashchilari tez-tez shikastlanib turardilar, gohida fojea bilan tugardi, chunki «Pok-ta-pok» kauchukdan qilingan og'ir to'p bilan o'ynalardi. Arxeologok qazilmalar guvohlik berishiga ko'ra, o'yin qaltis bo'lishiga qaramay, yerli xalq o'rtasida juda ommabop edi. «Pok-ta-pok» o'yini Meksikadan asta-sekin butun Markaziy Amerika bo'ylab XVI arsgacha tarqaldi, keyinchalik - Ispaniya mustamlakachiligi davrida u taqiqlab qo'yildi.

O'yingning maqsadi shundan iboratki, to'p devordagi diametri 20 sm dan katta bo'lgan doiraga yo'naltirilishi lozim Buni faqatgina oyoqda bajarish mumkin.

Ehtimol, meksikaliklar o'zlarini futbolga asos soluvchilar deb hisoblashlari mumkin: aynan shu erda birinchi marta futbol deb atalgan. Bu o'yinni rasmiy ravishda tan olinganidan emas, balki uning taqiqlanganidan kelib chiqqan, deyish mumkin.

1349 yili qirol Eduard III o'zining maxsus farmonida London amaldorlari

diqqat-e'tiborini qaratib shunday dedi: Kamondan o'q otish Yoshlar uchun foydali bo'lsa ham har xil befoyda va futbolga o'xshash «qonunsiz yoki qonunga xilof bo'lgan» o'yinlarni ko'paytirish hisobiga, uni ikkinchi o'ringa

surib qo'ydilar. Shunday qilib, birinchi deb atalgan futbol, rasmiy ravishda birinchi bo'lib xush kelmay qoldi. Buni amalga oshirishi shart edi, lekin sheriflar qirolning farmonini bajarishga avvalombor harakat qilmadilar, roppa-rosa 40 yildan keyin Richard II yangi farmon qabul qilib, qirolliklarda futbol o'ynashni man etdi. Huddi shunga o'xshash qonun 1401 yilda Genrix IV tomonidan qabul qilindi. Lekin uning Yoshlar sevib qolgan o'yinni taqiqlashga qilgan urinishi zoe ketdi. Ana shunday urinishlarga qaramasdan to'p o'yini o'ziga baribir yo'l ochdi. Nihoyat, XIX asr ayniqsa uning ikkinchi yarmidan boshlab bu o'yin rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Ayniqsa shu davrdan boshlab sport metodi ko'proq jismoniy tarbiyani maqsadga tan oldi, sport va sport o'yinlari esa jismoniy tarbiya ishlarini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib qoldi. To'p o'yini, birinchi navbatda, Angliya kollej va universitetlarida tarqaldi. To'p o'yini XIX asrning ikkinchi yarmida takomillashtirildi, uning mazmuni aniq ikki yo'nalishga belgilandi – uning beshtasi qo'llab-quvvatlandi. Kembridj kolleji 1863 yili futbol uyushmasini tashkil qildilar va dumaloq to'p bilan oyoqda o'ynash o'yini deb atashga qaror qabul qildilar. Regbi shahar universiteti shaxsan ikkinchi yo'nalish tarafdorlari oval shaklidagi to'pda ham qo'l, ham oyoq bilan o'ynashga qaror qildilar. Undan ilgari to'p o'ynashning bir xil qoidalarni o'rnatishga va ishlab chiqishga harakat qilgan edilar. Biroq bu o'yin dunyo ko'zini ko'rmasdan yo'qoldi. Mana shunga qaramasdan, bu qoida ko'pchilik kollejlarda «Kembridj qoidasi» sifatida ma'lum edi. Bizga etib kelgan birgina qoida 1863 yil 26 oktyabrda Londonda Angliya futbol uyushmasining tashkil etilishi paytida bu o'yinning 13 moddadan iborat bo'lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan. Keyinchalik bu qoidalar boshqa barcha milliy uyushmalar uchun futbol o'yinining asosi bo'lib qoldi. Albatta uni hozirgi zamon qoidalari bilan solishtirib ko'rilganda katta o'zgarish bor. Baribir ushbu qoidalar qo'llanilib bordi, asta-sekinlik bilan zamonaviy ko'rinishga keldi.

1866 yili «o'yindan chiqqan» qoidalar yengillashtirildi. Endi raqib chizig'i bilan o'zi o'rtasida qarshi tamon o'yinchilardan uch kishi bo'lsa, bu o'yinchi

«o'yindan chiqqan» bo'lmaydi. Yana shu yili darvoza ustunlarini gorizontal arqon tortib birlashtirishga qaror qilinib, arqonning yerdan balandligi 5,5 m qilib belgilandi. Darvozabonning qo'l bilan o'ynashga haqqi yo'q edi. 1871 yilda o'ng qo'l bilan o'ynashga ruxsat berilgan, u ham bo'lsa faqat darvoza maydoni ichida. Darvozabonning jarima maydoni ichida ham qo'l bilan o'ynash huquqini qo'lga kiritishi uchun 30 yildan ko'proq vaqt kerak bo'ldi (1902).

Uzoq vaqt mobaynida na jarima to'pi, na 11 metrlik zarba bo'lgan. Qoidabuzarlik uchun erkin zarbalar bilan chegaralanib qolinaverardi. Nihoyat, 1891 yil eng qat'iy jazolardan biri – 11 metrlik zarba kiritildi, uni inglizcha so'z bilan «penalti» deb ataydilar.

To'p himoyadagi o'yinchiga tegib sirt chiziqdan maydon tashqarisiga chiqib ketganda, burchakdan to'p tepish qoidasi 1873 yilda kiritildi.

1875 yili ustunlarni birlashtirilib turgan arqon yerdan 2,44 m balandlikdagi to'singa almashtirildi. O'sha yili darvozaga to'p kiritilgandan keyin tomonlar almashinish qoidasi o'rniga, o'yinchilar tanaffusdan qaytgandan keyin almashinish qoidasini joriy qilindi. 1882 yili to'rtta mustaqil futbol ittifoqi Angliya, Shotlandiya, Uel's va Irlandiya futbol ittifoqlari birlashdi. Yagona qoidalar qabul qilindi va qoidalarga biron-bir o'zgarish kiritish huquqiga ega bo'lgan xalqaro kengash tasdiqlandi.

Futbol maydonida hakam birinchi marta 1880-1881 yillarda paydo bo'ldi.

O'yinni belgilangan qoidalarga muvofiq o'tkazish, urilgan gollar nechta bo'lganligini aniqlash va boshqalar, xatto o'sha vaqtlardayoq, hakamning vazifasi edi. 1891 yildan hakam maydonga ikkita yordamchisi bilan chiqadigan bo'ldi.

1871 yilda Angliyada mamlakat kubogi uchun o'yin ta'sis etildi. Ingliz futbol klublari hozirgi vaqtda ham o'sha kubok uchun kurashib kelmoqdalar.

Xalqaro miqyosidagi dastlabki futbol o'yini 1873 yili Angliya bilan Shotlandiya futbol jamoalari o'rtasida bo'lgan edi. Jamoalardagi o'yinchilar

soni 11 kishidan ko'p bo'lmasada ularning joy-joyiga qo'yilishi hozirgi vaqtdagidan boshqacharoq bo'lgan. Angliya jamoasida yetti o'yinchi hujumda, beshtasi yarim himoyada, ikki himoyachi va darvozabondan iborat edi. Keyingi yili ingliz futbol jamoalari ham o'yinchilari shatlanchasiga joylashtirishga o'tadi, chunki ana shunday joylashtirish o'zini oqlagan bo'lsa kerak.

Qoidaga kirgan o'zgarish va takomillashuvlar so'zsiz o'yin texnikasi va taktikasiga ta'sir qilmay qolmaydi.

XIX asrning 80 yillarida futbol o'yini kontinental Yevropa qit'asi mamlakatlariga ham tarqaldi. Futbol 1875 yilda Gollandiya sal keyinroq Daniyada o'ynala boshlandi. Daniya ko'p o'tmay qit'ada futbol bo'yicha yetakchi o'ringa chiqib, birinchi jahon urishiga qadar shu mavqeini saqlab qoldi. Futbol 1882 yilda Shveysariyada 1890 yilda Chexiyada, 1894 yilda Avstriyada o'ynala boshlandi. 1904 yili Xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA) tuzildi. FIFA bilan bir qatorda 1954 yildan buyon Yevropa futbol ittifoqi UEFA ham ishlab turibdi. 1930 yildan beri har to'rt yilda jahon chempionati, 1958 yildan beri Yevropa chempionati o'tkazilib ularda milliy terma jamoalar qatnashib kelmoqda. 1900 yilda boshlab futbol sportning Olimpiya turlari qatoriga kirdi, biroq 1908 yildagina u rasman Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritildi. UEFA rahbarligida quyidagi kubok o'yinlari o'tkazilib turadi. Yevropa chempionatlari kubogi (1956 yildan), Kubok egalari kubogi (1961 yildan beri) va Yarmarkalar kubogi (1958 yildan) bular endilikda UEFA kubogi deb ataladi. 1963 yildan boshlab Kubok egalari va Chempionlar kubogi birlashtirilib Yevropa chempionlar ligasi tashkil qilindi.

1948 yildan boshlab o'smirlar jamoasi uchun UEFA turniri o'tkazilib kelinmoqda. Bundan tashqari, 1977 yildan boshlab har yili FIFA rahbarligida o'smirlar o'rtasida jahon chempionati o'tkaziladi.

1.2. Futbol boshqaruvining tashkiliy tuzilishi

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi (O'FA) jamoatchilik tashkiloti sifatida mamlakatda futbolning rivojlanishi uchun to'liq javobgardir. Mamlakatda bolalar va o'smirlar futbolini ommaviylashtirish, futbolchi, murabbiy va hakamlarning professional darajasi va mahoratini oshirish, musobaqalar tizimini tashkil etish va takomillashtirish, moddiy-texnik bazaning rivojlanishiga ko'maklashish O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining asosiy vazifalaridandir.



O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi O'zbekiston respublikasida futbol rivojiga oid joriy va istiqbolli rejalar ishlab chiqadi, O'zbekiston terma jamoalarining tayyorgarligini tashkillashtiradi.

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi 14 ta hududiy va viloyat futbol federatsiyalarini, 200 dan ortiq usta jamoalari, futbol klublari, sport maktablari, iqtidorlilar va terma jamoa tayyorlash markazlarini birlashtiradi, O'zbekiston Respublikasi Turizim va sport ishlari vazirligi va viloyatlar madaniyat va sport ishlari boshqarmalari bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi nizomiga asoslangan xolda xududiy futbol assotsiatsiyalari o'z ish sharoitlariga muvofiq nizom ishlab chiqadi va shu nizom bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi.

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining eng yuqori organi anjuman bo'lib, unda 4 yil muddatga prezident saylanadi. Ijroiya qo'mitasi ish organi

hisoblanadi. Futbolni rivojlantirish masalalari bo'yicha, qabul qilingan qarorlarning tadbiq etilishini nazorat qilish uchun ijroiya qo'mitaga qo'shimcha bolalar va o'smirlar, o'quv-uslubiy, hakamlar va boshqa qo'mitalar tuziladi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994 yil 21 mayda tuzilgan va Ayni paytda 200 dan ortiq milliy federatsiyalarni birlashtirib turgan halqaro futbol federatsiyalari uyushmasi (FIFA) yaqindan hamkorlik olib boradi. Huquqiy joylashuv jihatidan O'zbekiston futbol federatsiyasi Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK) tarkibiga kiradi.

FIFAning tashkiliy negizini 6 qit'aning tashkilotidan iborat. Bular: UEFA – Yevropa ittifoqi futbol uyushmasi, KONKAKAF – shimoliy va markaziy Amerika mamlakatlari hamda Karib dengizi havzasi mamlakatlarining futbol konferensiyasi, KONMEVOL – janubiy Amerika mamlakatlari futbol konferensiyasi, KAF – Afrika futbol konferensiyasi, AFK – Osiyo futbol konferensiyasi, KFO – Okeaniya futbol konferensiyasidir.

FIFAning oliy organi kongressdir.

FIFA ning joriy faoliyatini ijro qo'mita bilan bir qatorda yana bir necha maxsus qo'mitalar boshqarib boradi. Ular quyidagilardir: favqulodda holatlar, moliyaviy, jahon kubogini o'tkazish bo'yicha, olimpiya turnirlari, o'smirlar chempionatlari, hakamlar, texnik, intizom, tibbiy va h.k. qo'mitalardir.

FIFA ning asosiy vazifasi xududlarda futbol rivojlanishini nazorat qilish va moliyaviy va uslubiy yordam ko'rsatish, nizom va qarorlar, o'yin qoidalarining buzilishining oldini olish bo'yicha kerakli choralar ko'rish, irqiy, siyosiy va diniy sabablarga asosan kamsitilishga yo'l qo'ymaslikdir.

1.3. Futbolning rivojlanishi va musobaqalar tarixi.

Futbol bo'yicha jahon chempionatlari tarixiga nazar soladigan bo'lsak 1930 yildan 2023 yilga qadar futbol sport turi bo'yicha jami 22 ta jahon

chempionati rasman o'tkazilgan bo'lib, ularda jamoalar quyidagicha g'oliblikni qo'lga kiritishgan.

№	Davlatlar nomi	Chempion-lik soni	Chempionlik qo'lga kiritilgan yillar				
			1	2	3	4	5
1	Braziliya	5	1958	1962	1970	1994	2002
2	Germaniya	4	1954	1974	1990	2014	
3	Italiya	4	1934	1938	1982	2006	
4	Argentina	3	1978	1986	2022		
5	Urugvay	2	1930	1950			
6	Frantsiya	2	1998	2018			
7	Ispaniya	1	2010				
8	Angliya	1	1966				

Bugungi kunga qadar jami 8 ta davlat jahon chempionatida g'oliblikni qo'lga kiritishgan.

Eng ko'p finalga chiqqan jamoa Germaniya bo'lib 8 marta finalda o'ynagan shularning 4 tasida g'olib bo'lgan. Braziliya esa 7 marta finalda o'ynagan.

Futbol bo'yicha 1978 yilga qadar jahon chempionatlarida jami 16 ta davlat ishtirok etgan. 1982 yildan 24 jamoa, 1998 yildan 32 ta jamoa ishtirok etgan. 2024 yildan 48 ta jamoa ishtirok etishi rejalashtirilmoqda.

1906 yilni O'rta Osiyoda futbol dunyoga kelgan yil deb hisoblash mumkin.

1.4.O'zbekistonga futbolning kirib kelishi va rivojlanishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davr mobaynida futbolchilar va trenerlarning bir necha avlodi almashdi. Terma jamoalar turli miqyosdagi xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, muayyan yutuqlarga erishdilar. Mamlakatning ichki chempionati har yili muntazam ravishda o'tkazib turiladi.

Bolalar va o'smirlar uchun mini futbol bo'yicha ko'pgina musobaqalar tashkil etilmoqda. Ayollar futboliga ham alohida e'tibor qaratilayotir.

O'zbekistonda uyushgan holda futbol bilan shug'ullanuvchilar 70000 dan ortiq, 320 dan ziyod futbol maktablari hamda maktab-internatlar mavjud; terma jamoalarni tayyorlash bo'yicha yangi markazlar ochilmoqda, 3000 dan ortiq trenerlar o'rta va oliy jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega.

O'zbekistonda zamonaviy futbol o'tgan asrning boshlarida paydo bo'ldi va tezda mashhur o'yinga aylandi. Uning rivojlanish joylari Farg'ona, Toshkent, Andijon, Qo'qon va Samarqand edi.

Ilk bor futbolni Farg'ona shahrida o'ynaganlar. Xuddi shu yerda 1911 yilning oxirida birinchi futbol jamoasi tashkil topgan.

Farg'onada tuzilgan futbol jamoalari soni 1912 yil avgustida «Futbolchilar jamoasi»ga birlashishga yo'l berdi.

Bir oz vaqt o'tgach, Toshkentda ham futbol o'ynay boshladilar. Toshkentlik futbol ishqibozlari orasida eng mashhur jamoa bu TOLS – Tashkentskoe obchestvo lyubiteley sporta (TSIJ – Toshkent sport ishqibozlari jamiyati) edi.

Bu jamiyat 1912 yilda tuzilgan bo'lib, juda qisqa vaqt ichida futbol hamda boshqa sport turlarining rivojlanishi uchun ko'p xizmat qilgan. 1912 yilning ikkinchi yarmida O'zbekistonda futbol aytarli darajada yoyila boshladi. Futbol o'yiniga Qo'qon, Andijon va Samarqandda ham qiziqish orta boshladi.

Bu yillardagi eng qiziqarli bosqich albatta Farg'ona, Toshkent, Andijon, Samarqand futbolchilarining uchrashuvi bo'ldi. Toshkentga tashrif buyurgan ilk futbolchilar Samarqand futbolchilar to'garagi (SFT) a'zolari edi.

1912 yili Qo'qon shahrida ilk bor tuzilgan futbol jamoasi mahalliy millat o'yinchilardan iborat edi.

1913 yildan boshlab Andijon, Farg'ona, Samarqand shaharlarida futbol keng tarqala boshladi.

1922 yil 17 noyabrda Qo'qon, Andijon va Jalolobod jamoalari o'rtasida futbol uchrashuvlari o'tkazildi. Futbol jamoalarining uchrashuvlari o'sha vaqtlarda Qo'qon va Andijon jamoalari ayniqsa kuchli bo'lganini ko'rsatdi.

1921 yilda Toshkentda «Olimp» birlashgan sport jamiyati tashkil etildi. Bu o'sha davrda Turkistondagi eng yirik sport tashkilotlaridan biri edi. Mazkur jamiyatning futbol jamoasi ko'p yillar davomida O'rta Osiyodagi eng kuchli jamoalardan biri bo'lib hisoblanib keldi.

1921 yilda II O'rta Osiyo Olimpiadasi o'tkazildi. Bu Olimpiadada dasturiga boshqa sport turlari bilan birga futbol ham kiritilgan edi. Olimpiadada Toshkentning futbol jamoasigina barcha uchrashuvlarni mag'lubiyatsiz o'tkazdi.

1924 yilda Turkiston futbol jamoasi birinchi marta Rossiya birinchiligida qatnashib, yuksak natija ko'rsatdi.

1928 yili Qo'qon musulmonlar jamoasi, Toshkent va respublikamizning boshqa jamoalari bilan o'tkazilgan shaharlararo matchlarda qatnashdi.

1926 yil O'zbekistonga Sankt - Peterburg shahridagi Proletar zavodi futbol jamoasi keldi. Bu jamoa Toshkent futbolchilari bilan ikki marta uchrashdi. Ikkala uchrashuvda ham Toshkentliklar (3:0 ; 5:2) g'olib chiqdilar.

1927 yil iyulda O'zbekistonda birinchi spartakiada o'tkazildi. Bunda futbol jamoalari juda chiroyli o'yinlarni ko'rsatdilar. Birinchi o'rinni Toshkent futbolchilari, ikkinchi o'rinni farg'onaliklar egalladi. O'zbek futbolchilaridan iborat jamoalar o'rtasida esa farg'onaliklar birinchi, toshkentliklar ikkinchi bo'ldi.

Qo'qondagi Kamol va Xusan Muxiddinovlar, Oxunjon Boymatov va Xosiljon

Alimov kabi fidoyi kishilar tashkil etgan, keyinchalik Toshkentlik Vladimir Dovjenko ustozlik qilgan jamoa shuhrati 1930-yillarda Turkiston o'lkasi bo'ylab keng tarqaldi.

1934 yilda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari sportakidasida O'zbekiston futbol bo'yicha ikki jamoa bilan ishtirok etdi. Biri «musjmoa»,

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

ikkinchisi respublika terma jamoasi; «musjamo» ning etakchi futbolchilaridan Xusan va Qodir terma jamoa safidan joy olishdi.

Birinchi uchrashuvni Turkistonliklar bilan o'tkazib 2:0 hisobida, keyin Tojikiston terma jamoasi ustidan 1:0 hisobida g'alaba qozonildi. Qirg'iz futbolchilari esa «musjamo» bilan maydonga tushmaslikni afzal ko'rdilar. Musulmonlar jamoasi shu tariqa O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari spartakidasining g'olibi bo'ldi. Xusan Muxiddinov, darvozabon Kimyogarov va Jo'ra Xonazarov turnirning «Eng yaxshi futbolchilari» deb tan olindi.

1928 yilda Moskvada o'tkazilgan sobiq Ittifoq sportkiadasida O'zbekiston Rossiya jamoasi bilan 2:2 hisobida durang qildi. Futbol chempionatida 23 jamoa Rossiyadan 12 jamoa, sobiq ittifoq respublikalaridan 5 jamoa va chet el sport delegatsiyalari (Angliya, Finlandiya, Urugvay, Shveysariya, Avstriya hamda Germaniya) ning 6 jamoasi qatnashdi. O'zbekiston jamoasi yettinchi o'rinni egalladi.

1928 yilda o'zbek futbolchilari bir qator o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkazdilar. Masalan, Toshkentning KOR jamoasi Moskva chempionini 3:1 hisobida mag'lub etdi.

1929 yil qardosh respublika Zakavkaz'e bilan O'zbekiston o'rtasida futbol bo'yicha do'stlik uchrashuvi 3:1 hisobida O'zbekiston jamoasining g'alabasi bilan tugadi.

1931 yil 4 oktyabrda O'zbekiston sportchilari Toshkentga kelgan Norvegiya sportchilari bilan ilk bor uchrashdilar. Norvegiyalik futbolchilar O'zbekistonda uchta uchrashuv o'tkazdi. Birinchi uchrashuvda Toshkent terma jamoasi 4:2 hisobida g'alaba qozondi. Kasaba uyushmalari jamoasi bilan o'tkazilgan ikkinchi uchrashuvda norvegiyalik sportchilar 5:2 hisobi bilan g'olib chiqdilar. O'zbekiston terma jamoasi bilan bo'lgan uchrashuv 2:2 durang natija bilan tugadi. 1932-yili O'zbekiston sportchilari ikkinchi marta xalqaro uchrashuvda qatnashdilar. Bu safar O'zbekistonga Germaniya futbol jamoasi (ishchilar terma jamoasi) kelgan edi. Mehmonlar bilan ikkita match o'tkazildi. Toshkent shahri terma jamoasi bilan bo'lgan birinchi uchrashuvda

o'zbekistonlik futbolchilar 4:2 hisobida g'olib chiqdilar. O'zbekiston terma jamoasi bilan bo'lgan ikkinchi uchrashuv ham o'zbek futbolchilari foydasiga hal bo'ldi (3:1).

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublika spartakidadalari bo'lib o'tdi; O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqaro spartakiadasi Olmaota shahrida o'tkazildi, unda o'zbek futbolchilari birinchi o'rinni egalladilar.

1946 yilda Toshkentga Moskva «Lokomotiv» masterlar jamoasi kelib

O'zbekiston terma jamoasi bilan o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazdi. Bu uchrashuvda

O'zbekiston futbolchilari 3:0 hisobida g'alaba qozondilar. O'sha yili Toshkent «dinamo»chilari moskvalik klubdoshlarini qabul qildi. Bu uchrashuv durang bilan tugadi. Shuni aytish kerakki, O'zbekiston futbol jamoalari 1930 yildan boshlab faqat O'rta Osiyodagina emas, balki sobiq ittifoqda ham kuchli jamoalardan hisoblanib keldi.

Ayniqsa 1947-1949 yillarda respublikada futbol yuksalyotgani yaqqol sezila boshladi. Bu davrda O'zbekiston futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi yaxshilanib, texnik va taktik jihatdan kamol topayotgani ko'zga tashlanib turardi. Biroq undan keyingi yillarda O'zbekiston futbolchilarining o'yin mahorati pasaya boshladi, bu esa respublikamiz yoshlari o'rtasida futbol yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligiga yetarli e'tibor berilmagan natijasi edi.

O'sha yillarda Yoshlardan tuzilgan bir qancha kuchli jamoalar paydo bo'ldi. Masalan, 1947 yilda «Pishchevik» ko'ngilli sport jamiyatining yosh jamoasi respublika chempioni bo'ldi.

1947 yilda Toshkent Okrug ofitserlar uyining futbol jamoasi «B» klass magistrar jamoalari o'rtasida sobiq ittifoq birinchiligiga kiritildi. U O'rta Osiyo zonasida birinchi o'rinni ishg'ol qilib, zonalar g'oliblari o'rtasida o'tkazilgan final o'yinlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Futbol qishloq joylarda ham keng yoyila boshladi. Juda ko'p jamoa tuzilib, ular o'z mahoratini tinmay takomillashtira bordi. 1948 yilda Toshkent

viloyatidagi «Polyarnaya zvezda» jamoasi futbol bo'yicha respublika chempioni bo'ldi. O'sha yilning o'zida O'zbekiston futbolchilari O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari spartakiadasida g'olib chiqdilar. Toshkent ofitserlar uyi jamoasi sobiq ittifoq Qurolli Kuchlari chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

1951 yilda O'zbekistonning Yoshlar jamoasi musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, birinchiligi O'rta Osiyo zonasida birinchi o'rinni egalladi.

Shundan keyingi yillarda respublika birinchiliklari muntazam o'tkazib turildi va bu musobaqalarda O'zbekiston shaharlari jamoalari qatnashib keldi. 1953 yilda Toshkentdagi Yoshlar sport maktabining futbol jamoasi respublika chempioni nomini oldi. Bu yoshlar o'rtasida futbolni rivojlantirishdan dalolat berar edi. Respublika birinchiliklaridan tashqari har yili O'zbekiston kubogi uchun ham musobaqalar o'tkazilib keldi. Bu musobaqalarda yil sayin ko'proq jamoalar qatnashadi. Masalan, 1954 yili O'zbekiston kubogi uchun o'tkazilgan musobaqalarda 300 dan ortiq jamoa qatnashdi.

1955 yil mavsumida O'zbekiston bilan Afg'oniston futbolchilari o'rtasida xalqaro uchrashuv bo'ldi. Bu uchrashuv 4:0 hisobida O'zbekiston futbolchilarining g'alabasi bilan yakunlandi. Keyingi yili O'zbekiston «Paxtakor» jamiyatining futbolchilari Efiopiya futbolchilarini qabul qildilar. G'oyat do'stona vaziyatda o'tgan bu xalqaro uchrashuv 3:0 hisobida Paxtakor jamoasining g'alabasi bilan tugadi.

1956 yilda O'zbekiston futbolchilari sobiq ittifoq xalqlari sportakiadasida qatnashib 12 o'rinni egalladi.

1962 yilda «Paxtakor» jamoasi sobiq ittifoq chempionati «A» klassida 6-o'rinni egallab, katta muvaffaqiyat qozondi. Lekin 1965 yil mavsumida 10-, 1966 yil 9- va 1967 yili 15-o'ringa tushib qoldi. 1968 yildagi kubok o'yinlarida ikkinchi o'rinni (Torpeda M – Paxtakor 1:0) oldilar.

**Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston milliy chempionati va Kubok g'oliblari
2-3 o'rin sohiblari. 1992-2023 yillar.**

Yillar	1-O'rin	2-O'rin	3-O'rin	Kubok g'olibi
1992	Paxtakor(1)- Neftchi(1)		So'g'diyona	Navbaxor-1
1993	Neftchi(2)	Paxtakor	Navbaxor	Paxtakor-1
1994	Neftchi(3)	Nurafshon	Navbaxor	Neftchi-1
1995	Neftchi(4)	MHSK	Navbaxor	Navbaxor-2
1996	Navbahor(1)	Neftchi	MHSK	Neftchi-2
1997	MHSK(1)	Neftchi	Navbaxor	Paxtakor-2
1998	Paxtakor(2)	Neftchi	Navbaxor	Navbaxor-3
1999	Do'stlik(1)	Neftchi	Navbaxor	Do'stlik-1
2000	Do'stlik(2)	Neftchi	Nasaf	Do'stlik-2
2001	Neftchi(5)	Paxtakor	Nasaf	Paxtakor-3
2002	Paxtakor(3)	Neftchi	Qizilqum	Paxtakor-4
2003	Paxtakor(4)	Neftchi	Navbaxor	Paxtakor-5
2004	Paxtakor(5)	Neftchi	Navbaxor	Paxtakor-6
2005	Paxtakor(6)	Mash'al	Nasaf	Paxtakor-7
2006	Paxtakor(7)	Neftchi	Nasaf	Paxtakor-8
2007	Paxtakor(8)	Bunyodkor	Mash'al	Paxtakor-9
2008	Bunyodkor(1)	Paxtakor	Neftchi	Bunyodkor-1
2009	Bunyodkor(2)	Paxtakor	Nasaf	Paxtakor-10
2010	Bunyodkor(3)	Paxtakor	Nasaf	Bunyodkor-2
2011	Bunyodkor(4)	Nasaf	Lokomotiv	Paxtakor-11
2012	Paxtakor(9)	Bunyodkor	Lokomotiv	Bunyodkor-3
2013	Bunyodkor(5)	Lokomotiv	Nasaf	Bunyodkor-4
2014	Paxtakor(10)	Lokomotiv	Nasaf	Lokomotiv-1
2015	Paxtakor(11)	Lokomotiv	Nasaf	Nasaf-1

2016	Lokomotiv(1)	Bunyodkor	Nasaf	Lokomotiv-2
2017	Lokomotiv(2)	Nasaf	Paxtakor	Lokomotiv-3
2018	Lokomotiv(3)	Paxtakor	Navbaxor	AGMK-1
2019	Paxtakor(12)	Lokomotiv	Bunyodkor	Paxtakor-12
2020	Paxtakor(13)	Nasaf	AGMK	Paxtakor-13
2021	Paxtakor(14)	So'g'diyona	AGMK	Nasaf-2
2022	Paxtakor(15)	Navbaxor	Nasaf	Nasaf-3

Mustaqillikka erishganimizdan keyin futbol yanada rivojlana bordi. O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994 yil 21 mayda tashkil topdi. O'zbekiston futbol federatsiyasi 14 ta hududiy va viloyat futbol federatsiyasini, 200 dan ortiq usta jamoalari, futbol klublari, sport maktablari, iqtidorlilar va terma jamoa tayyorlash markazlari birlashtiradi. O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994 – yil 7 – iyundan boshlab FIFAga ya'ni Xalqaro futbol federatsiyasiga a'zo bo'ldi. Xududiy joylashuv jihatidan O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994 yil dekabr oyida Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK)ga a'zo bo'ldi. Shu yo'l bilan mamlakat futbol jamoalari yirik xalqaro turnirda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Jahon, Osiyo chempionatlari Olimpiada va Osiyo o'yinlari musobaqalarida ishtirok etish imkoni yaratildi. O'zbekiston milliy terma jamoasi 1994 yilda Yaponiyaning Xirosima shahrida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida chempion bo'ldilar. Bu yutuq O'zbekiston milliy terma jamoasining eng katta yutuqlardan biri sanaladi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston milliy chempionati o'tkazilib kelinmoqda unda Toshkentning Paxtakor jamoasi (1992, 1998, 2002, 2003, 2004, 2005, 2006, 2007, 2012, 2014, 2015, 2019, 2020, 2021, 2022) yillarda O'zbekiston chempioni (1993, 1997, 2001, 2002, 2003, 2004, 2005, 2006, 2007, 2009, 2011, 2019, 2020) yillarda O'zbekiston kubogi sohibi bo'ldilar. 2007 – yil yanvar oyida Moskvada o'tkazilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kubogi musobaqsida qatnashib oliy o'rinni egallab kubok sohibi bo'ldilar. Farg'onaning «Neftchi» jamoasi, (1992, 1993, 1994, 1995, 2001) yillarda O'zbekiston chempioni

(1994, 1996) yillarda O'zbekiston kubogi sohibi; Namanganni «Navbahor», jamoasi (1996 yil) O'zbekiston chempioni (1992, 1995,1998) yillarda O'zbekiston kubogi sohibi. Toshkentning MHSK futbol jamoasi (1997 yilda) O'zbekiston chempioni bo'ldilar. Bunyodkor jamoasi besh marotaba O'zbekiston chempioni bo'lganlar (2008,2009,2010,2011,2013) va 4 marotaba mamlakat Kubogi sovrindorlari qatoridan joy olganlar (2008,2010,2012,2013). O'zbekiston chempioni unvoniga yana, Toshkentning Do'stlik jamoasi (1999, 2000) O'zbekiston chempioni (2015) yilda O'zbekiston kubogi sohibi. Toshkentning Lokomotiv jamoasi (2017, 2018, 2019) O'zbekiston chempioni (2014, 2016, 2017) yillarda O'zbekiston kubogi sohibi. Nasaf va 2015, 2021, 2022-yilda O'zbekiston Kubogini qo'lga kiritganlar.

O'zbekiston futbol jamoalaridan Toshkentning «Paxtakor», Olmaliqning «OKMK» hamda Qarshining «Nasaf» futbol jamoalari Osiyo futbol Konfederatsiyasi tomonidan o'tkaziladigan Osiyo chempionlar ligasi musobaqalarida muvoffaqiyatli ishtirok etib kelishmoqda. 2002 yil Qarshining «Nasaf» jamoasi Osiyo chempionlar kubogi musobaqasini saralash o'yinlarida 5 tasida g'alaba qozonib yarim finalda Eronning «Istiqlol» jamoasiga 2:5 hisobda mag'lubiyatga uchrab 4 – o'rinni egalladilar. 2003 – yil Toshkentning «Paxtakor» jamoasi Toshkentda bo'lib o'tgan Osiyo chempionlar ligasida Turkmanistonning «Nissa» jamoasini 3:0, Eronning «Peruza» jamoasini 1:0 va Iroqning «Al – Toliba» futbol jamoasini 3:0 hisobda mag'lubiyatga uchratib yarim finalda Taylantning «Bek – Tero Sosana» futbol jamoasiga 2 o'yin natijasiga ko'ra imkoniyatni boy berdi. 2002 – 2003 yillarda 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilardan iborat bo'lgan O'zbekiston yoshlar terma jamoasi, Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan Jahon chempionatini final ishtirokchisi bo'ldilar. Milliy terma jamoamiz futbol klub jamoalarimizni bu muvoffaqiyati Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda futbolni rivojlantirish to'g'risidagi chiqarilgan qarorlariga javob beradi.

Mustaqillikdan so'ng Vazirlar Mahkamasi futbolni rivojlantirish uchun qarorlar qabul qildi. 1993 yil 18 martdagi 144 – sonli «O'zbekiston

Respublikasida futbolni keyingi istiqbollarini belgilash to'g'risida»gi qarori 1996 yil 17 yanvardagi 27 – sonli «O'zbekistonda futbolning rivojlantirish tashkiliy asoslari va printsiplarini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi» qarori 1998 yil 16 iyul 238 – sonli «O'zbekistonda futbol taraqqiyoti jamg'armasini faoliyatini yaxshilash va uni qo'llab quvatlash to'g'risidagi» qarori 2006 yil 1 maydagi «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risidagi» qarori Respublikamizda ko'plab futbol maktablari, maxsus sport maktab internatlari, bolalar va o'smirlar sport maktablarini ochilishi O'zbekistonda futbolni rivojlantirish uchun olib borilayotgan ishlarning dalilidir 2007 yil 28 martda Xalqaro Futbol Federatsiyasi prezidenti Yozif Blater va Osiyo futbol Konfederatsiyasini prezidenti Muxammad Bin Xammam O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ular O'zbekistonda futbolni rivojlantirish uchun olib borilayotgan ishlarni ya'ni yangi o'yingohlarni ko'zdan kechirdi va olib borilayotgan ishlarga yuksak baho berdi. Tashrif mobaynida Xalqaro Futbol Federatsiyasi prezidenti Yozif Blater va Osiyo futbol Konfederatsiyasini prezidenti Muxammad Bin Xammam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bilan uchrashdilar hamda futbolni rivojlantirish uchun kelgusi ishlarni rejalashtirib oldilar. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash va xalqaro sportga qo'shgan buyuk hissasi uchun Xalqaro Futbol Federatsiyasi prezidenti Yozif Blaterga «Do'stlik» ordeni, Osiyo futbol Konfederatsiyasini prezidenti Muxammad Bin Xammamga «Shuhrat» medali topshirdi.

2. Bob. Futbol o'yin texnikasi

Qo'yilgan maqsadga erishmoq uchun o'yinda xilma-xil tarzda qo'shib turib qo'llaniladigan maxsus uslublar to'plami futbol texnikasini tashkil etadi.

Texnik uslublar – bu futbol o'yinini vujudga keltirish vositasi demak. Yuksak sport natijalariga erishish ko'p jihatdan futbolchining ana shu xilma-xil vositalarni qanchalik to'liq bilishiga, raqib jamoa o'yinchilari qarshilik ko'rsatayotgan, ko'pincha esa charchoq orta borayotgan sharoitda o'yin faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan, samarali qo'llanishga bog'liq. Futbol texnikasini yaxshi bilish futbolchining har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi va garmonik kamol topishidagi ajralmas qismidir.

O'yin taraqqiyotining yuz yildan ortiq tarixi mobaynida futbol texnikasida muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Bu evolyutsiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: boshning chakka qismi va orqasi bilan zarba berish, to'pni boldir bilan to'xtatish singari noratsional uslub va usullarni qo'llanish ancha kamayib ketdi; oyoq yuzi bilan zarba berishdan, to'pni son va ko'krakda to'xtatishdan, to'pni qo'l bilan tashlash (darvozabon texnikasi) dan foydalanish koeffitsienti oshdi, aldash harakatlari (fintlar) ko'paydi.

Hozirgi futboldagi texnik uslublar o'yin harakatlari tezligi va aniqligini oshirish uchun kuchdan yetarlicha tejab foydalanish imkonini beradigan, biomexanika nuqtai nazaridan maqbul harakat tizimi bilan xarakterlanadi. Tez va ishonchli, sodda va samarali bo'lsin! Futbol texnikasini qo'llanishga qo'yiladigan hozirgi kundagi talab ana shundan iborat.

Futbol texnikasining tasnifi texnik uslublarni umumiy (yoki o'xshash) o'ziga xos belgilariga qarab guruhlariga bo'linadi.

O'yin faoliyati xarakteriga qarab futbol texnikasida ikkita yirik bo'lim ajratiladi: maydon o'yinchisi texnikasi va darvozabon texnikasi. Har qaysi bo'lim esa quyidagi: harakatlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi bo'limchalariga bo'linadi. Kichik bo'limlar turli usullarda ijro etiladigan aniq

texnik uslublardan: harakatlanish texnikasi usublari va usullaridan iborat. Bulargan maydon o'yinchilari va darvozabon foydalanadi. Ammo ayrim uslub va usullar o'zining muayyan turlariga ega. Usul va turlarda harakatning asosiy mexanizmi umumiy bo'lib, detallaridagina farq bo'ladi. Har xil usul, usul va turlarni ijro etish, shartlari futbol texnikasini yanada turli-tuman qiladi.

O'rganilayotgan materialni tizimlashtirish, uslub, usul, turlarni yaxshi tushunishga, ularni to'g'ri tahlil qilishga, ta'lim va olingan bilimlarni takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

Futbol texnikasining xarakteristikasi maydon o'yinchisi va darvozabon uchun umumiy kichik bo'lim bo'lgan harakatlanish texnikasidan boshlanadi.

2.1. Futbolda harakatlanish texnikasi

Harakatlanish texnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: yugurish, sakrash, to'xtash, burilish (1-chizma).

O'yin vaqtida harakatlanish texnikasi uslublaridan xilma-xil tarzda qo'shib foydalaniladi. Yugurishning xilma - xil uslublarini sakrash, to'xtash, burilish bilan birga qo'shib olib borish futbolchi harakatlanishiga xos xususiyat hisoblanadi. Harakatlanish texnikasining usublari maydon o'yinchilari va darvozabonning to'pni boshqarish san'ati bilan chambarchas bog'liq. Harakatlanish texnikasi uslublarini keragicha hamda kompleks tarzda qo'llanish ko'p taktik vazifalarni (to'p olish uchun ochilish va raqibini chalg'itish, pozitsiya tanlash, o'yinchini to'sib olish va h. k) samarali hal qilish imkonini beradi. Yugurish futboldagi asosiy harakatlanish vositasidir. To'pni boshqarayotgan futbolchilar yugurish yordamida maydonda turlicha joylashib oladilar. Bundan tashqari yugurish tarkibiy qism sifatida to'pni boshqarish texnikasiga ham kiradi.

Futbolda yugurishning quyidagi usublari qo'llaniladi: oddiy yugurish, tisarilib yugurish, chalishtirma qadam tashlab yugurish, juftlama qadam

tashlab yugurish. Oddiy yugurishdan asosan to'g'riga borayotgan o'yinchilar bo'sh joyga chiqish, raqibni quvish va hokazolarda foydalanadi. Harakat tizimi ham tuzilishi ham engil atletika yugurishidan farq qilmagani uchun uni oddiy yugurish deyiladi. Qadam uzunligi, chastotasi va ritmidagina farqi bor xolos.

Yugurish qadamining uzunligi sprinterlarda 2-2,2 m ga teng bo'lsa, katta yoshli futbolchilarda o'rtacha 1,3-1,5 m ga teng. Qadamlar chastotasi sprinterlarda sekundiga 4-4,5 qadamga teng. Futbolchilarda chastota sal ortiqroq, sekundiga 5,15,5 qadam bo'ladi. Bu esa, havoda uchish fazasi qisqaroq bo'lgani sababli tez to'xtashga yoki tez burilib oshishga yordam beradi.

Tisarilib yugurishdan asosan to'pni olib qo'yishda va to'sib olishda qatnashayotgan himoyadagi o'yinchilar foydalanadilar. Yugurishning bu turi ham sildik (qo'shaloq qadamli) bo'ladi. Qisqa-qisqa, lekin tez-tez qadam tashlash, havoda uchish fazasining qariyb yo'qligi unga xos xususiyatdir. Buning sababi siltanish oyog'i orqaga uzatilganda sonning yozilishi cheklangan ekanidadir. O'yin sharoiti ko'pincha maksimal tezlikda tisarilib yugurishni talab qilib qoladi. Bunda tezlik qadam chastotasini oshirish hisobiga ortadigan bo'lib, bu ko'proq oyoqning orqaga faol harakat qilishiga bog'liq.


Tisarilib yugurayotganda o'yinchi ba'zan muvozanatni yo'qotib yiqilib tushadi. Tayanch oyoq vertikal turgan paytda gavdaning og'irlik markazi o'qi tayanch yuzasining tepasida turishi o'yinchining holati turg'un bo'lishi shartlaridan biridir. Chalishtirma qadam tashlab yugurishdan harakat yo'nalishini o'zgartirish uchun, turgan joydan o'ngga yoki chapga siltanib yugurish paytida, burilib olgandan keyin foydalaniladi. U harakatlanishning o'ziga xos vositasi bo'lib, asosan boshqa yugurish turlari bilan birga qo'shib qo'llaniladi.

Chalishtirma qadam tashlab yugurish yon tomonga bajariladigan yugurish qadamlari bilan xarakterlanadi. Qadam tashlash siklining birida

siltanuvchi oyoqni tayanch oyoqning oldiga chalishtirib o'tkaziladi. Yugurish paytda havoda uchish fazasi juda qisqa.

Juflama qadam tashlab yugurishdan taktik jihatdan kerakli holatga o'tishda (masalan, o'yinchi oldini to'sib olishda) foydalaniladi.

U dastlab harakatlanish fazasi sifatida foydalaniladi, keyinroq o'yindagi vaziyatga qarab, harakatlanish texnikasining turli uslublari sifatida ijro etiladi.



1-chizma. Futbolda harakatlanish texnikasi

Juflama qadam tashlab yugurish oyoqlarni sal bukib bajariladi. Birinchi qadamni harakat yo'nalishiga yaqin oyoqdan boshlab, yon tomonga tashlanadi. Ikkinchi qadamda oyoqlar juflanadi. Depsinish va siltanish harakatlarida zo'r berish yuqori tomonga emas, balki yon tomonga yo'naltiriladi.

Sakrash. To'xtash va buriqish uslublarning ba'zilarini ijro etishda sakrashdan foydalaniladi. Sakrash zarba berishning ayrim usullari, to'pni oyoqda, ko'krakda, bosh bilan to'xtatib qolish va ba'zi holdagi fintlar texnikasining tarkibiy qismlaridan biriga kiradi. O'yinda oldinga, yon tomonlarga, yuqoriga hamda shularga yaqin turadigan yo'nalishlarda sakraladi. O'yindagi vaziyat ko'p vaqtlarda maksimal baland yoki maksimal uzun sakrashni talab qilmaydi. Bunda sakrashning samaradorligi futbol o'ynayotgan odamning koordinatsion qobiliyati bilan belgilanadi va futbolchi o'zining turli dastlabki holatlardan fazo, vaqt va kuch xarakteristikalari optimal holatida bo'lgan harakatlar qilishi kerak bo'ladi.

Barcha xil sakrashlarda debsinish, havoda uchish va yerga tushish fazalari bo'ladi.

Sakrashning ikki xil uslubi mavjud: bir oyoqda debsinib sakrash va ikki oyoqda debsinib sakrash.

Bir oyoqda debsinib sakrash oldinga, yon tomonlarga, yuqoriga bajariladi. Bunday sakrashda faol debsinib, ikkinchi oyoqni silkitib, gavda og'irlik markazining o'qi sakrash tomonga o'tkaziladi. Sakrashning traektoriyasi va kuchi o'yindagi vaziyatga bog'liq. Bir oyoqda yoki ikki oyoqda yerga tushiladi. Qisqa masofali, qattiq amortizatsiya keyingi harakatlarga tezroq va samaraliroq o'tish imkonini beradi. Og'irlik markazi o'qining proektsiyasi tayanch yuzasining chegarasida yoki undan tashqarida bo'lishi ham shunga yordam beradi.

Sakrab to'pga bosh urayotganda ko'pincha maksimal baland ko'tarilish kerak bo'ladi. Bunda yugurib kelib debsinadigan oyoqni taqqa to'xtaydigan qilib (tayanchga nisbatan burchak hosil qilib) qo'yish yordam beradi. Sal

cho'qqaygandan keyin yuqoriga yoki yuqorilab oldinga tomon faol depsinish kerak bo'ladi, bunda qo'llarni ko'krak baravar silkitib ko'tarish depsinishning samarasini oshiradi.

Ikki oyoqda depsinib sakrash – bunday usul bilan oldinga, oldinlab yon tomonga va oraliq yo'nalishlarida sakraladi.

Turgan joydan sakraganda o'yinchi depsinish oldidan tezda salgina cho'nqayadi. Oyoqlarini faol to'g'rilash bilan birga gavda og'irlik markazining o'qi sakrash tomoniga o'tkaziladi va qo'llar silkitiladi. Yugurib kelib sakrayotganda so'nggi qadamda bir oyoqni taqqa to'xtaydigan qilib qo'yiladi. Cho'nqayish paytida ikkinchi oyoq birinchisi yoniga tezlik bilan juftlanadi. Depsinish havoda uchish va yerga tushish fazalari turgan joydan sakragandagi kabi bo'ladi.

To'xtash – harakatlanish texnikasida to'xtashga harakat yo'nalishini o'zgartirishning samarali vositasi deb qaraladi. To'satdan to'xtab qolganda, raqiblarning qayerda, qanday joylashganiga qarab turib to'p bilan ham, to'psiz ham o'sha ketayotgan tomoniga qarshi tomonga otilib ketiladi, o'ngga yoki chapga qochib qolinadi.

To'xtashda ikki xil uslub vositasi qo'llaniladi: sakrab to'xtash va tashlanib to'xtash.

Sakrab to'xtash uchun sal yuqoriga qisqaroq sakrab, siltangan oyoqda yerga tushiladi – bunda turg'unlik bo'lishi uchun shu oyoq sal egiladi. Ammo ko'pincha yerga ikki oyoqlab tushiladi.

Tashlanib to'xtash so'nggi yugurish qadami hisobiga bajariladi. Bunda siltangan oyoqni oldinga uzatib, tovonga tiralinadida, keyin oyoqni rostmana yerga qo'yiladi. Tashlanib to'xtash oyoqlarni anchagina bukib, ikki oyoqqa tayanib qolish bilan xarakterlanadi.

Barcha xil to'xtashlardan keyin, odatda, turli yo'nalishlarda harakat davom ettiriladi. Shuning uchun to'xtashdagi so'nggi holati harakatning start holati bo'lishi kerak.

Burilish – burilish yordamida futbolchilar tezlikni minimal kamaytirib, yugurish yo'nalishini o'zgartiradilar. Odatda turgan joyda burilgandan keyin start harakatlari boshlanadi. Burilish, shuningdek, zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib yurish va fintlarning ayrim usullarini bajarish texnikasi tarkibiga ham kiradi.

Burilishning quyidagi uslublaridan foydalaniladi: hatlab o'tib burilish, sakrab burilish, tayanch oyoqda burilish. O'yin sharoitiga qarab yon tomonlarga va orqaga burilish mumkin. Burilish turgan joyda ham, harakat paytida ham bajarilaveradi.

Hatlab o'tib burilganda qisqa-qisqa 2-3 qadam tashlash hisobiga kerakli yo'nalishga qarab olinadi.

Harakat yo'nalishini to'satdan va tez o'zgartirishda sakrab burilish samaraliroqdir. Bu ish burilish tomonga faol depsinib bajariladi. Silkinch oyoqning kafti ham shu tomonga aylantiriladi. Sakrash unchalik baland bo'lmasa ham to'la to'kis bajariladi.

Tayanch oyoqda burilishning ikki turi bor. Birinchisida burilish yo'nalishidan uzoqdagi oyoqqa tayanib burilinadi. Bunda futbolchi gavda og'irlik markazi o'qining proektsiyasini tayanch sath chegarasidan chiqarib, tayanch oyoq uchida burilish tomonga aylanadi. Ikkinchisida harakat yo'nalishiga yaqin oyoqqa tayanib burilinadi, gavda og'irlik markazining o'qi burilish tomonga ko'chadi. O'tkaziladigan oyoqni ham shu yo'nalishda tayanch oyoqning old tomoniga chalishtirib qo'yiladi. Burilish sal bukilgan tayanch oyoq uchida bajariladi.

2.2. Maydon o'yinchisining texnikasi

Maydon o'yinchisining texnikasi ikkita kichik bo'limdan iborat. Bulardan biri harakatlanish texnikasi bo'lsa, ikkinchisi to'pni boshqarish texnikasidir.


Maydon o'yinchilari harakatlanish texnikasining yuqorida tahlil qilingan xilma-xil uslublari, usul va turlarining barchasidan foydalanadilar.

To'pni boshqarish texnikasiga quyidagi uslublar guruhi kiradi: zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib yurish, aldash harakatlari (fintlar), to'pni olib qo'yish. Bundan tashqari, qo'lda bajariladigan spetsifik usul – yon chiziqning nariyog'idan to'pni tashlab berish ham to'pni boshqarish texnikasiga kiradi. O'yin vaqtida qaysi usul qancha miqdorda ijro etilishi futbolchilarning o'yindagi funktsiyalariga bog'liq. Usullarning ijro etish sifati esa maydon o'yinchilarining hammasida yuksak darajada bo'lishi kerak.

2.3. To'pga zarba berish texnikasi tasnifi


To'pga zarba berish futbol o'ynashning asosiy vositasi hisoblanadi. To'pga oyoq bilan va bosh bilan turli usullarda zarba beriladi. Zarba berishning tasnifi berilgan (2-chizma).

Zarba berishning barcha usullari muayyan maqsadga qaratilgan bo'lib, bu to'pning kerakli traektoriya bo'ylab harakatlanishi va optimal (ko'pincha esa maksimal) tezligi bilan xarakterlanadi. To'pning uchish tezligi zarba beruvchi bo'g'in (oyoq eki bosh) bilan to'pning o'zaro to'qnashgan paytdagi boshlang'ich tezligiga, shuningdek ular massasining bir-biriga nisbatiga bog'liq. O'zaro ta'sir etuvchi bo'g'inlari massasi nisbatan muhim bo'lgani sababli to'pning uchish tezligini oshirish uchun, zarba beruvchi bo'g'in tezligini oshirish kerak bo'ladi. To'pga oyoq bilan zarba berish to'pga oyoq bilan zarba berish oyoq kaftining ichki tomoni bilan, oyoq yuzining ichki, o'rta va tashqi qismlari bilan, oyoq uchi bilan, tovon bilan bajariladi. Zarbalar harakatsiz turgan to'pga, shuningdek turli yo'nalishlarda dumalab va uchib ketayotgan to'pga turgan joydan, harakat vaqtida, sakrab turib, burilib, yiqila turib beriladi.



2-chizma. Zarba berish texnikasi tasnifi

Oyoq kaftining ichki tomoni bilan tepish asosan qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishda, shuningdek mo'ljalga yaqin masofadan tepilayotganda qo'llaniladi. (1-rasm).




1-rasm. Oyoq kaftining ichki tomoni bilan zarba berish.

Shunday zarba berish texnikasining ba'zi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Yugurish boshlanadigan joy, to'p va mo'ljal (nishon) taxminan bir chiziqda bo'ladi. Zarba beruvchi oyoqni orqaga tortish so'nggi yugurish qadamidagi ortga depsinish hisobiga bajariladi.

Tepish harakati sonni oldinga bukish bilan bir vaqtda zarba beruvchi oyoqni tashqari tomon burishdan (supinatsiyadan) boshlanadi. Zarba berish paytida taranglangan oyoqning uchi tashqari tomon burilgan, uning kafti esa to'p uchadigan yo'nalishga nisbatan aniq to'g'ri burchak hosil qilgan bo'lishi kerak. Oyoq uchi sal ko'tarilgan bo'ladi. Zarba berish oyoq kafti ichki sathining o'rtasi bilan ijro etiladi. Oyoqning zarba berish vaqtidagi holati surib borish vaqtida ham saqlanib qoladi.

Oyoq kaftining ichki tomoni bilan tepilganda to'pga oyoqning kattaroq sathi tekkan uchun bunday tepish anchagina aniq bo'ladi. Biroq zarba beruvchi oyoqning orqaga tortilishi maksimal darajaga yetmagani sababli, bu usulda berilgan zarbaning kuchi boshqa usullardagiga nisbatan kamroq bo'ladi. Bu esa tos son bo'g'imining chekka holatdagi baquvvat paylari yozilayotganda son suyagi boshini bo'g'in chuqurchasiga siqib, sonning zarba berish harakati uchun zarur bo'lgan supinatsiyasini yo'q qilib qo'yishi bilan bog'liq.

Oyoq yuzining ichki qismi bilan zarba berish «o'rtacha» va «uzun» uzatishlarda, darvozaning uzunasiga «o'qdek» berishlar va hamma masofalardan nishonga tepish paytlarida qo'llaniladi (2-rasm).



2-rasm. Oyoq yuzining ichki qismi bilan zarba berish

Mazkur zarbani bajarishda to'p va nishonga nisbatan 45° hosil qilib yugurib kelinadi. Yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xususiy chetlanishlar 30° dan 60° gacha bo'lishi mumkin. Bunda zarba beruvchi oyoqning orqaga tortilishi maksimal darajaga yaqin bo'ladi. Tizzasi sal bukilgan tayanch oyoq kaftining tashqi qismi (oyoq tagining tashqi cheti) yerga qo'yiladi. Gavda tayanch oyoq tomonga sal engashadi. Tepish harakati sonni bukishdan boshlanib, boldirni keskin yozib yuborish bilan tugaydi. Oyoq uchi pastga cho'zilgan, oyoq tarang bo'ladi. Zarba paytida to'p bilan tizza bo'g'imini birlashtirib turuvchi shartli o'q frontal tekislikda og'ibroq turadi. Ana shu shart, shuningdek zarbani to'pning o'rta qismiga berish natijasida to'p past trayektoriya bo'ylab uchadi. Oyoq yuzining o'rta qismi bilan tepishni bajarish ko'p jihatdan oyoq ichki qismi bilan tepishga o'xshaydi, lekin uni bajarish detallari bir oz farq qiladi.

Yugurib kelish chizig'i, to'p va nishon taxminan bir chiziqda bo'ladi. Oyoqni orqaga, tortish ham, zarba berish harakati ham qat'iy sagittal tekislikda (oldinga-orqaga yo'nalishida) bajariladi. Tayanch oyoqning to'pning yon tomoniga qo'yiladi — bunda oyoq bilan to'p baravarlashadi. Tepish harakati davomida to'p tayanch oyoq kafti tovonidan yumalab uchiga ko'tariladi. To'p bilan tizza bo'g'imini birlashtirib turuvchi shartli o'q zarba paytida qat'iy vertikal bo'ladi. Bu holat surib borish vaqtida saqlanib qoladi.

To'p bilan oyoqning to'qnashish sathi kattagina ekani zarba berishni anchagina aniq bajarish imkonini beradi. Yugurib kelish, oyoqni orqaga tortish va tepish bir tekislikda bajarilgani* uchun harakat sistemasi biomexanika jihatidan kerakligicha ishlatiladi hamda boshqa usullardagiga nisbatan kattaroq kuch bilan tepiladi. Biroq, oyoq yuzining o'rta qismi bilan tepilganda oyoq uchi maksimal darajada pastga tortilgan bo'lishini yodda tutish kerak. Buning natijasida oyoq kafti yerga tegib ketib, oyoq og'irishi va lat yeyishi mumkin. Bu esa ehtiyot tormozlanish oqibatida ko'pincha harakat amplitudasi o'zgarishiga, zarba kuchi kamayishiga, uning samaradorligi pasayib ketishiga olib kelishi mumkin.


Oyoq yuzining tashqi qismi bilan tepish burama zarba berish paytida eng ko'p qo'llaniladi. Oyoq yuzining o'rta va tashqi qismlari bilan tepishdagi harakatlarning strukturasi o'xshash bo'lib, farqi bunda tepish harakati vaqtida boldir bilan oyoq kafti qismi ichkari tomonga qarab buriladi (3-rasm).



3-rasm. Oyoq yuzining tashqi qismi bilan tepish burama zarba berish.

kutilmaganda, tayyorgarlik ko'rmay turib, nishonga tepib qolish zarur

Oyoq uchi bilan zarba bo'lib qolganda bajariladi (4-rasm). Bundan tashqari bu tepish raqibdagi to'pni tashlanib yoki shpagat qilib tepib yuborishda ancha samaralidir.




4-rasm. Oyoq uchi bilan zarba.

Zarba vaqtida yugurib kelish ham to'p va nishon ham, bir chiziqda bo'ladi. Yugurib kelganda o'nggi qadamdagi depsinish, tepish uchun oyoqni tortish ham hisoblanadi. Tepish harakati tizza sal bukilgan tarang oyoqda bajariladi. Tepish paytida oyoq uchi sal ko'tarilgan bo'ladi.

Oyoq uchining zarba beruvchi sathi juda kam bo'lgani uchun bu usulda, ayniqsa to'p yumalab kelayotgan bo'lsa, tepish unchalik aniq chiqmaydi.

Harakatsiz to'pni tepish. Boshlang'ich, jarima va erkin to'p tepish, burchakdan to'p tepishda, shuningdek darvozadan to'p tepishda o'yinchi harakatsiz yotgan to'pni tepadi. Zarba berishning barcha usullaridagi ijro texnikasining yuqorida zikr etilgan struktura xususiyatlari harakatsiz yotgan to'pni tepishga ham to'lig'icha taalluqli bo'lib, faqat taktik vazifalar qandayligiga qarab tayyorlov fazasida yugurib kelishning uzoq-qisqaligi va tezligi har xil bo'ladi. (5rasm).



5-rasm. Harakatsiz to'pga zarba berish.

Dumalab kelayotgan to'pga zarba berish. Dumalab kelayotgan to'pni tepishda ham zarba berish asosiy usullari va turlarining hammasi qo'llaniladi.

Bunday zarba berishdagi texnik harakatlar yerda harakatsiz yotgan to'pni tepishdagi harakatlardan farq qilmaydi. Asosiy vazifa o'z harakati tezligini to'p harakatining yo'nalishi va tezligi bilan muvofiqlashtirib olishdan iborat. To'pning quyidagi asosiy harakat yo'nalishlari bor: o'yinchidan nari ketish, o'yinchi ro'parasidan, yon (o'ng va chap) tomondan, shuningdek shu yo'nalishlar oralig'idan kelish.

Tayanch oyoqni erga qo'yish, ya'ni kichik fazani qanday bajarishning xususiyatlari ana shu yo'nalishlarga qarab belgilanadi. O'yinchidan nariga dumalab ketayotgan to'pni tepishda tayanch oyoq to'pdan naribroq o'tkazilib uning yon tomoniga qo'yiladi. Ro'paradan dumalab kelayotgan to'pni tepishda tayanch oyoq to'pga yetib bormaydi. Agar to'p yon (o'ng yoki chap) tomondan dumalab kelayotgan bo'lsa, uni to'pga yaqinroq oyoq bilan tepgan ma'qul. (6-rasm).



6-rasm. Dumalab kelayotgan to'pga zarba berish.

Hamma hollarda ham tayanch oyoqni to'pdan qancha oraliqda qo'yish to'pning harakat tezligiga bog'liq bo'lib, buni zarba berish harakati vaqtida to'p tayanch oyoq bilan tenglashib qoladigan qilib mo'ljallash kerak. Ana shu holat zarba berish uchun eng qulay hisoblanadi.

2.4. Bosh bilan zarba berish tasnifi


Bu texnik uslub yulidagi muhim vosita hisoblanadi. To'pga bosh qo'yish o'yin jarayonida yakunlovchi zarba berishda ham, sheriklarga to'p oshirishda ham qo'llaniladi.

Peshona bilan zarba berish va shuning variantlari bu uslubdagi eng ko'p foydalaniladigan usullardir. Shuning uchun o'yindagi vaziyatga qarab peshona bilan zarba berishning ikki xil varianti qo'llaniladi: sakramay zarba berish va sakrab zarba berish.

Sakramay peshona bilan zarba berishdagi (7-rasm) dastlabki holat kichikroq (50-70 sm) odimlab tik turishdir. Boshni orqaga tortishda o'yinchi gavidasini orqaga engashtiradi, orqadagi oyog'ini bukib, gavda og'irligini shu oyoqqa o'tkazadi. Qo'llar tirsakdan sal bukilgan bo'ladi.

Zarba berish harakat orqada turgan oyoqni to'g'irlash va gavidani rostlashdan boshlanib, boshning olg'a tomon keskin harakati bilan tugallanadi.

Gavdaning og'irligi oldindagi oyoqqa o'tkaziladi.



7-rasm. Sakramay peshona bilan zarba berish.

Sakrab peshona bilan zarba berish (8-rasm) bir oyoqda yoki ikki oyoqda deysinib, yuqoriga qarab bajariladi.




Рис. 5

8-rasm. Sakrab peshona bilan zarba berish.

2.5. To'pni to'xtatish jarayonini tasnifi


To'pni to'xtatish to'pni qabul qilish va egallash vositasi bo'lib xizmat qiladi. To'xtatishdan maqsad keyingi kerakli harakatlarni amalga oshirish uchun dumalab va uchib kelayotgan to'pning tezligini so'ndirishdan iborat. "To'pni to'xtatish"termini ba'zida "to'pni moslash", "to'pni qabul qilish" deb yuritiladigan ma'noda tushunish kerak bo'ladi. Shuning uchun to'pni to'xtatish usullarini ko'rib chiqayotganda futbolchi to'pni butunlay to'xtatib olmay, balki uni keyingi harakatlarini bajarish uchun moslab (o'tkazib) olishini nazarda tutamiz.

To'pni oyoq bilan, gavda va bosh bilan to'xtatiladi. To'xtatishlarning tasnifi berilgan. (3-chizma).


To'pni oyoq bilan to'xtatish – eng ko'p qo'llaniladigan texnik uslub. Uni turli usullarda bajariladi. Oyoq kaftining ichki tomonini, tag charmi, oyoq yuzi, o'rta qismi, son, oyoq yuzi ichki qismi, oyoq kafti tashqi tomoni, ko'krak, qorin,

pehona bilan to'xtatish. Harakatning asosiy fazalari hamma usullar uchun umumiy.

Oyoq kaftining ichki tomoni bilan to'p to'xtatish yumalab va uchib kelayotgan to'plarni qabul qilishda qo'llaniladi. To'xtatuvchi yuza bilan amortizatsiyalash yo'li anchagina katta bo'lgani sababli bu to'xtatish usulining ishonchlilik darajasi katta bo'ladi. (9-rasm).



9-rasm. Oyoq kaftining ichki tomoni bilan to'p to'xtatish



Turli traektoriya va turli yo'nalishda yumalab va uchib ketayotgan to'pga turgan joyda, harakat vaqtida, sakrab turib

3-chizma. To'xtatish jarayonining tasnifi.


Dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish uchun dastlabki holat to'p tomonga qarab turish. Gavdani og'irligi sal bukilgan tayanch oyoqda. To'xtatuvchi oyoq olg'a tomon (to'p qarshisiga) uzatiladi. Oyoq kafti tashqariga 90° buriladi. Oyoq uchi sal ko'tarilgan bo'ladi.

To'p bilan oyoq kafti to'qnashgan paytda to'xtatuvchi oyoq tayanch oyoq darajasiga qadar orqaga olinadi. To'xtatuvchi yuza oyoq kafti ichki yuzasining o'rtasiga to'g'ri keladi.

Pastlab, yani tizza baravar uchib kelayotgan to'pni to'xtatishdagi harakatlar dumalab kelayotgan to'plarini to'xtatishdagi harakatlardan unchalik farq qilmaydi. Biroq, past uchib kelayotgan to'pni to'xtatdigan oyoq tayyorlov fazasida bukilib, to'p balandligiga qadar bukiladi.

Balandlab uchib kelayotgan to'plar sakrab to'xtatiladi. bir yoki ikki oyoqda deysinib, yuqoriga sakraladi. To'xtatuvchi oyoqning tos-son va tizza bo'g'imlari qattiq bukiladi. Oyoq kafti tashqari tomonga buriladi. To'p to'xtatilgandan keyin bir oyoqda yerga tushiladi.

Tagcharm bilan to'p to'xtatish dumalab kelayotgan va pastga tushayotgan to'plarni to'xtatishda qo'llaniladi. (10-rasm). Dumalab kelayotgan to'pni to'xtatishdagi dastlabki holat-to'p tomonga qarab turish, gavdani og'irligi tayanch oyoqda. To'p yaqinlashib qolganda to'xtatuvchi oyoq sal tizzadan bukilib to'p tomonga uzatiladi. Kaftining uchi 30-40° yoziq (yuqori ko'tarilgan) bo'ladi. Tovon yer yuzasidan 5-10sm yuqoriroqda turadi.



10-rasm. Tagcharm bilan to'p to'xtatish.

To'p bilan tagcharm to'qnashgan paytda ozroqqina orqaga sindiruvchi harakat qilinadi. Pastga tushib ketayotgan to'pni tagcharm bilan to'xtatish uchuning yerga tushadigan joyini aniq mo'ljal qila bilishi kerak. To'xtatuvchi oyoq tizzadan bukilib, to'p tushadigan joy tepasiga keltiriladi, oyoqning uchi sal ko'tarilgan, ammo oyoqning o'zi bir oz bo'shattirilgan bo'lishi kerak.

To'pni u yerga tekkan paytda to'xtatish mumkin. Bunda oyoq kafti to'pni yerga qisib qoladi (lekin bosib yurolmaydi).

Oyoq yuzi bilan to'p to'xtatish keyingi yillarda keng tarqalgan bo'lib, harakat tizimini aniq idora qilishni talab etadi. To'xtatuvchi yuza, ya'ni oyoqning yuzi anchagina qattiq va o'lchami kichik bo'lgani sababli harakat tuzulishida salgina adashish yoki to'pning trayektoriyasi va tezligini noaniq mo'ljallash to'xtatishida jiddiy xatoga olib keladi.

Oyoq yuzasi bilan ko'pincha o'yinchining oldiga kelib tushayotgan to'p to'xtatiladi. Pastlab kelayotgan, ya'ni trayektoriyasi past to'pni to'xtatishda tos-son va tizza bo'g'imlari taxminan 90° bukilgan to'xtatuvchi oyoq oldinga uzatiladi. Uning uchi bukik (pastga tortilgan). To'p bilan oyoq yuzi to'qnashgan paytda (to'p juda tez kelayotganda esa sal oldinroq) orqaga amortizatsiyalovchi harakat qilinadi.

To'xtatuvchi sath oyoq yuzining o'rta qismiga to'g'ri keladi.

Baland traektoriyali, tushib kelayotgan to'pni to'xtatishda to'xtatuvchi oyoqning kafti yerga parallel turadi. To'p oyoq yuzinig pastki qismiga (barmoqlarga yaqin joyga) tushiriladi. Pastlatib orqaga tomon so'ndiruvchi harakat qilinadi.

Son bilan to'p to'xtatish hozirgi futbolda ko'p qo'llaniladi. Buning sababi shundaki, tushib-kelishdagi trayektoriyasi har xil to'plarni son bilan to'xtatish mumkin. Bundan tashqari, to'xtatuvchi sath bilan amortizatsiyalash yo'li anchagina katta bo'lgani uchun bu juda ishonchli hisoblanadi (11-rasm).



11-rasm. Son bilan to'p to'xtatish.

Oyoq yuzining ichki qismi bilan to'p o'tkazish. Bu usul bilan ko'pincha yon tomonga yoki orqaga to'p o'tkaziladi. Dastlabki holat – tushib kelayotgan to'p tomonga yarim burilib turish. To'pga yaqinroq turgan to'xtatuvchi oyoq hazadan sal bukilgan bo'lib, yon tomonga, to'p qarshisiga uzatiladi. To'p yaqinlasha boshlaganda oyoq uning ketadigan harakat qilaveradi. To'p yerdan sirpanish paytida unga yetib olib, oyoq kafti bilan bosib tushish kerak.

Ko'krak bilan to'pni to'xtatish. Bunda ham to'pni to'xtatish amortizatsiya va so'ndiruvchi harakatga asoslangan bo'ladi. Harakat tuzulishining uch fazali ekani ko'krak bilan to'p to'xtatishga xos xususiyatdir (12-rasm).



12-rasm. Ko'krak bilan to'pni to'xtatish.

Tayyorlov fazasida to'pni to'xtatish uchun qulay holatda mana bunday turib olinadi: futbolchi to'p tomonga qarab oladi; oyoqlar kerilgan yoki kichikroq qadam (50-70sm) kengligida ochilgan holda turiladi; ko'krak sal oldinga olingan, qo'llar tirsagi sal bukilgan, past tushirilgan. Ishchi faza so'ndiruvchi harakat bilan xarakterlanadi. To'p yaqinlashib kelganda gavda orqaga tortilib, yelka bilan ikki qo'l oldinga chiqariladi. Yakunlovchi fazada og'irlik markazi o'qi to'p bilan harakat qilish mo'ljallangan tomonga o'tkaziladi. Ko'krak balandligi uchib kelayotgan hamda turli trayektoriyada pastga tushib kelayotgan to'plarnigina ko'krak bilan to'xtatsa bo'ladi. Turli trayektoriyada uchib kelayotgan to'plarni to'xtatishda harakat mexanizmi asosan bir xil bo'lib, ayrim detallaridagina farq bor.

Ko'krak balandligida kelayotgan to'pni to'xtatishda o'yinchi oyoqlarini kichikroq qadam kengligida ochib, to'ppa-to'g'ri tik turadi, gavdaning og'irligi oldinda turgan oyoqqa tushadi.

So'ndiruvchi harakat qilganda gavda og'irligi orqadagi oyoqqa o'tkaziladi.


Pastga tushayotgan to'pni to'xtatishda gavda orqaga tortiladi. Og'ish burchagi to'pning uchish traektoriyasiga bog'liq (ko'krak tushib kelayotgan to'pga nisbatan to'g'ri burchak hosil qilish kerak).

Ko'krak bilan to'p to'xtatishdagi amortizatsiyasini juda aniq mo'ljallay bilish hamda so'ndiruvchi harakatni o'z vaqtida bajarish lozim.

2.6. To'pni olib yurish tasnifi

To'p olib yurish yordamida o'yinchi har xil joyga ko'chib yurishi mumkin. Bunda to'p doim o'yinchi nazoratida bo'ladi. To'p olib yurishda yugurib (ba'zan yurib), to'pga turli xil zarba beriladi. Zarba berish ketma-ket va turli maromda, oyoq bilan yoki bosh bilan ijro etiladi.

To'pni olib yurish tasnifi 4-chizmada berilgan. To'p olib yurishning ba'zi usullari mustaqil ahamiyat ga ega bo'lmay, o'yinda o'z holicha kamdan-kam qo'llaniladi. Ammo ularni to'p olib yurishning boshqa xillari bilan birga qo'shib olib borilishi o'rinli bo'ladi. Masalan, son yoki bosh bilan to'p olib yurish jihatdan noo'rin. Lekin o'yinda ko'pincha shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, unda to'pni oldin bir necha marta boshda urib, keyin sonda ozroq o'ynatib, pirovardida oyoq bilan kerakli usulda olib yurishga o'tiladi.



4-chizma. To'pni olib yurish tasnifi

Oyoq bilan to'p olib yurish. To'p olib yurishning bu asosiy uslubi yugurish (goho yurish) hamda to'pga oyoq bilan turli usullarda zarba berib borishning birga qo'shilganidir. Yugurish va to'pga oyoq bilan zarba berish texnikasining Tahlili alohida-alohida yuqorida berilgan. Shuning uchun to'p olib yurishning eng muhim detallari va xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.


To'p olib ketayotganda taktik vazifalarni kelib chiqib to'pga har xil kuch bilan zarba beriladi. Kattaroq masofani bosib o'tish kerak bo'lsa, to'pni

o'zidan 10-12 m uzoqlashtirib yugiriladi. Bunda raqib qarshilik ko'rsatsa, to'pni olib qo'yish mumkin. Shuning uchun to'pni uzluksiz nazorat qilib borish va 1-2 m dan ortiq uzoqlashtirib yubormaslik kerak. Shuning bilan birga to'pga tez-tez zarba beraverish ham to'p olib yurish tezligini kamaytirib yuborishini unutmaslik kerak.

Ko'rilgan ikkala holda ham zarba berish uchun maxsus silkinch harakatlar qilishning zarurati yo'q. Orqada oyoqda depsinish zarba berish uchun tayyorlov fazasi bo'ladi. Tayanch oyoq to'pning yonginasiga qo'yiladi. Silkinch oyoq to'p tomon harakat qilib zarba beradi.

To'p olib yurishning o'yindan eng ko'p qo'llaniladigan bir nechta turi bor. Ular bir-biridan zarba berish usuli bilangina farq qiladi (13-rasm).


Oyoq yuzini o'rta qismi bilan va oyoq uchi bilan to'p olib ketilayotganda asosan to'g'ri chiqli harakat qilinadi. Oyoq yuzining ichki qismi bilan olib yurish bo'ylab harakatlanish imkonini beradi. Oyoq kaftini ichki tomoni bilan to'p olib yurish harakat yo'nalishini keskin o'zgartirishga imkon beradi. Oyoq yuzining tashqi qismi bilan to'p olish yurishni universal usul deb hisoblasa bo'ladi. Bu usul to'g'ri chiziq bilan harakat qilish, yoy bo'ylab harakatlanish va yo'nalishni o'zgartirish imkonini beradi.



13-rasm. Oyoq bilan to'p olib yurish.

Sakrab borayotgan to'pni olib yurishda oyoq yuzini o'rta qismi bilan yoki son bilan zarba berib boriladi. Bu ikkala usulda to'pni yerga tushirmay olib yurish mumkin.

Bosh bilan to'pni olib yurish. Bu uslubni qo'llaganda o'yinchi turli yo'nalishlarda harakatlar qiladi va ketma-ket bosh qo'yish yordamida to'pni yerga tushirmay olib yuradi. Asosan peshona bilan zarba beriladi. To'pni oldinga tomon uning ketidan yetib borib yanbosh urishga ulgiradigan darajada kuch va trayektoriya bilan yo'naltiriladi.



14-rasm. Bosh bilan to'pni olib yurish

2.7. Futbolda aldash harakat texnikalari


Futbol texikasining raqib bilan bevosita yakkama – yakka kurashda bajariladigan uslublar guruhi aldash harakatlarini tashkil etdi. Fintlar raqib qashiligini yengish va o'yinni davom ettirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida ishlatiladi.

Fintlardan foydalanish hujumda ham, himoyada ham ko'p taktik masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Futbol texnikasi aldash harakatlarini quyidagi asosiy uslublari ko'zga tashlanadi: "qocha turib"aldash, "zarba berib" aldash, "to'pni to'xtatib"aldash. Bu fintlar va ularning turlarini bajarishning xilma-xil usullari bor fintlar tasnifi 5chizmada berilgan.

Oyoqni to'p ustidan o'tkazib "qochish". Bu fint ko'pincha raqib orqadan xujim qilganda qo'llaniladi. To'p o'zida bo'lgan o'yinchi tayyorlov harakatlari yon tomonga (masalan, chapga) ketmoqchi ekanini ko'rsatadi. Gavdasini chap tomonga buradi, o'ng oyog'ini chalishtirib to'p ustidan o'tkazadida, chap tomonga tashlanadi. Orqadan xujim qilayotgan raqib to'pni ko'rmaydi. Tashlangan o'yinchi ergashib, u xam chapga tashlanadi. Ana shu paytda to'p o'zida bo'lgan o'yinchi tezlik bilan o'ngga aylanib, to'pni oyoq yuzini tashqi qismi bilan olg'a yo'naltiriladida, keyin o'yindagi vaziyatga qarab, harakatni davom ettiriladi.

To'pni "tepid" fint qilish. Ana shu fintni bajarishning ba'zi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Yakkama-yakka tortishuvda qatnashayotgan raqib ro'paradan yoki oldindan sal yon tomondan kelayotgan bo'lsa, unga yaqinlashayotib, zarba beruvchi oyoq orqaga tortiladi. Bunday holat to'p nishonga tepilishi yoki uzatib yuborilishidan dalolat beradi. Buni ko'rgan raqib to'pni tortib olishga yoki to'p uchib o'tishi kerak bo'lgan zonani to'sishga harakat qiladi. Buning uchun u harakatni sekinlashtiradigan va to'xtatib qo'yadigan tashlanish, shpagat, sirpanish harakatlarini bajaradi. Bundan tashqari. Ana shunday holatlarda yakkama-yakka tortishuv harakatlariga o'tish uchun bir qadar vaqt kerak bo'ladi. O'yindagi vaziyat, sheriklar-u raqiblarning turishi, qarshilik ko'rsatayotgan raqibning holati qandayligiga qarab, asl niyatini amalga oshirish bosqichini tegishli usulida sekingina tepilib, raqibdan oldinga, o'ngga, chapga yoki orqaga qochib ketiladi.



5-chizma. Fintlar tasnifi.

Bordiyu, to'p uzatilgan bo'lib, sheriklardan biri to'pning harakat yo'lida (qulayroq) vaziyatda turgan bo'lsa, asl niyatini amalga oshirish bosqichida to'p ochiq turgan sherikka o'tkazilib yuboriladi.

To'pni oyoqda "to'xtatib" fint qilish. To'pni oyoqda to'xtatib qilinadigan aldash harakati to'p olib yurganda va uni sheriklaridan biri oshirib bergandan keyin turli usullarda bajariladi.

To'p olib ketayotganda raqib uni yon tomondan va yondan, orqaroqdan kelib olib qo'yishga harakat qilganda to'pni tagcharm bilan bosib va bosmasdan "to'xtatish" finti ishlatiladi.

Birinchi holatda to'p olib kelayotgandagi yugurish qadamining navbatdagsida o'yinchi tayanch oyog'ini to'la to'p ortiga yaqin qo'yib, uni raqibdan uzoqroq oyog'i tagcharmi bilan bosib qoladi. Go'yo to'p bilan birga to'xtatmoqchidek harakat qilinadi. Raqib bunga javoban harakatni sekinlashtiradi, ana shu paytda to'pni olg'a tomon sekingina tepiladi-da, yana olib ketilaveradi.

Ikkinchi holda esa tayyorlov bosqichida to'pni to'xtatayotganga o'xshash harakat qilinadi (15-rasm). O'yinchi harakatini sal sekinlatib, oyoq kaftini to'p ustiga qo'yadi. Asl niyatni amalga oshirish bosqichi oldingi yo'nalishda tezlatib ketilaveradi.



15-rasm. To'pni oyoqda "to'xtatib" fint qilish.

Sherik to'pni uzatgandan keyin "to'xtatib" aldash harakatini bajarishda bir oyoqqa tayanch holatga o'tib, to'xtatuvchi oyoq to'p kelayotgan tomonga uzatiladi.


Raqib to'pni qabul qilib olayotgan o'yinchiga hujum qiladi. Ana shu paytda o'yinchi to'pni to'xtatish o'rniga, o'tkazib yuboradi-yu, 80° ga aylanib, yana egallab oladi.

2.8. To'pni olib qo'yishning tasnifi

Asosan raqib to'pni olib ketayotganda yoki qabul qilib olayotganda undan to'pni olib qo'yishga harakat qilinadi. To'pin olib qo'yishning samarali chiqishi futbolchining vaziyatni baholash qobiliyatiga, ya'ni raqibgacha va to'pgacha bo'lgan masofani, ularning harakatlanish tezligini, o'yinchilar qanday turganligini va h.k. ni aniq mo'ljallay bilish, qobiliyatiga bog'liq. Raqibga yaqinlasha borayotib yoki ungacha bo'lgan oraliq masofani saqlab turib, raqib to'pni sal o'zidan uzoqlashtirganda unga hujum qilish kerak. Ana shu paytda hujum qilgan o'yinchi otilib borib, to'pni tepib, to'xtatib yoki raqibni yelka bilan turtib, to'pni tortib oladi.

To'p olib qo'yish ikki xil bo'ladi: to'la olib qo'yish va chala olib qo'yish. To'lasida olib qo'yuvchining o'zi yoki uning sherigi to'pni egallab oladi. Chalg'itishda esa to'pni ma'lum masofaga tepib yuboriladi yoki yon chiziqdan chiqarilib yuboriladi. Bunda to'pni raqib egallab olsa ham uni hujum qilish harakatiga halaqit beradi va himoyani oqilona qayta tuzib olish uchun vaqtdan yutiladi. Raqibni hujum sur'ati va shubhasini o'zgartirishga majbur bo'ladi.

Murakkab o'yin vaziyatlarida to'pni olib qo'yish maqsadida tashlanib olib qo'yish, sirpanib olib qo'yish degan murakkab usullar qo'llaniladi. To'pni olib qo'yishning tasnifi 6-chizmada ko'rsatilgan.




6-chizma. To'pni olib qo'yishning tasnifi.

To'pni tashlanib olib qo'yish raqibdan o'zib 1,5-2m masofadagi to'pni olib qo'yish imkonini beradi. Raqib o'ng yoki chap tomondan o'tib ketmoqchi bo'lganida shu usul qo'llaniladi. To'p tomonga tez harakat qilib unga

tashlanadi. Tashlanish kengligi to'pgacha bo'lgan masofa qanchaligiga bog'liq. Yetish qiyin bo'lgan to'plarni yarim shpagat yoki shpagat qilib olib qo'yiladi. Tashlanib to'pni olib qo'yishda to'pni tepish yoki to'xtatishdan foydalaniladi. Birinchisida raqib oyog'idan to'p ko'proq oyoq uchi bilan tepib yuboriladi. To'xtatishga harakat qilganda esa oyoq kafti bilan to'p yo'li to'siladi va uning harakati yo'nalishida olib ketilishiga imkon berilmaydi.

Sirpanib to'pni olib qo'yish o'yinchidan 2m dan ham narida bo'lgan to'pni egallab olish imkonini beradi. Bundan to'p ko'proq orqadan yoki yon tomondan kelib olib qo'yiladi. Hujum qiluvchi o'yinchi raqibga yaqinlashib qolganda yiqila turib oyoqlarini oldinga uzatib yuboradi. O'yinchi o't ustida sirpanib borib, to'p yo'lini to'sib qo'yadi yoki uni tepib yuboradi. (16-rasm).



16-rasm. Sirpanib to'pni olib qo'yish.

Raqibni elka bilan turtib to'pni olib qo'yish o'yin qoidalariga muvofiq bajarilishi kerak. To'pni boshqarayotgan o'yinchi masofada faqat elka bilan raqibning elkasiga turtishga ruxsat etiladi. Faqat to'pni olib qo'yish maqsadida turtish mumkin bo'lib, bu hech qachon qo'pol va xavfli xarakterda bo'lmasligi lozim. Bu uslublardan muvaffaqiyatliroq foydalanish uchun elkada turtishni raqib bir oyoqqa (uzoqroqdagi oyog'iga) tayanib turganida bajarish kerak.




17-rasm. Raqibni elka bilan turtib to'pni olib qo'yish.

To'pni tashlash – maydon o'yinchilari qo'lda bajaradigan yagona usul. To'p tashlash harakatining tuzulishi ko'p jihatdan futbol qoidalarining talabiga qarab belgilanadi va unchalik murakkab hisoblanmaydi. Biroq to'pni uzoqroq (25-30m) masofaga etkazib tashlash uchun maxsus ko'nikma hosil qilinadigan bo'lishi va qorin, yelka kamari hamda qo'ldagi mushak guruhlariga mayyan darajada kuch berilishi kerak.

To'pni tashlashda uni keng yozilgan barmoqlari yon tomonlaridan (o'yinchiga qaragan tomoniga yaqinroq) qamrab turadigan qilib, bosh barmoqlari qariyb bir-biriga tegadigan darajada qo'lga olinadi.

To'pni tashlash qo'lni yuqoridan orqaga tortish tayyorlov bosqichi hisoblanadi. Dastlabki holat – oyoqlarni (elka kengligida) kerib turish yoki bir qadam tashlagan holatda turish. To'pni tutgan qo'llar tirsakdan sal bukiladi va yuqori ko'tarilib, boshdan orqaga o'tkaziladi. Gavda orqaga egiladi, oyoqlar tizzasi bukilib, gavdaning og'irligi (qadam tashlab turgan holatda) orqadagi oyoqqa tushadi.



18-rasm. To'pni tashlash texnikasi.

3.Bob. Darvozabon texnikasi tasnifi


Darvozabonning o'yin texnikasi maydon o'yinchisining o'yin texnikasidan tubdan farq qiladi. Bu darvozabonga qoidaga binoan jarima maydoni ichida qo'l bilan to'p o'ynashga ruxsat etilgani bilan bog'liqdir.

Quyidagi uslublar guruhi darvozabonning texnikasiga kiradi: to'pni ilib olish, qaytarish, o'tkazib yuborish va tashlash. O'yinda sheriklar va raqib jamoasi o'yinchilarning qayerda turganiga, shuningdek to'p harakatining yo'nalishi; trayektoriyasi va tezligiga qarab darvozabon harakatining xilmaxil uslublari, usul va turlari qo'llaniladi. Ularning tasnifi 7-chizmada berilgan.

O'yin jarayonida darvozabon maydon o'yinchisi ixtiyoridagi kerakli texnik uslublardan foydalanaveradi.

Texnik uslublarning muvafaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan darvozabonning harakatiga qanchalik tayyor turganligi bilan belgilanadi. Darvozabonning to'g'ri dastlabki holatda bo'lishi uning harakatga tayyor ekanligi omillaridandir. Bunday dastlabki holat oyoqlarni yelka kengligida kerib, sal bukib turish bilan xarakterlanadi.

Yarim bukik qo'llar ko'krak balandligida oldinga uzatig'lik, kaftlar olg'a tomon ichkariga qaragan, barmoqlar sal bo'shashtirilgan, dastlabki holatning to'g'ri bo'lishi darvozabonga og'irlik markazi o'qini tezlik bilan tayanch sathidan tashqari chiqarib olib, lozim bo'lgan harakatlarni oddiy, juftlama yoki chalishtirma qadam tashlab, sakrab va yiqilib bajarish imkonini beradi.



7-chizma. Darvozabon texnikasi tasnifi.


3.1. To'pni ilib olish

To'pni ilib olish – darvozabon o'yin texnikasining asosiy vositasi. Bu ko'pincha ikki qo'llab amalga oshiriladi.

To'pning yo'nalishi, trayektoriyasi va tezligi qandayligiga qarab, uni pastdan yuqoridan yoki yondan ilib ushlab olinadi. Darvozabondan anchagina naridan uchib borayotgan to'plarni yiqila turib olinadi.

To'pni pastdan ilib olish darvozabon tomon yumalab ketayotgan, yuqoridan tushib kelayotgan va past (ko'krak balandligada) uchib kelayotgan to'plarni egallab olishda qo'llaniladi.

Yumalab kelayotgan to'pni ilib olishning tayyorlov bosqichida darvozabon oldinga engashib, qo'llarni pastga tushiriladi. (19-rasm) Bunda kaftlar to'pga qaragan, sal yoziq, yarim bukik barmoqlar erga tegay deb turadi. Qo'llarni xaddan tashqari tarang tutmasligi kerak. Oyoqlar juftlangan, hech bukilmagan yoki sal bukilgan bo'ladi.



19-rasm. To'pni ilib olish texnikasi.

Ishchi bosqich shundan iboratki, to'p qo'lga tegishi paytida barmoqlar uni ostidan tutib oladi, qo'llar tirsakdan bukilib, to'pni qorin tomon torta boshlaydi. Pastga tushirilgan qo'llar vaznining amortizatsiyasi ta'siri va bukilishi hisobiga to'pni tezligi so'ndiriladi. Yakunlovchi bosqichda darvozabon qaddini rostlaydi.

Hozirgi zamon futbolida yumalab kelayotgan tupni ikki qo'llab pastdan ilib olishning boshqa variantlari ham qo'llaniladi. Bu variantning xususiyati shundaki, unda oldinga engashish o'rniga taxminan 50-80 tashkariga burib


turib bir oyoqda cho'nqayiladi. Tizzasi anchagina bukilib, uchiga tayanib turilgan ikkinchi oyoq ham tashqariga buriladi. Pastga tushirilgan qo'llarni kafti to'pga to'g'rilangan bo'ladi. To'pni bevosita ilib olish yuqorida tasvirlangan variantlardagi singari bo'ladi. Yakunlovchi bosqichda oyoqlarni burish va to'g'rilash hisobiga darvozabon qaddini rostlab, keyingi harakatlar uchun kerakli dastlabki holatni oladi. To'siqning muhofaza qilish sathi anchagina bo'lgani uchun to'p ilib olishning bu varianti dinamik ishonchliroqdir.

Past (qorin balandliga darajasida) uchib kelayotgan va darvozabonning old tomonida yuqoridan tushib kelayotgan to'plarni ilib olishda tayyorlov bosqichida salgina bukilgan qo'llar kaftlari oldinga qaratib, to'p qarshisiga uzatiladi. Barmoqlar bir oz yoziq va yarim bukik bo'ladi. Ayni vaqtda gavda ozroqina oldinga engashadi, oyoqlar esa sal bukiladi. Oyoqlarning qay darajada bukilishi to'pning uchib kelish trayektoriyasiga bog'liq. To'p qo'lga tegish paytida darvozabon uning ostidan barmoqlari bilan tutib oladida, qorni yoki ko'kragi tomon torta boshlaydi. To'p anchagina tez kelayotgan bo'lsa, oyoqlarni to'g'irlash va gavadani oldinga engashtirish hisobiga orqa tomon qo'shimcha so'ndiruvchi harakat qilinadi.

O'yin jarayonida darvozabonning yon tomoniga yumalab va past uchib kelayotgan, shuningdek uning old tomonida ancha nariga tushayotgan to'plarni ilishga ham to'g'ri keladi. Bunday xollarda oldin to'pning harakat yo'nalishi tomonga qarab jiladi.

Bu ish yugurish qadami, juftlama qadam yoki chalishtirma qadam bilan, shuningdek ko'proq bir oyoqda deysinib yuqoriga, oldinlab yuqoriga yoki yon tomonga yuqorilab sakrash bilan amalga oshiriladi. Shundan keyingi harakatlar sistemasining Tahlili yuqorida berilgan.


To'pni yuqoridan ilib olish o'rtacha trayektoriyada (ko'krak va bo'y haravar) uchib kelayotgan, shuningdek baland uchib kelayotgan to'plarni egallab olish uchun qo'llaniladi (20-rasm).



20-rasm. To'pni yuqoridan ilib olish texnikasi.

Baland to'plarni, ya'ni baland trayektoriyada uchib kelayotgan to'plarni qo'lga kiritish uchun sakrab ikki qo'llab yuqoridan ilib olish qo'llaniladi. To'pning uchish yo'nalishiga qarab bir yoki ikki oyoqda deysinib yuqoriga, yuqorilab oldinga yoki yuqorilab yonga sakraladi. Harakatlanayotgan paytda asosan bir oyoqda, joyda turganda esa ikki oyoqda deysinib sakraladi. Depsinish paytida qo'llar silkinib harakat qilib, to'p o'ng tomon yuqoriga uzatiladi. To'pni ilib olgandan keyin oyoqlarni bir oz egib erga tushiladi.

To'pni yondan ilib olish darvozabonning yon tomoniga o'rtacha trayektoriyada uchib kelayotgan to'plarni qo'lga kiritish uchun qo'llaniladi. Tayyorlov bosqichida qo'llar oldinlatib yonga, to'p uchib kelayotgan tomonga uzatiladi. Panjalar deyarli paralel, barmoqlar sal yoziq va yarim bukik. Gavdaning og'irligi to'p ilinadigan tomondagi oyoqqa o'tkaziladi. Gavda ham shu tomonga sal buriladi. Ishchi va yakunlovchi bosqichlar bajarilish tuzulishi jihatidan to'pni yuqoridan ikki qo'llab ilib olishdagiga o'xshaydi.



21-rasm. To'pni yondan ilib olish texnikasi.

To'pni yiqila turib ilib olish darvozabondan chetga qo'qisdan, aniq, goho esa juda qattiq yo'naltirilgan to'plarning qo'lga kiritishning samarali vositasidir. To'p uzatilganda (darvoza bo'ylab "g'izillatib" berilganda) ushlab qolish va raqib oyog'idagi to'pni olib qo'yishda qo'llaniladi.

Yiqila turib to'p ilishning ikki varianti bor: uchish bosqichisiz ilish va uchish bosqichida bo'lmaganda ilish.

Birinchi variantda odatda darvozabonning yon tomoniga undan 2-2,5m narida yumalab yoki past uchib kelayotgan to'plarni ilib olish uchun qo'llaniladi (22-rasm). Tayyorlov bosqichida to'p harakati tomonga katta qadam tashlanadi. To'pga yaqin turgan oyoq qattiq bukiladi. Og'irlik markazining o'qi tayanch sathidan chiqarilib, pastroq tushuriladi. Qo'llar to'p tomonga keskin uzatiladi, bu gavdaning harakatlanishiga ham, yiqilishiga ham yordam beradi. Yerga tushish bunday tartibda bo'ladi: oldin oyoqning holdir qismi, keyin tos-son va gavdaning yon qismlari yerga tegadi. Parallel uzatilgan qo'llar to'p yo'lini to'sib chiqadi. Panjalarning turishi, shuningdek, bevosita to'p ilib olish yiqilmay ikki qo'llab yuqorida ilishda qanday bo'lsa shunday. Darvozabon g'ujanak bo'layotganida qo'llarni bukib, to'pni ko'kragiga tortadi. Ayni vaqtda oyoqlarni ham bukadi.



22-rasm. To'pni yiqila turib ilib olish texnikasi.

Darvozabondan ancha narida dumalab va uchib kelayotgan to'plarni ilib olish uchun uchish bosqichli yiqilish qo'llaniladi. Dastlabki bosqichda darvozabon uchib kelayotgan tomonga tezda bitta yoki ikkita juftlama yoki chalishtirma qadam tashlaydi. Bunday paytda qanday harakatlanish usulini tanlash va undan foydalanish darvozaboning hosil qilgan shaxsiy ko'nikmalariga bog'liq. Depsinishga tayyorlanish gavgani oldinga engashtirib, og'irlik markazi o'qini tayanch sathidan chetga chiqarishdan boshlanadi. To'p kelayotgan tomonga yaqin oyoqda depsiniladi. Qo'llar to'p tomonga keskin uzatiladi. Ularning harakati va ikkinchi oyoqning silkilib bukilishi depsinish kuchini oshishiga yordam beradi. Depsinish burchagini qanday bo'lishi to'pni uchish balandligiga bog'liq. Baland kelayotgan to'plarni ilib olishda yuqorilab yon tomonga, o'rtacha balandlikda kelayotganlarini ilishda esa yon tomonga depsinib chiqiladi. Dumalab kelayotgan va past uchib kelayotgan to'plarni ilib olishda gavda ko'proq engashadi, depsinuvchi oyoqning bukilishi ko'proq, darvozaboning uchish trayektoriyasi past, yer bilan paralel bo'ladi. To'p darvozabonning uchish bosqichida ilib olinadi. To'p qo'lga kiritilgandan keyin g'ujanak bo'linadi (oyoqning tos-son bo'g'imi bukiladi), bu old-ort o'qi atrofida olg'a tomon aylanishiga olib keladi. Tortish kuchi ta'sirida quyidagi tartibda yerga tushiladi: oldin bilak, keyin yelka, gavda va tosning yon qismlari, oyoqlar yerga tegadi.

3.2. To'pni qaytarib yuborish.

To'pni ilib olish mumkin bo'lmagan hollarda (raqibning halaqit berishi, juda qattiq tepilganligi, to'pga yetish qiyinligi va h.k. sababli) to'p qaytarib yuboriladi. Darvozabonning darvozaga ketayotgan to'p yo'lini to'sishdagi, to'g'ridan g'izillatib uzatilgan va yuqoridan uzatib tushirilgan to'plarni olib qolishdagi harakatlari to'pni qaytarib yuborilishiga kiradi. Bunda darvozabon to'pni egallab olmaydi.

To'pni ikki qo'llab ham, bir qo'llab ham qaytarib yuboriladi. Birinchi uslub ishonchliroq, chunki bunda to'sib qoluvchi sath kattaroq bo'ladi. Biroq ikkinchi uslub darvozabondan ancha narida o'tayotgan to'plarni qaytarib yuborish imkonini beradi.


To'pni bir qo'llab yoki ikki qo'llab qaytarishda dastlabki va tayyorlov bosqichlaridagi harakatlar ko'p jihatdan to'pni yuqoridan va yondan ilib olishdagi harakatlarga o'xshaydi. To'pning harakat yo'nalishi va trayektoriyasiga moslab, darvozabon taranglashgan, barmoqlari sal yoziq bitta qo'lni yoki ikkala qo'lni tezlik bilan to'p qarshisiga uzatadi. To'pni ko'pinchi qo'llar bilan qaytariladi. Gohida to'p bilakka tegib qaytadi. To'pni qaytarib yuborganda darvozadan yon tomonga yo'naltirish tavsiya etiladi.

Darvozabondan ancha naridagi to'plarni yiqila turib bir yoki ikki qo'llab qaytarib yuborish kerak. Bunda qaytarib yuborish qiyinroq bo'lgan to'plarga bir qo'lida yetib olish mumkinligini nazarda tutish kerak.

To'p harakatining yo'nalishi, trayektoriyasi va tezligi qandayligiga qarab, yiqila turib to'p ilishdagi singari dastlab, to'p tomoniga siljilinda keskin depsiniladi. Tarang uzatilgan bir yoki ikkala qo'l to'p qarshisiga chiqib, bir yoki ikkala kaft bilan yohud bir yoki ikkala qo'lni musht qilib to'p qaytarib yuboriladi. Yakunlovchi bosqichda to'pni yiqila turib ilishdagi harakatlarga o'xshab g'ujanak bo'lib yerga tushiladi.

To'g'ridan g'izillatib uzatilgan va yuqoridan uzatib tushirilgan to'plarni to'sib qolayotganda darvozabon raqib o'yinchilari bilan kurashda to'pni

anchagina nariga qaytarib yuborishi kerak. Buning uchun to'pni u bir yoki ikkala qo'lni musht qilib urib yuboradi.



23-rasm. To'pni qaytarib yuborish.

Musht bilan to'p qaytarishda zarba berishinig ikki varianti bor: yelkadan boshlab urish va bosh ortidan boshlab urish. Yelkadan boshlab urishning tayyorlov bosqichida darvozabon tirsagi bukilgan zarba beruvchi qo'lini yelkasi tomon tortadi. Gavdani ham shu tomonga buriladi. Zarba berish harakati gavdani dastlabki holat tomonga burishdan boshlanib, qo'lni keskin to'g'irlash bilan tugaydi. Qo'l to'la to'g'irlanib olguniga qadar to'p mushtga tegadi. Zarba barmoqlarning birinchi suyagiga to'g'ri keladi.

Bosh ortidan boshlab urish uchun sal bukilgan qo'l yuqori ko'tarilib, bosh orqaga tortiladi. Gavda ham orqaga egiladi. Gavda bilan qo'lni keskin to'g'irlanishi hisobiga zarba beriladi. To'pga u darvozabondan sal oldinda paytida bevosita zarba berish kerak. Zarba barmoqlarning o'rta suyagi bilan beriladi.

To'pning ikkala qo'lni mushtlab qaytarib yuborish ishonchliroq bo'ladigan vaziyatlar ham (masalan, to'p ho'l va og'ir bo'lsa) uchrab turadi. Zarba berishdan oldingi dastlabki holat – tirsaklar bukilgan, musht tugilgan qo'llar ko'krak oldida. (bunda har ikkala musht tugilgan qo'l barmoqlari juftlanib, bir-biriga tegib turishi kerak). Tarang tortilgan ikkala qo'lning baravariga to'g'irlab, mushtlar bilan to'pga zarba beriladi.

To'pni joyida turib, qadam tashlab, turli harakatlanishlardan keyin va ayniqsa sakrab turib bitta yoki qo'lni musht qilib urib qaytarib yuborish mumkin. Sakrab to'p qaytarish darvozabonga baland to'plar uchun raqib bilan muvaffaqiyatli kurashish imkonini beradi. Bunda bir yoki ikkala oyoqda deqsinib, yuqorilatib olg'a tomon sakraladi. Uchish bosqichida tayyorgarlik harakatlari qilinadi. Zarba berish harakati ko'tarilishining eng yuqori nuqtasiga yetganda (yoki shundan sal oldinroq) boshlanadi.

Yerga oyoqlarni sal bukib tushiladi.


To'pni qo'ldan sirg'anib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha hollarda to'pga mushtning o'rta qismi bilan zarba berilishi kerak.

3.3. To'pni tashlab berish.

Hozirgi futbolda darvozabonlar to'pni ko'pincha tashlab beradilar, chunki bunda to'pni tepgandagidan ko'ra aniqroq yo'naltirib berish mumkin. Tashlash masofasiga kelganda esa, tegishli jismoniy tayyorgarligi va a'lo darajada ratsional texnikasi bo'lgan darvozabon to'pni anchagina (35-40m) masofaga tashlab bera oladi.

Bu texnik uslub odatda asosan bir qo'llab, ahyon-ahyonda ikki qo'llab bajariladi.


To'pni bir qo'llab tashlab berish yuqoridan, yondan va pastdan bajariladi (24-rasm).



24-rasm. To'pni bir qo'llab tashlab berish texnikasi.

To'pni yuqoridan tashlab berish – eng ko'p tarqalgan usul. Bu usulda sheriklarga turli trayektoriyada, anchagina masofaga va yetarlicha aniq to'p tashlab berishi mumkin.


To'p tashlashdan oldingi dastlabki holat – bir qadam tashlab tik turish. To'p shundoqqina kaft ustida bo'lib, yoziq va yarim bukilgan barmoqlar uni tutib turadi. Tayyorlov bosqichida qo'l tortiladi. To'p tutgan qo'l tirsagi bukilib, yon tarafdin orqaga tortilib, bosh balandligida (yoki yana sal balandroq) yuqori ko'tariladi. Gavda shu qo'l tortilgan tomonga burilib, sal oldinga engashadi. Tana og'irligi orqadagi sal bukilib turgan oyoqqa o'tkaziladi. Oldindagi oyoqning uchi yerda bo'ladi. Asosiy bosqichdagi tashlash harakati oyoqlarni to'g'irlab, gavnani burishdan boshlanadi.



25-rasm. To'pni yuqoridan tashlab berish.

Shundan keyin qo'l faol yozilib, uloqtirish tomonga harakatlanadida, bu harakat panjaning keskin yo'naltiuvchi harakati bilan tugaydi. Tananing og'irligi orqadagi oyoqqa o'tkaziladi.

To'pni yondan tashlashda u anchagina uzoqqa yetib borsa ham uning aniqligi unchalik bo'lmaydi.




26-rasm. To'pni yondan tashlash texnikasi

Tayyorlov bosqichida bir qadam tashlab turgan dastlabki holatda qo'l tortiladi. To'p tutgan qo'l yonlatib orqaga (yelkadan sal pastroq) uzatiladi. Gavda shu tomonga buriladi. Tana og'irligi orqadagi sal bukilib turgan oyoqqa. To'p tashlash oyoqning uchida ko'tarilib, keskin to'g'irlanish va gavnaning burilishi hisobiga bajariladi. Bu uzuvchi harakatlar qo'lning to'g'ri tutilib, yon tomondan olg'a keskin harakat qilishi bilan tugaydi. To'p frontal tekislikka yaqinlashib qolganda panjadan "uziladi". tashlashning bundan oldin bo'lishi yoki kech qolishi to'pning uchish yo'nalishidagi anchagina hatolar bo'lishiga olib keladi.

To'pni pastdan tashlash uni past trayektoriyali qilib (asosan yerda dumalatib) tashlashda ishlatiladi. Dastlabki holatda bir qadam tashlagan holda oyoqlar anchagina bukilib turadi. Panjasi to'pni tagidan tutib turgan qo'l quyi tushiriladi. Keyin darvozabon qo'lini orqaga tortib, tanasi og'irligini oldindagi oyog'iga o'tkazadi. To'p tutgan qo'l yerga parallel tarzda olg'a

tomon keskin harakat qiladi. Gavda ozgina engashadi. Shu tarzda eng oxirgi holatda to'p qo'ldan tushib, mo'ljal tomon otilib ketadi.



27-rasm. To'pni pastdan tashlash texnikasi.


To'pni ikki qo'llab tashlash ko'pincha yuqoridan, bosh ortidan boshlab bajariladi. Bunday harakatlar ko'p jihatdan yon chiziq nariyog'idan to'p tashlashdagi harakatlarga o'xshash, shuni qayt etish lozimki, qoidaning to'p tashlash paytida ikki oyoqqa tayanib turish haqidagi talabi darvozabonni to'p tashlashiga aloqador emas.

To'pni joyida turib, qadam qo'yib tashlayversa bo'ladi. Yurib yoki yugirib borib to'p tashlab berish qoidada qat'iy chegaralangan bo'ladi.

3.4. O'yin taktikasi tasnifi

Taktika deganda o'yinchilarning raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan individual va jamoa harakatlarini tashkil qilishni, ya'ni jamoa futbolchilarning muayyan rejaga binoan aynan shu, aniq vaqt bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishiga imkon beradigan birgalikdagi harakatlarni tushinish kerak. Taktikadagi asosiy vazifa hujum va himoya harakatlarning maqsadiga erishtira oladigan eng qulay vosita, usul va shakillarini belgilashdan iboratdir. Qanday taktikani tanlash har bir alohida holda jamoa oldida turgan vazifalarga, kuchlar nisbati va o'yinchilarning

o'zaro kurashuvchi guruhlariga, maydoning ahvoriga, iqlim sharoiti va hakazolarga bog'liq. O'yin taktikasining tasnifi 6-chizmada berilgan.



8-chizma. O'yin taktikasining tasnifi.

Futbol matchi ko'p martalab hujumdan himoyaga va himoyadan hujumga o'tishdan iborat bo'lgani uchun ham, tabiiyki, har qaysi jamoaning hujum va himoya harakatlari uyushgan bo'lishi kerak.

Taktika uchrashuv vaqtida butun o'yin faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Aniq raqibga qarshi to'g'ri tanlangan kurash taktikasi muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi, noto'g'ri tanlangan yoki uchrashuv paytida asqotmagan taktika esa odatda mag'lubiyatga olib keladi.

Raqiblarni neytrallash vazifalarini to'g'ri hal qila bilish va atakadagi o'z imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalana olish umuman jamoaning ham, uning alohida o'yinchilarining ham taktik yutuqlarini ko'rsatadi. Hujum va himoyada hamma futbolchilarning harakatlari yaxshi uyushtirilgan hamda albatta faol bo'lgandagina jamoa muvaffaqiyatga erishadi.

Murabbiy o'yinning taktik rejasini qanday qilib tuzgan bo'lmasin, bu reja alohida futbolchilarning harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ana shuning uchun ham individual taktik kamolatga erishmay turib, jamoaning o'yini chiroyli va risoladagidek qiladigan aniq taktik harakatlar qilinishi xayolga ham keltirib bo'lmaydi.

Futbol o'yinida taktika bilan texnika bir biriga chirmashib ketgan bo'ladi. To'pni kimga va qanday uzatishni, raqibni dog'da qoldirish uchun aylanib o'tishni ishlatish kerakmi yoki to'pni sherikka oshirgan ma'qulmi, darvozaga qaysi paytda zarba berishni hal qilayotgan o'yinchi taktik tafakkurdan foydalanadi, ahd qilgan harakatini amalga oshirayotganda esa u texnik mahoratini namoyish etadi. Demak, texnika o'yinchining taktik rejalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Texnik tayyorgarlik a'lo darajada bo'lsagina xilma-xil taktik harakatlarni bajarish mumkin.

Kuchi teng jamoalar uchrashuvdagi g'alabaga ko'pincha mag'lub bo'lganlarda iroda kamlik qilgani yoki jismoniy va texnik tayyorgarlik bo'sh bo'lgani sabab qilib ko'rsatiladi. Biroq futbol o'yinidagi g'alaba ko'pincha taktik rejalar kurashi bilan belgilanadi. Taktik ikki jamoaning jismoniy, texnik

va ma'naviy-irodaviy tayyorgarlikdagi darajalari teng bo'lganda, ulardan birining g'alaba qilishini ta'minlab beradigan muhim omildir. Yirik musobaqalardagi ko'plab misollar shundan dalolat beradi.

Ustalik bilan ishlatilgan taktikagina muvaffaqiyat keltiradi. Ba'zan jamoalar har qanday raqibga qarshi o'ynaganda ham bir xil taktika ishlata beradilar. Taktik jihatdan shunday qashshoqlik bir xillik mahoratni o'sa borishiga to'sqinlik qiladi. Har xil jamoa, ayniqsa yuqori razryadli jamoa xilma-xil taktik rejada o'ynab bilishi kerak, bo'lmasa u, ayrim yutuqlari bo'lishiga qaramay, musobaqalarda katta g'alabaga erisha olmaydi. O'quv-mashq jarayonida taktik tayyorgarlikka jiddiy e'tibor berilmaydi.

Har bir o'yin va umuman jamoa harakatlarning xilma xil varianlarini mukammal egallagan bo'lishi kerak. Hujm harakatlari bilan himoya harakatlarning doimiy kurashi natijasida o'yin taktikasi uzluksiz takomillashib boradi. Xuddi ana shu kurash futbol taktikasi taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

3.5. O'yinchilarning vazifalari

Raqibga qarshi kurashayotgan jamoa harakatlardagi uyushqoqlikka futbolchilar o'rtasidagi vazifalarni aniq taqsimlash bilan erishiladi. Hozirgi vaqtda o'yinchilarni vazifalariga (o'yindagi ixtisosiga) ko'ra bo'lish ular tayyorgarligidagi unversallikka asoslanga bo'ladi. Bu hamma ishni barcha birdek bajara oladi, degan so'z emas, albatta.

Ammo har bir futbolchi o'yinning hamma texnik usullarini egallagan bo'lishi hujumda ham himoyada ham bilib harakat qilishi kerak. O'yindagi ayrim vazifalarni esa o'yinchi ayniqsa yaxshi ijro etadigan bo'lishi lozim. Futbolchilar vazifalariga ko'ra darvozabonlarga, qanot himoyachilarga, markaziy himoyachilarga, o'rta qator himoyachilari, qanot hujumchilari va markaziy hujumchilarga bo'linadi. Har qaysi ixtisos o'yinchilariga bo'lgan talablar va ularning asosiy vazifalarni ko'rib chiqamiz.

Darvozabon

Hozirgi vaqtda darvozaboning o'yini turli tuman va murakkabdir. Darvozabonning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi, uning psixikasi mustahkamligiga yuksak talab qo'yilayotganligi ham ana shundan.

Odatda, darvozabon-baland bo'yli (175 sm va undan ham baland), a'lo darajada jismoniy tayyorgarlik ko'rgan, reaksiya juda tez, start tezligi juda yuqori o'yinchi bo'ladi. U dovyurak va jura'tli, sakrovchan, epchil va hozirjavob bo'lishi harakatlarni yaxshi muvofiqlashtira oladigan, yaxshi mo'ljal oladigan va rejalay oladigan, to'pni ehtimol bo'lgan uchish yo'nalisha tezligi va trayektoriyasini darhol aniqlay oladigan bo'lishi, himoya qatorlarini idora qilishi yani unga izchillik va uyushqoqlik kiritishi kerak.

Darvozabon joyida turganda ham, harakat va sakrab o'ynaganida ham texnik uslublarning hammasini a'lo darajada bilishi zarur. Darvozabonning mahorat darajasi ana shu uslublarning nechog'lik to'g'ri, aniq va ishonchli bajarilishiga bog'liq. Darvoza oldidagi o'yin bilan, darvozadan chiqib harakat qilishning muvofiqiyatli qo'shib olib borish hamda o'z darvozasini himoya qilish va hujum uyushtirishda sheriklari bilan baxamjihat mohirona harakat qilish ham darvozaboning yuksak mahoratini ko'rsatadi.

4.Bob. Futbol o'yin texnikasini o'rgatish metodikasi

4.1. Harakatlanish texnikasini o'rgatish metodikasi

Harakatlanish texnikasiga o'rgatishni dastlabki mashg'ulotlaridan boshlash kerak bo'ladi. Harakatlanish texnikasini takomillashtirish butun sport faoliyati davomida amalga oshiriladi.

Harakatlanish texnikasi o'rgatish jarayoni quyidagi harakat sifatlarini, ya'ni tezkorlik, epchillik, sakrash, tezlanish va chidamlilikni tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir. Harakatlanish texnikasini o'rganayotganda ko'pgina umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari ko'proq yengil atletika, sport va harakatli o'yinlardan foydalanish mumkin. Quyidagi berilayotgan bir guruh maxsus mashqlar harakatlanish texnikasiga oid alohida uslub va usullar hamda ularni birikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan.

Start tezligini burilish va to'xtashni o'zlashtirishga qaratilgan mashqlar

1. Oddiy yugurishda start tezligi va to'xtash
2. Chalishtirma qadamlashda start tezligi va to'xtash.
3. Qolgan oyoqni juftlab yurishdagi start tezligi va to'xtash.
4. Turli uslublarda doiraviy yugurishdagi start tezligi va to'xtash.
5. Burilgandan so'ng to'g'ri va doiraviy turli uslubda yugurishda start tezligi start
6. Turli start holatlarida yuqori va pastki yarim cho'qqayib, yotgan holatda start tezligi

Quyidagi guruh mashqlarini bajarish tezkorlik sifatini tarbiyalashi bilan birga qo'shib olib boriladi.

Sakrashni o'rgatish uchun namunaviy mashqlar Sakrashning quyidagi turlari bajariladi:

1. Bir oyoqlab oldinga va orqaga siljib o'ng va chapga sakrash.
2. Bir oyoqlab o'ng va chapga siljib oldinga va orqaga sakrash.
3. Oldinga va orqaga siljib, galma - galdan o'ng va chap oyoqlab sakrash.

4. O'ng va chapga siljib, oyoqlarni almashtirib to'g'riga va orqaga sakrash.
5. O'ng oyoq bilan o'ngga sakrab, yerga chap oyoq bilan tushish va teskarisi.

6. Ikki oyoqlab turli yo'nalishlarda sakrash.

Mashqlarini bajarish vaqtida sakrashni uzunligi va balandligiga, shuningdek uni bajarish tezligiga e'tibor beriladi.

4.2. To'pga zarba berishni o'rgatish metodikasi

To'pga zarba berishni o'rgatish uchun to'pning tezligi va aniqligini iloji boricha aniq bilishga, uning yo'nalishi va tezligini ixtiyoriy o'zgartira olish ko'nikmasiga ega bo'lishga erishmoq kerak. Zarur aniqlikka erishish uchun shug'ullanuvchilar mashg'ulot jarayonida ularga to'pni muayyan nishonga tegishga o'rgatadigan mashqlar beriladi.

Aniqlikni tarbiyalashda mashg'ulot jarayonida ko'pincha futbol darvozasidan nishon o'rnida foydalaniladi. Nishon o'rnidagi darvozani kichraytirish uchun tasma bilan turli hajmdagi kvadratlarga bo'linadi. Shuningdek, maxsus devordan foydalaniladi, unga bo'yoq bilan futbol darvozasi chiziladi va kvadratlarga bo'linadi, har bir kvadrat raqam bilan belgilanadi. Bunga qo'shimcha maydonda har xil o'lchamli turli xalqalardan foydalanish mumkin.

Aniqlikni tarbiyalashda nishonlarni orasini o'zgartirib turish lozim. Musobaqalar vaqtida to'pni mo'ljalga aniq tepish uchun mashg'ulot chog'ida to'pga zarba berishni musobaqa sharoitiga yaqinlashtirib o'rgatirish kerak. To'pga zarba berayotganda himoyachilar va darvozabon to'sqinlik qiladilar. To'pga zarba berish to'pni turli nishonlarga aniq yo'naltirish vazifasi bilan cheklanmaydi.

Shug'ullanuvchi to'pni kerakli tezlik bilan sheriklariga uzatishni ham bilishi kerak.

To'pga zarba berishni o'rgatish uchun namunaviy mashqlar

1. Turgan va dumalab kelayotgan to'pga muayyan usul bilan: oyoq yuzi, oyoq uchi bilan zarba berish va boshqalar.

2. Turli tezlikda kelayotgan to'pni chap va o'ng oyoq bilan zarba berish.

3. Ikki kishi aytilgan usul bilan to'pni to'xtatib va to'xtatmay bir - biriga uzatish.

4. Yerdan sapchigan to'pga chap va o'ng oyoq bilan istalgan usulda zarba berish.

5. To'pni havoda yerga tushirmasdan zarba berish

6. Darvozaga yoki qo'yilgan nishonga turli usul bilan, turli masofadan, turli burchak bilan, turli tezlikdan zarba berish.

7. 11 metrdan, jarima maydonidan va burchakdan darvozaga zarba berish.

8. Jarima maydonidan tashqaridan har h xil joydan to'pni to'siqlarga tegizmasdan zarba berish..

9. Sakramay va sakrab bosh bilan urish.

10. Sakramay va sakrab turib to'pni darvozaga bosh bilan urish.

11. Bosh va oyoq bilan voleybol o'ynash

12. Osib qo'yilgan to'pga oyoq va bosh bilan zarba berish.

13. To'pni yerga tushirmasdan oyoqda va boshda o'ynash

14. O'yina mashqlari 3x2, 4x2 va boshqalar har xil usulda.

4.3. To'pni to'xtatishni o'rgatish metodikasi

To'pni to'xtatishdan asosiy talab - uslubni qisqa vaqt ichida bajarish va to'pni har bir aniq vaziyatda eng foydali o'ringa olib kelishdir. Bunda shug'ullanuvchi har qanday tezlikda uchib kelayotgan to'pni to'xtatishga o'rganish lozim. Yerdan dumalab kelayotgan, havoda uchib kelayotgan va yuqoridan tushib kelayotgan to'pni oyoq, gavda va bosh bilan to'xtatish mumkin.

To'pni to'xtatib qolish to'pga zarba berishni o'rgatishda qo'shib o'rgatilib boriladi.

To'pni to'xtatib qolishni o'rgatishga oid mashqlar.

1. Tashlab berilgan to'pni turli usullarda to'xtatish.

2. Sherigi yoki murabbiy tepib yuborgan yoki qo'li bilan tashlagan to'pni, turli usullar bilan to'xtatib qolish.

4.4. To'pni tashlashni o'rgatish metodikasi

Shug'ullanuvchi to'pni ikki qo'llab uzoqqa, aniq tashlashni bilishi kerak.

To'pni tashlashga o'rgatishda shug'ullanuvchi sherigi bilan mashg'ulot olib borгани ma'qul. Bu mashqda aniq tashlash takomillashadi, chunki sherigi to'pni qo'lga yoki oyog'iga, boshiga, ko'kragiga turli tezlikda tashlab berishni talab qiladi. Natijada to'pni tashlab berish mashg'uloti, to'pga zarba berish oyoqda va boshda hamda to'pni to'xtatish mashg'uloti bilan qo'shib olib boriladi.

Aldab o'tish harakatlarini o'rgatish metodikasi

Aldamchi harakatlar shunday bajarilishi kerakki, u haqiqatga yaqin bo'lsin va raqib ham shunga ishonsin. Gavda harakatlarini boshqara bilish va mo'ljalini yashirishni bilishi lozim Aldamchi harakatlarni bajarish shug'ullanuvchi individual harakatlariga bog'liqdir. Aldamchi harakatlarni o'rganishda harakatli va sport o'yinlarining ahamiyati kattadir.

To'pni olib qo'yish

To'pni olib qo'yish musobaqa va mashg'ulotlar jarayonida mashq qilinadi. To'pni olib qo'yishga oid mashqlar kam uchraydi. To'pni olib qo'yish uchun uni olish lahzasini aniq belgilash muhim Shug'ullanuvchilar to'pni gavda bilan turtish, oyoq bilan tepish orqali, to'p yaqinlashib kelganda unga oyoq qo'yib qolish bilan to'pni olib qo'yishni mashq qiladilar.

4.5. Darvozabonning texnik usullarini o'rgatish metodikasi

Mashg'ulotda darvozabon sifatida ishtirok etadigan shug'ullanuvchi yuqorida sanab o'tilgan usullardan tashqari, faqat ular uchun ruxsat etiladigan usullarni ham bajaradilar: ya'ni to'pni qo'l bilan ushlash, to'pni qo'l bilan tashlash, to'pni qo'l bilan olib yurish.

Darvozabonni texnik usullarini o'rgatish uchun namunaviy mashqlar

1. Dumalab, to'g'ridan, yondan va yuqoridan uchib kelayotgan to'pni ilib olish.

2. Sherigi yonga tashlab bergan to'pni yiqilib ilib olish.

3. Har xil dastlabki holatlarda turib, «o'tirib, yotib va boshqalar» sherigi tashlab bergan tupni ilib olish yoki qaytarish.

4. Burchak va jarima to'plarini ilib olish yoki bir qo'lda va ikki qo'lda o'tkazib yuborish.

5. Tepadan tushayotgan to'pni sakrab ilib olish.

7. 11 metrlik jarima to'pini qaytarish.

8. 2-3 marta oldinga yoki orqaga o'mbaloq oshib 1,5 - 2 metr narida yotgan to'pga tashlanish.

4.6. Taktik tayyorgarlik

Taktikada ta'lim va takomillashish jarayoni mashg'ulotini juda muhim hamda murakkab bo'limidir. Taktik tayyorgarlik shartli ravishda umumiy va maxsus tayyorgarlikka bo'linadi.

Shug'ullanuvchining umumiy taktik tayyorgarligi. Bunga sport o'yinlarining umumnazariy taktik asoslarini bilish, ulardan turli sharoitlarda amaliy foydalana olish. Taktik fikrlashni tarbiyalash kiradi.

Maxsus taktik tayyorgarlik bevosita futbol materiallari asosiga quriladi va taktik ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni chuqurlashtirib takomillashtirishga qaratiladi. Shug'ullanuvchilarning texnik tayyorgarligi

nazariy va amaliy mashg'ulotlar yordamida amalga oshiriladi. Taktikaga doir nazariy bilimlar hajmini kengaytirish uchun adabiyot manba'laridan foydalanish, videomateriallarni ko'rish, musobaqa va o'quv mashq mashg'ulotlarini kuzatish, o'yin qoidasini o'rganish kerak.

Taktik tayyorgarlik jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Shug'ullanuvchilarda taktik fikrlashni, maydonda mo'ljalga olishni, turli o'yin vaziyatlarni hal qilishda ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantirish

2. Sherik bilan hujum chizig'ida ham himoya chizig'ida ham shaxsan harakat qilish. Shug'ullanuvchilarda qo'yilgan vazifalarni hal qilishda texnik usullar va taktik harakatlardan alohida - alohida, samarali foydalana bilishni shakllantirish.

3. Shug'ullanuvchilarda maydondagi o'yin vaziyatiga qarab bir jamoa harakatidan ikkinchisiga moyil va tez o'ta bilish qobiliyatini rivojlantirish.

Shug'ullanuvchilarning taktik ko'nikmalarini takomillashtirishda o'zlashtirilgan va o'rganilgan mashqlarni ko'p marta takrorlash taktik ta'lim va mashg'ulotning asosiy uslubi hisoblanadi.

Taktik tayyorgarlik yakka, guruh va jamoa harakatlarini egallashni ko'zda tutadi.

Musobaqa jarayonida shug'ullanuvchilar quyidagi ikki asosiy vazifani hal qiladilar: to'pni o'zga jamoa darvozasiga juda ko'p marta olib borish va o'z darvozasiga hech yaqinlashtirmaslik. Buning uchun shug'ullanuvchi sheriklari yordamida o'yin qoidalarini buzmasdan, har qanday imkoniyatdan foydalanib bo'lsa ham ikki vazifani: himoya qilish va hujum qilish vazifasini bajaradilar.

5.BOB. FUTBOL O'YINI BO'YICHA MUSOBAQALAR O'TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH

5.1. Futbol musobaqalarni tashkil etish, o'tkazish va uning ahamiyati.

Futbol musobaqalari o'quv-mashg'ulot ishlarining asosiy qismini tashkil etadi. Ular mashg'ulotlarda qiziqishni oshiradi, mamlakatda futbolning ommaviy rivojlanishiga yordam beradi. Futbolchi o'yinlarda muntazam qatnashmay turib yuqori natijalarga erisha olmaydi. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va umuman jamoaning jismoniy, texnik, taktik va axloqiy-irodaviy tayyorgarligi darajasini aniqlaydi, o'quv-mashg'ulot jarayonining ahvoli va yo'nalishini aniqlash imkonini beradi.

Musobaqa natijalari o'quv-mashg'ulot ishlarini yakunlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musobaqalar qat'iylikni, g'alabaga erishish yo'lidagi iroda kuchini, korxonaga jamoasi, shahar, respublika, mamlakat oldidagi ma'suliyat hissini tarbiyalaydi. O'yinlarning emostional keskinligi futbolchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ochiq havoda o'tkaziladigan musobaqalar qatnashchilarni sog'lomlashtirish jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lib, jismoniy kamolotning hammabop va qimmatli vositalaridan biridir. Musobaqalar ko'p sonli tomoshabinlarni jalb qilish bilan futbolni targ'ib qilish va ommalashtirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular musobaqa qatnashchilari va tomoshabinlarga uyushtiruvchi ta'sir ko'rsatib, tomoshabinlarni jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug'ullanishga jalb etadi.

Futbol hakamining tarbiyachi - pedagog va o'yin rahbari sifatidagi ahamiyati juda katta. Aniqlik hakamlik qilish, maydonda ro'y beradigan qo'polliklarga va ayrim futbolchilarning intizomsizligiga qarshi qat'iy kurashish, musobaqalashayotgan jamoa o'yinchilariga o'z vaqtida tanbeh va ko'rsatmalar berish musobaqani taktik va texnik jihatdan yuqori darajada o'tkazishga yordam beradi.

5.2. Musobaqa turlari

Oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab musobaqalarni asosiy va yordamchi musobaqalarga bo'lish mumkin.

Yagona sport tasnifi talablariga muvofiq tashkil etiladigan va natijalariga ko'ra sport tasnifi belgilanadigan hamda g'olib yoki chempion degan nom beriladigan musobaqalar asosiy musobaqalarga kiradi.

Musobaqalarning asosiy turi – taqvim musobaqalar bo'lib, ular sport tadbirlarining yagona taqvim rejasida nazarda tuziladi va tasdiqlangan nizomga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Quyidagilar musobaqalarning asosiy turlariga kiradi:

- birinchilik yoki chempionatlar;
- kubok musobaqalari;
- saralash musobaqalari.

Birinchilik yoki chempionatlar – eng mas'uliyatli musobaqalar bo'lib, ularning natijalari bo'yicha g'olib jamoaga chempionlik nomi beriladi. Musobaqalarni tashkil etishning bu turi jamoalar kuchini oqilona baholashga, olib borilayotgan o'quv-tenirovka ishining sifatini taqqoslashga imkon beradi.

Kubok musobaqalari juda ko'p jamoalarni jalb etish va g'olibni nisbatan qisqa muddatlarda aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kubok musobaqalari eng yaxshilarni izchillik bilan olish prinsipi bo'yicha o'tkaziladi.

Saralash musobaqalari musobaqalarning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli jamoalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Musobaqalarning yordamchi turlariga qo'yidagilar kiradi:

- nazorat uchrashuvlari;
- o'rtoqlik uchrashuvlari;
- namunali uchrashuvlar;
- qisqartirilgan musobaqalar.

Nazorat uchrashuvlari jamoalarni bo'lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

O'rtoqlik uchrashuvlari o'quv-mashg'ulot maqsadlarida yoki an'anaviy musobaqalar rejasida o'tkaziladi.

Namunali uchrashuvlar futbolni ommalashtirishga va sport mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Qisqartirilgan musobaqalar bir necha soat mobaynida o'tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

Bunday musobaqalarni o'tkazishda o'yin vaqti qisqartiriladi. Qisqartirilgan musobaqalarning dasturi faqat o'yin o'tkazishni emas, balki o'yinchilarning texnik yoki jismoniy tayyorgarligiga doir musobaqalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

5.3. Musobaqalarni rejalashtirish

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya harakatining tashkiliy tuzilish xususiyatlarini hisobga olgan holda respublikalar, viloyatlar, shaharlar va jismoniy tarbiya jamoalarida o'tkaziladigan futbol musobaqalarining muayyan tizimi qaror topgan. Bu tizim turli ko'lamdagi musobaqalarning mintaqaviy va muassasa prisiipini hisobga olgan holda muttasil, izchil bo'lishini va almashinib turishini talab etadi.

Bu musobaqalarning bir yo'la ikki joyda bo'lishi, jamoalarning haddan tashqari band bo'lib qolishi, uzoq vaqt yo'lda bo'lishning oldini olishga hamda jamoalarda to'la qimmatli o'quv-mashg'ulot ishlari uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Musobaqaning umumiy yig'ma taqvim rejasi faqat tadbirlar ro'yxati emas, balki sport tashkilotlarining futbolini yanada rivojlantirish yuzasidan birgalikda olib boradigan ishlarning chuqur o'ylangan rejasidir.

U territorial va idoralar bo'yicha uyushtiriladigan musobaqalarni o'tkazish bilan aloqador barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Respublika, viloyat o'lka va shahar musobaqalarining yig'ma taqvim rejasini yuqori tashkilotlar tomonidan rejalashtiriladigan musobaqalarni hisobga olgan

holda, 4 yillik qilib tuzish maqsadga muvofiqdir. Zarur o'zgartirishlar kiritilgandan keyin futbol bo'yicha umumiy yig'ma reja tegishli jismoniy tarbiya va sport vazirligining ommaviy sport tadbirlari rejasiga kiritiladi hamda barcha sport tashkilotchilari uchun majburiy hisoblanadi.

5.4. O'yin tizimlari

Amalda o'yinning uchta asosiy tizimi qaror topgan: davrali tizim, bir yoki ikki marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim, avvalgi ikki tizimning kombinatsiyasidan iborat bo'lgan aralash tizim.

Davrali tizim

Musobaqaning davrali tizimida har bir jamoa, agar musobaqa bir davrali o'tkazilsa, bir-biri bilan bir marta, agar musobaqa ikki davrali o'tkazilsa, ikki marta uchrashishi kerak. Uning bunday tizim yoki adolatli musobaqalashuvchilar kuchlari nisbatini ancha oqilona belgilashga va kuchli jamoani aniqlashga imkon beradi, bunda musobaqaning umumiy yakunidagi tasodifiylik elementi ma'lum darajada bartaraf qilinadi. Bu tizim bo'yicha musobaqalarni ikki davrali qilib o'tkazish eng to'g'ri hisoblanadi.

Davrali tizimda musobaqa ishtirokchilarining barcha o'rinlari to'plangan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. O'tkazilgan barcha o'yinlar natijasida eng ko'p ochko olgan jamoa g'olib hisoblanadi. Bir yoki bir necha jamoalarda ochkolar teng bo'lib qolganda, g'olibni aniqlash uchun musobaqa tartibida qandaydir qo'shimcha ko'rsatkichlar yoki tadbirlar (masalan, shu jamoalar o'rtasida qo'shimcha o'yin yoki shu jamoalar o'rtasidagi avval o'ynalgan o'yin natijalari, yoki kiritilgan to'plar nisbati) nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Davrali tizim bo'yicha o'ynash tartibida qur'a tashlash bilan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning nomerlari aniqlanadi. Jamoalarning aniqlangan raqamlari asosida o'yinlar jadvali (kalendar) tuziladi. Musobaqalar bir

davrali qilib o'tkazilganda, o'yin bir-biri bilan bellashuvchi ikki jamoadan dastlabkisining maydonida o'tkaziladi. Agar musobaqada ikki davra nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi o'yin keyingi jamoa maydonida o'tkazilishi kerak.

Davrali tizim bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar kalendarini uch usul bilan tuzish mumkin.

Birinchi usul. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soniga qarab, jamoalarning umumiy soniga yaqin bo'lgan tok son olinadi va unga muvofiq ravishda vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Masalan, 6 ta jamoa bo'lganda, unga (ya'ni 6 soniga) yaqin bo'lgan toq son 5 bo'ladi. Demak, besh vertikal chiziq o'tkazish zarur. Jamoalar soni 10 ta bo'lganda, unga yaqin toq son – 9, demak, to'qqizta vertikal chiziq chizilgan bo'lishi kerak va hokazo.

Vertikal chiziqlarning ostidan va ustidan, pastdan boshlab chapdan o'ngga qaratib jamoalar nomeri ketma-ket tartibda birinchidan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo'lgan toq songacha, erada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi (4.1-4.2-jadval).

Bu raqamlar keyingi raqamlarni grafik tarzida yozish uchun dastlabki reja bo'lib hisoblanadi. Birinchi kun o'yinlar taqvimini tuzish uchun birinchi raqamdan boshlab vertikal chiziq atrofida soat strelkasiga qarshi yo'nalishda oshib boruvchi tartibda barcha ishtirok etuvchi raqamlar yozib chiqiladi. Qolgan o'yin kunlarining taqvimini tuzish uchun vertikal chiziqlar o'rtasidagi barcha raqamlar, avval ularning ostiga va ustiga qo'yilgan raqamlarni hisobga olgan holda, ilonizi qilib qo'yib chiqiladi. Shuni ham aytish kerakki, raqamlar birin-ketin vertical chiziqlarning o'ng tomonidan ortib boruvchi tartibda takrorlanib yoziladi.

Shundan keyin ikkinchi va qolgan taqvim kunlarida bellashuvchi jamoalarni aniqlash uchun har bir vertikal chiziqning chap tomoniga avvalgi taqvim kunidagi barcha raqamlar o'zgarishsiz o'tkazilishi kerak.

**10 jamoa uchun o'yinlar taqvimini tuzish
(10 ga eng yaqin bo'lgan kichik toq son - 9)**

Turlar bo'yicha o'yinlar

1- tur	2- tur	3- tur	4- tur	5- tur	6- tur	7- tur	8- tur	9- tur
1- 10	10- 6	2-10	10-7	3-10	10-8	4-10	10-9	5-10
2-9	1-2	3-1	2-3	4-2	3-4	5-3	4-5	6-4
3-8	9-3	4-9	1-4	5-1	2-5	6-2	3-6	7-3
4-7	8-4	5-8	9-5	6-9	1-6	7-1	2-7	8-2
5-6	7-5	6-7	8-6	7-8	9-7	8-9	1-8	9-1

Hamma grafalar to'ldirilib chiqilganidan keyin, o'yinlarning taqvimi tuziladi. Buning uchun vertikal chiziqning ikki tomonida turuvchi raqamlar juft-juft qilib birlashtiriladi. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soni toq bo'lsa, har bir vertikal chiziqning ostida yoki ustida turuvchi raqamlar mazkur taqvim kuni (shu turda) o'ynamaydigan jamoa ekanini ko'rsatadi.

Jamoalar soni juft bo'lganda (masalan, jamoalar soni o'nta bo'lganda) mko'rsatilgan (vertikal chiziqning ostida yoki ustida) raqamlar (jamoalar) oxirgi raqamlar (o'ninchi) bilan o'ynaydilar.

Turlar bo'yicha o'yinlar jadvali bo'sh raqamli jamoalar (vertikal chiziq ostida yoki ustidagi raqamlar) bilan so'nggi raqamli jamoa o'yinini hisobga olgan holda tuziladi (yuqoridagi misolda 1-raqam bilan, 10-raqam bilan va hokazo).

Odatda, tur jadvalida birinchi bo'lib ko'rsatilgan jamoa maydon egasi hisoblanadi. Shuning uchun qur'aning oxirgi raqami (masalan, musobaqada qatnashuvchi jamoalar o'nta bo'lganda 10-raqam) har bir turdan keyin o'rin almashib turadi. Qolgan bellashuvchi jamoalar vertikal chiziqning o'ng tomonida turuvchi raqamdan boshlab tuziladi.

Shunday qilib, bu usulda jamoalarning har bir turda navbat bilan maydon almashishiga qat'iy rioya qilinadi.

Uchinchi usul («qatorasiga»). O'yinlar taqvimini o'yinda ishtirok etuvchi hamma jamoalarni bir qatorga juft-juft qilib yozish usuli bilan tuzishda maydonlar almashishining avvalgidek shartlari, ya'ni uchrashuv «egasi» huquqi saqlanadi. Mazkur usulda jamoalarning juft soni olinadi (masalan, agar musobaqada 7 jamoa qatnashsa, o'yinlar taqvimi 8 jamoaga tuziladi; agar 9 ta jamoa bo'lsa, 10 jamoaga tuziladi va hokazo).

8 ta jamoa bo'lganda birinchi taqvim kuni quyidagi tartibda tuziladi: bir qatorda birinchi raqam oxirgi 8-raqam bilan, ikkinchi raqam oxirgi raqamdan oldingi 7- raqam bilan birlashtiriladi, ya'ni bir-biri bilan o'ynovchi jamoa aniqlanadi va hokazo. Shunda quyidagi jamoalar bellashadigan bo'lib chiqadi:

1-8, 2-7, 3-6, 4-5

Jamoa uchun o'yinlar taqvimini «qatorasiga» tuzish

1-kun	1-8	2-7	3-6	4-5
2-kun	5-1	6-4	7-3	8-2
3-kun	1-2	3-8	4-7	5-6
4-kun	6-1	7-5	8-4	2-3
5-kun	1-3	4-2	5-8	6-7
6-kun	7-1	8-6	2-5	3-4
7-kun	1-4	5-3	6-2	7-8
Nazorat qatori	8-1	2-7	3-6	4-5

Keyingi taqvim kunlaridagi o'yinlar jadvalini tuzish dastlabki juftlikdagi 1-raqamni avvalgi taqvim kunidagi o'ng tomondagi chekka raqam bilan

birlashtirishdan boshlanadi. Bunda maydonlar almashinishi uchun 1- raqam navbatma-navbat juftlikning goh o'ng, goh chap tomoniga qo'yiladi. Qolgan juftliklar (bir-biri bilan o'ynaydigan jamoalar) qolgan raqamlarni juft-juft qilib bir qatorga yozish bilan tuziladi, bunda birlashtirish o'ng tomondan boshlanadi.

Shunday qilib, ikkinchi taqvim kuni quyidagi jamoalar bir-biri bilan bellashadi:

5-1, 6-4, 7-3, 8-2.

Ikkinchi va undan keyingi taqvim kunlarini tuzish uchun birinchi juftlikning 1-raqamdagi o'rin boshqa raqamdagi (mazkur holda 8-raqamni) qoldiriladi, keyingi juftliklarni birlashtirish prinsipi avvalgidek bo'ladi.

Nazorat qatorida hosil bo'ladigan juftliklarning (birinchidan tashqari) birinchi kalendar kunidagi juftliklar bilan to'g'ri kelishi barcha kunlar bo'yicha tuzilgan o'yinlar taqvimining to'g'riligini tasdiqlaydi. O'yinlar taqvimi ikki davrali bo'lganda, barcha juftliklardagi raqamlar almashtiriladi. O'yinlar taqvimini tuzish va uni nazorat qilishning oddiyligi – bu usulning afzalligidir.

Uchinchi usul. Bu usul avvalgi ikki usuldan ham oddiy: u musobaqa o'tkazish jarayonida maydonning almashinishi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan taqdirda (musobaqalar bir joyda o'tkazilganda) qo'llaniladi. Uchinchi usulga binoan o'yinlar taqvimi bevosita turlar bo'yicha tuziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soniga mos bo'lgan raqamlar (jamoalar soni juft bo'lganda) birinchi raqamdan boshlab ikki ustuncha qilib yoziladi (butunda 1- raqam chap ustunchaning tepasidan boshlanadi). Shundan keyin ikkinchi raqamdan boshlab (bu raqam, ya'ni 2-raqam ikkinchi ustunchaga, birinchi raqamning qarshisiga yoziladi), ketma-ket tartibda soat strelkasi bo'ylab qolgan raqamlar qo'yib chiqiladi Keyingi tur o'yinlarini tuzish uchun raqamlar soat strelkasiga qarshi yozib chiqiladi, birinchi raqam o'z o'rnida qoladi.

8 jamoa uchun turlar bo'yicha o'yinlarning taqsimlanishi

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-0
0-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-0	7-2
7-4	0-5	2-6	3-7	4-0	5-2	6-3
6-5	7-6	0-7	2-0	3-2	4-3	5-4

Agar musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni toq bo'lsa, keyingi juft son o'rniga «nol» raqami qo'yiladi, qolganlari esa o'zgarishsiz qoladi. Taqvim bo'yicha «nol» raqami bilan o'ynashi kerak bo'lganlar mazkur turda o'ynamaydi.

7 jamoa bo'lganda o'yinlarni turlar bo'yicha taqsimlash

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-0
0-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-0	7-2
7-4	0-5	2-6	3-7	4-0	5-2	6-3
6-5	7-6	0-7	2-0	3-2	4-3	5-4

Davrli tizim bo'yicha bir davrali musobaqalar o'tkazishda kerak bo'lgan vaqtni aniqlash uchun o'yinlarning umumiy sonini bo'lish kerak.

Bu quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$H = \frac{K(K-1)}{2}$$

bunda I – o'yinlar soni,

K – musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soni.

Masalan: K = 16

$$H = \frac{16(16-1)}{2} = 120$$

Turlar o'rtasidagi o'yinlar jadvalini tuzishda jamoalarning o'quv-mashg'ulot ishlarini o'tkazishga imkon beradigan darajada tanaffus bo'lishini nazarda tutish kerak.

5.5. O'yinlar (musobaqa)da o'rinlarni aniqlash

O'tkazilgan musobaqa natijasida g'olib va musobaqada ishtirok etgan jamoalar egallagan keyingi o'rinlar aniqlanadi. Shu musobaqada jamoaning o'tkazgan har bir o'yini uning natijasiga qarab, ochkolar berish yo'li bilan baholanadi. Kollektivdan bitta jamoa qatnashadigan davralar tizimi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda quyidagicha hisobga olish shkalasi keng tarqalgan bo'lib, unga binoan g'alaba uchun – 2, durang uchun – 1, mag'lubiyat uchun -0 ochko beriladi. Jamoalarning o'yinga kelmaganligini mag'lubiyat bilan tenglashtirmaslik uchun boshqacha hisoblash shkalasi qabul qilinadi, masalan: g'alaba –3 ochko, durang – 2 ochko, mag'lubiyat – 1 ochko, o'yinga kelmaslik – 0 ochko.

Klublar bo'yicha hisobga olishda, jismoniy tarbiya jamoalari musobaqalarda bir necha jamoalar bilan qatnashganda (viloyat, shahar va tuman birinchiliklari o'ynalayotgan vaqtda shunday bo'lishi mumkin) hisobga olish shkalasi har bir jamoaga alohida-alohida ochkolar yozishni talab qiladi.

Natijalar klublar bo'yicha hisobga olinadigan musobaqada oltita jamoa bilan qatnashuvchi jismoniy tarbiya jamoalariga beriladigan baholash ochkolari shkalasi misol tariqasida keltirilgan.

Musobaqa o'tkazishning muayyan sharoitlari va oldinga qo'yilgan vazifalarga qarab ochkolar differentsiastiyasi turli jamoalar uchun boshqacha bo'lishi mumkin. Biroq, odatda, mag'lubiyat g'alaba uchun beriladigan ochkolarning 1/3 ni, durang uchun beriladigan ochkolarning 2/3 ni, kelmaganlik uchun 0 qismini berishini nazarda tutish kerak.

4.5-jadva

Alohida – alohida baholashning taxminiy shkalasi

Natija	Jamoalar bo'yicha baholash ochkolari					
	1	2	3	4	5	6
G'alaba	18	15	12	9	6	3
Durang	12	10	8	6	4	2
Mag'lubiyat	6	5	4	3	2	1
O'yinga kelmaganlik	0	0	0	0	0	0

Musobaqada o'rinlar jamoalarning hamma o'yinlarda to'plagan ochkolar yig'indisiga qarab uzil-kesil aniqlanadi. Eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi. Agar dastlabki bir necha jamoalarning to'plagan ochkolari soni bir xil bo'lsa, g'olibni uzil-kesil aniqlash uchun ular o'rtasida qo'shimcha o'yinlar o'tkazilishi mumkin yoki o'rinlar kiritilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar nisbati bo'yicha, yoki ular o'rtasida musobaqa jarayonida o'tkazilgan o'yin natijalari bo'yicha aniqlanadi

Jismoniy tarbiya jamoalari musobaqada ishtirok etish natijasida to'plagan ochkolari yig'indisiga qarab klublar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi.

Quyida nisbatan qisqa muddatlarda ko'p jamoa ishtirokida o'tkaziladigan musobaqalarda qo'llaniladigan davrali o'yin tizimining xillarida biri keltiriladi. Bu tizimda hamma jamoalar bir necha guruhga bo'linadi.

Har bir kichik guruhdagi o'yinlar davrali tizim bo'yicha ochkolar berish yo'li bilan o'tkaziladi. Shundan so'ng kichik guruh g'oliblaridan yoki kichik guruhlarda 1-2-o'rinlarni olgan jamoalardan yangi guruhlar tuziladi va bu guruhlar ham davrali tizim bo'yicha o'yinlar o'tkazadi. G'olibni aniqlash uchun bo'ladigan final o'yin guruh g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi. Qolgan

hamma o'rinlar kichik guruhlarda tegishli o'rinni egallagan jamoalar o'rtasida o'yinlar o'tkazish bilan aniqlanadi.

Masalan: Germaniyada bo'lib o'tgan 16 jamoa o'rtasidagi 1974-yilgi jahon birinchiligi musobaqalari shunday tizim bo'yicha o'tkazilgan. Dastlabki bosqichda hamma jamoalar to'rtta guruhga bo'lingan edi:

I guruh: 1, 2, 3, 4-nomerlar

III guruh: 9, 10, 11, 12-nomerlar

II guruh: 5, 6, 7, 8-nomerlar

IV guruh: 13, 14, 15, 16-nomerlar

Jamoalar raqamlari qur'a tashlash bilan aniqlanadi. Ayrim hollarda, jahon birinchiligida bo'lgani kabi, har bir guruhga avvalgi jahon birinchiligida katta natijalar ko'rsatgan jamoalardan ajratiladi.

Kichik guruhlarda jamoalar davrali tizim bo'yicha o'ynaydilar. Kichik guruhlarda o'tkazilgan o'yin natijalariga qarab, har birida 4 tadan jamoa bo'lgan ikkita guruh tuziladi (mazkur musobaqada 1-bosqichdan keyin 8 ta jamoa o'yindan chiqib ketar va ularning o'rni aniqlanmas edi, garchi buni xuddi shunga o'xshash tizim bo'yicha aniqlash mumkin bo'lsa ham):

«A» guruh	«B» guruh
I guruh 1-o'rin	I guruhdagi 2- o'rin
II guruh 2 - o'rin	II guruhdagi 1- o'rin
III guruh 1 -o'rin	III guruhdagi 2- o'rin
IV guruh 2- o'rin	IV guruhdagi 1- o'rin

«A» va «B» guruhlarda jamoalar davrali tizim bo'yicha bir davra o'yin o'tkazadilar. Finalda birinchi o'rin va chempionlik unvonini olish uchun «A» va «B» guruhlarining g'olib jamoalari o'ynaydilar, 3-4 o'rinlar uchun esa guruhlarda ikkinchi o'rinni egallagan jamoalar kuch sinashadilar. Shunday jadval bo'yicha 16 jamoa bo'lganda, dastlabki to'rt o'rinni aniqlash uchun 38 ta o'yin o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Guruhlarda tegishli o'rinlarni egallagan jamoalar o'rtasida o'tkaziladigan shunday o'yinlar yordamida barcha sakkiz o'rinni aniqlash mumkin.

5.6. Musobaqa nizomi

Sovrinli o'rinlar, shuningdek, musobaqada qatnashuvchi jamoalar yoki jismoniy tarbiya jamoalari (natijalar klublar bo'yicha hisobga olinganda) egallaydigan barcha keyingi o'rinlar aniqlanadigan biron-bir rasmiy musobaqa o'tkazishdan avval musobaqa haqidagi nizom tuzilgan bo'lishi kerak. Bu nizom Futbol Assotsiyatsiyasi yoki musobaqani o'tkazuvchi boshqa biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Musobaqa nizomi katta yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Unda asosiy tashkiliy va texnik shart-sharoitlar aniq bayon qilingan bo'ladi. Nizom o'quvmashg'ulot ishlarining mazmunini belgilab beradi, chunki jamoalarning tashkiliyuslubiy tayyorgarligi bo'lajak musobaqalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tayyorgarlik ko'rish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishlari nazarda tutilib, nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi kerak.

Musobaqani o'tkazish davrida tasdiqlangan nizomdan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi, aks holda mazkur musobaqani o'tkazayotgan tashkilotning obro'yiga putur yetadi va keraksiz nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, xolos.

Musobaqa nizomida quyidagi masalalar aks ettirilgan bo'lishi kerak:

1. O'tkazilayotgan musobaqaning maqsadi va vazifalari.
2. Musobaqani kim o'tkazishi (assotsiyatsiya, tashkiliy komitet va hokozolar).
3. Musobaqa o'tkazish muddatlari va shartlari.
4. Musobaqaga qo'yiladigan jamoalar soni va nomi, talabnomaga kiritiladigan qatnashchilarning maksimal miqdori.
5. Musobaqa o'tkaziladigan o'yin tizimi (davralari – bir yoki ikki davrali, mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan, aralash tizim).
6. Hisobga olish tizimi va jamoalarning hamda jismoniy tarbiya jamoalarining (natijalar klublar bo'yicha hisoblanganda) egallagan o'rinlarini aniqlash tartibi.

7. Musobaqalarning alohida shartlari (qanday hollarda o'yinda qo'shimcha vaqt belgilanishi va uning davomiyligi, o'yin durang bilan tugallanganda yoki o'tkazilgan musobaqa natijasida ochkolar soni teng bo'lganda, g'olibni aniqlash usullari, o'yin qoidalarida ko'rsatilgandan tashqari nechta o'yinchi almashtirish mumkinligi va hokazolar).

8. Jamoalarni va musobaqa qatnashchilarini rasmiylashtirish tartibi, shakli, o'yinchilarga talabnomalar berish va qayta talabnoma berish muddati.

9. Musobaqalarni olib boradigan hakamlar jamoasining nomi.

10. O'tkazilgan o'yinga norozilik bildirish va uni ko'rib chiqish, shuningdek, o'yinchilarni maydondan chiqarib yuborish yoki ularni ogohlantirish bilan bog'liq bo'lgan intizom masalalarini qarab chiqish tartibi.

11. O'yinchilar intizomni buzganligi uchun jamoalarning javobgarligi hamda stadion va klublar ma'muriyatining o'yin o'tkazish vaqtida tartib saqlanishi uchun javobgar bo'lishi.

12. Musobaqa o'tkaziladigan joylar va ularga qo'yiladigan talablar.

13. G'oliblarni mukofotlash hamda oxirgi o'rinlarni egallagan jamoaning yoki jamoalarning keyingi xuddi shunday musobaqada qatnashish shartlari.

5.7. Hakamning ishoralari

Hakamning tasdiqlangan ishoralari sur'atlariga qarang



Ustunlik (1)



Ustunlik (2)



Burchak zarbasi



Darvoza maydoonidan zarba



Qizil va sariq kartochka




Penaltiy zarbasi




Erkin zarba



Jarima zarbasi



Tekshirish: barmoq quloqqa quyiladi, ikkinchi qo'l yonga quyiladi



Video ko'rik: "TV-monitor" ishorasi

Uchrashuv rasmiy shaxslarining mas'uliyati

Hakam yoki uchrashuvning boshqa rasmiy shaxslari quyidagi holatlar uchun mas'ul emas:

- o'yinchi, rasmiy shaxs yoki tomoshabin olgan jarohat uchun;
- har qanday mulkka yetkazilgan har qanday ko'rinishdagi zarar uchun;
- boshqa har qanday — shaxsiy, klub, kompaniya, assotsiatsiya yoki boshqa tashkilotning yo'qotishlari uchun. Bo' yo'qotishlar o'yin qoidasi asosida qabul qilingan qarorlar yoki o'yinni o'tkazish va uchrashuvni nazorat qilish tadbirlari natijasida bo'lishi mumkin.

Bunday qarorlar uchun misollar:

- o'yin maydonining yoki unga qo'shni hududlarning holati yoki ob-havo sharoiti o'yinni o'tkazishga imkon beradi yoki bermaydi;
- qandaydir sababga ko'ra uchrashuvni bekor qilish;
- maydon jixozlari va uchrashuv davomida foydalaqiladigan to'plarning yaroqliligi;
- tomoshabinning aralashuvi yoki tomoshabinlar hududidagi qandaydir muammo tufayli uchrashuvni to'xtatish yoki davom ettirish;
- jarohat olgan o'yinchi tibbiy yordam olish uchun maydonni tark

etishiga imkon yaratish maqsadida o'yinni to'xtatish yoki to'xtatmaslik;

- jarohat olgan o'yinchining tibbiy yordam olishi uchun maydonni tark etishini talab qilish;
- o'yinchiga qandaydir kiyim yoki ekipirovka kiyishiga imkon berish yoki imkon bermaslik;
- hakam vakolatga ega bo'lgan xududda har qanday shaxs (stadion texnik xodimlari yoki jamoaning rasmiy shaxslari, xavfsizlik xodimi, fotograf yoki matbuotning boshqa vakillari)ning maydon yaqinida bo'lishiga ruxsat berish yoki taqiqlash;
- O'yin qoidalari yoki FIFA, konfederatsiyalar, milliy futbol assotsiatsiyalari yo'riqnomalari hamda musobaqa reglamenti va uchrashuvni o'tkazish bayonnomasi buyicha o'z vazifalariga muvofiq qabul qilingan har qanday qarorlar.

Yordamchi hakamlar

Ular quyidagi holatlarda hakamga xabar berishadi:

- to'p maydonni to'liq tark etganida kaysi jamoa burchak zarbasini amalga oshirishi, darvoza maydonidan erkin zarbani amalga oshirishi yoki to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritishi xaqida;
- o'yindan tashqari (offside) holatni aniqlash/o'yindan tashqari (offside) holatda qolgan o'yinchi jazoga tortilishi mumkinligi xaqida;
- o'yinchi almashtirish kerakligi xaqida;
- penalti zarbasi paytida darvozabon muddatidan avval darvoza chizig'ini tark etsa; to'p darvoza chizig'ini kesib o'tsa. O'yinga qo'shimcha yordamchi hakamlar tayinlangan bo'lsa, yordamchi hakamlar 11 metrli nuqta chizig'idan o'rin olishadi.

Yordamchi hakam, shuningdek o'yinchi almashtirish jarayonini nazorat qiladi.

Yordamchi hakam 9,15 metr (10 yard) masofada o'yinni nazorat qilishda yordamlashish uchun maydonga chiqishi mumkin.

Zaxiradagi hakam

Zaxiradagi hakam ko'magi, shuningdek quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'yinchi almashtirish jarayoni nazorati;
- o'yinchilar/zaxira o'yinchilarning ekipirovkasini tekshirish;
- hakam ishora/ruxsat berganidan keyin o'yinchining maydonga qaytishini nazorat qilish;
- to'plarning almashtirilish nazorati;
- har bir bo'lim (qo'shimcha vaqtlarni qo'shganda) oxirida hakam qo'shib bergan eng kam o'ynaladigan vaqt miqdorini ko'rsatish;
- texnik hududdagi har qanday shaxsning mas'uliyatsiz xulq-atvori xaqida hakamga xabar berish.

Hakamning qo'shimcha yordamchilari

Qo'shimcha yordamchilar quyidagilar xaqida hakamga ma'lumot yetkazishadi:

- to'p darvoza chizig'ini to'la kesib o'tganda, jumladan, gol urilganda;
- kaysi jamoa burchak zarbasi yoki darvoza maydonidan zarbani amalga oshirishi;
- penalti paytida zarba berilguncha darvozabon darvoza chizig'ini tark etganmi yoki yo'qligi va to'p darvoza chizig'ini kesib o'tgani.

Zaxiradagi yordamchi hakam

Zaxiradagi yordamchi hakamning yagona vazifasi — o'z vazifasini bajarishga qodir bo'lmagan yordamchi hakamlar yoki zaxiradagi hakam o'rnini egallash.

Uchrashuvning "video" rasmiy shaxslari

Video yordamchi hakam (VAR) uchrashuvning rasmiy shaxsi hisoblanib, u videotakrorlardan foydalangan holda faqat "Yaqqol va ochiq-oydin xato", "jiddiy ko'ngilsiz hodisani nazardan qochirish", "gol gol emas", "penalti / penalti emas", "to'g'ridan-to'g'ri qizil kartochka" (ikkinchi ogoxlantirish emas)

yoki qoidabuzarni aniqlashda xatoga yo'l quyib, hakam ushbu jamoaning boshqa o'yinchisini ogoxlantirish yoki chetlatish bilan bog'liq vaziyatlarda hakamga qaror qabul qilishda yordam berishi mumkin.


Video yordamchi hakam assistenti (AVAR) uchrashuvning rasmiy shaxsi hisoblanib, u video yordamchi hakamga birinchi navbatda quyidagi hollarda yordam beradi:

- VAR vaziyatlarni "tekshirish" va "qayta ko'rish" bilan band bo'lganida uchrashuv videotranslyatsiyasini ko'zatadi;
- VAR bilan bog'liq vaziyatlar hamda aloka va texnika bilan bog'liq har qanday muammolarni yozib boradi;
- VARning hakam bilan muloqot jarayoniga, ayniksa, VAR vaziyatni "tekshirish" va "qayta ko'rish"ni amalga oshirayotganida unga yordam beradi. Masalan: hakamga o'yinni to'xtatish yoki uni davom ettirishga shoshmaslik va xokazolar xaqida xabar beradi;
- "tekshirish" va "qayta ko'rish" uchun o'yin to'xtatib turilganda yo'qotilgan vaqt hisobini olib boradi;
- VARga taalluqli qaror xaqidagi axborotni tegishli tashkilotlarga yetkazadi.


Yordamchi hakam ishoralari



O'yinchi almashtirish



Hujum qilayotgan jamoa foydasiga jarima zarbasi / erkin zarba




Himoyalananayotgan jamoa foydasiga jarima zarbasi / erkin zarba




Hujum qilayotgan jamoa foydasiga to'pni yon chiziqdan tashlash



Himoyalananayotgan jamoa foydasiga to'pni yon chiziqdan tashlash




Burchak zarbasi




To'pni darvoza maydonidan o'yinga kirgizish




O'yindan tashqari holat



Maydonning yaqinqismida o'yindan tashqari holat



Maydonning o'rta qismida
o'yindan tashqari holat



Maydonning olis qismida o'yindan
tashqari holat

6. Bob. Qoidalarning falsafasi va ruhiyati

Futbol — yer sharidagi eng buyuk sport turi. Futbolni barcha qit'alarda, barcha mamlakatlarda va turli toifalarda o'ynashadi. Butun dunyoda — FIFAning Jahon chempionati finalidan tortib, sayyoramizning eng olis joylaridagi bolalar o'rtasidagi o'yinlargacha futbol qoidalarining bir xilligi uning taraqqiyoti uchun foydalanishda davom etilishi lozim bo'lgan futbolning yaqqol ustunligidir.

Futbolga o'yinning adolatli o'tishini ta'minlaydigan qoidalar kerak bo'lib, bu «chiroyli o'yin»ning muhim qismi va o'yin ruhiyatining hayotiy muhim bo'lgan xususiyati hisoblanadi. Eng yaxshi o'yinlarda hakamlarning borligi ham sezilmaydi, chunki unda futbolchilar bir-birlariga, uchrashuvning rasmiy shaxslari va o'yin qoidalariga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi.

Futbol qoidalari boshqa ko'pchilik jamoaviy o'yinlarning qoidalariga nisbatan ancha sodda bo'lib, ko'pchilik holatlarning sub'ektivligi va rasmiy shaxslar esa inson bo'lganligi sababli, ba'zi qarorlar noto'g'ri bo'lishi yoki munozara va muhokamalarga sabab bo'lishi muqarrar. Ba'zi odamlar uchun bunday muhokamalar rohatlanishning bir turi va o'yinning qiziqarli qismi hisoblanadi, ammo qaror to'g'ri bo'ladimi yoki yo'qmi, o'yin ruhi hakamlarning qarorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Jamoaga ta'sir o'tkaza oladigan ishtirokchilar, ayniqsa, murabbiylar va jamoa sardorlari uchrashuv rasmiy shaxslari va ularning qarorlarini hurmat qilish uchun mas'uldirlar.

Qoidalar barcha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning yechimi bo'la olmaydi, shuning uchun qoidalarda vaziyatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma bo'lmasa, IFAB hakamdan o'yin va qoidalar ruhiga muvofiq qaror qabul qilishini kutadi. Bunda ko'pincha "Futbol nimani istagan bo'lardi yoki futbol nimani kutgan bo'lardi?" — degan savolga javob topish kerak.

Shuningdek, qoidalar o'yinchilarning xavfsizligi va salomatligini ta'minlashi kerak. So'nggi yillarda futbolchilarning sog'lig'ini saqlash masalasi

bir qator o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, qo'shimcha vaqtlarda futbolchilarni almashtirish va o'yinchilar suv ichishlari va salqinlashlari uchun to'xtalish qilish imkoniyati bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi davrida, 3-qoidaga vaqtinchalik o'zgartirish kiritilib, bu eng yuqori darajadagi turnirlarda maksimal almashtirish sonini uchdan beshtagacha oshirdi. Bundan tashqari, miya chayqalish holatlarida jamoalar tarkib bilan bog'liq muammolarni boshdan kechirmasdan, bosh miyasi chayqalgan yoki bunday ehtimoli bo'lgan futbolchining sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilishlari uchun qo'shimcha almashtirish sinovlari boshlandi.

Baxtsiz hodisalar muqarrar, ammo qoidalar futbolchilarning sog'lig'i va sport adolati o'rtasidagi muvozanatni saqlab, o'yinni iloji boricha xavfsiz qilishga yordam beradi. Hakamlar o'z xatti-harakatlari tajovo'zkor yoki xavfli bo'lgan futbolchilar bilan qat'iy kelishib olishlari uchun qoidalardan foydalanishi talab qilinadi. Xavfli o'yinning qabul qilinmasligi «shafqatsiz jang san'ati», «raqibning sog'lig'i va xavfsizligiga tahdid yaratish» va «haddan tashqari kuch ishlatish»kabi intizomiy tushunchalardagi qoidalarda mustahkamlangan.

Qoidalardagi o'zgarishlarni boshqarish

Futboldagi dastlabki universal qoidalar 1863 va 1886 yillarda ishlab chiqilgan. Xalqaro futbol assotsiatsiyalari kengashi (IFAB) xalqaro tashkilot sifatida Britaniyaning to'rtta futbol assotsiatsiyalari (Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya) tomonidan tashkil qilingan bo'lib, uning yagona vazifasi o'yin qoidalarini rivojlantirish va saqlab qolishdan iborat. FIFA 1913 yilda IFABga qo'shilgan.

Masalan, uchrashuvning rasmiy shaxslari uchun yangi kiritilgan qizil va sariq kartochkalar, darvoza maydonidan to'pni o'yinga kiritish va o'yinchi almashtirish tartibidagi o'zgarishlarda bo'lgani kabi, har bir taklif qilinayotgan o'zgarishda asosiy e'tibor adolatga, yaxlitlikka, hurmatga,

xavfsizlikda, ishtirokchilarning o'yindan zavq olishiga, shuningdek texnologiyalar esa o'yinga qanday foyda keltirishi mumkinligiga e'tibor qaratilishi dardkor. Qoidalar ishtirokchilarning kelib chiqishi va imkoniyatlaridan qat'i nazar, ularni ruhlantirishi lozim.

Ba'zida baxtsiz hodisalar ro'y berib turishiga qaramay, qoidalar o'yinni maksimal darajada xavfsiz qilishi kerak. Buning uchun o'yinchilar o'z raqiblarini, hakamlarni hurmat qilishlari, haddan tashqari tajovo'zkor va qaltis o'ynayotgan futbolchining harakatlariga barham berib, xavfsiz sharoit yaratishlari talab etiladi. Qoidalar o'zining intizomiy xususiyatida xavfli o'yin qabul qilinmasligini o'z ichiga oladi. Masalan: «qaltis harakat» ogohlantirish (sariq kartochka=SK) bilan jazolanadi, «raqibning sog'ligiga xavf solgan» yoki «haddan ziyod kuch ishlatgan» futbolchi maydondan chetlatiladi (qizil kartochka=QK).

Futbol o'yinchilar, hakamlar, murabbiylar, oddiy ishqibozlar, muxlislar va boshqalar uchun jozibador va yoqimli bo'lishi kerak. Qoidalar o'yinning qiziqarli bo'lishiga xizmat qilishi kerak. Insonlar yoshi, irki, dini, madaniyati, etnik kelib chiqishi, jinsi, orientatsiyasi, jismoniy imkoniyatlari va hokazolardan qat'i nazar futbol jarayonida ishtirok etishni istashlari va unga aloqadorlikdan zavq olishlari kerak.

Natijada, qoidalarga o'zgartirishlar kiritishdan oldin, IFAB va uning barcha qaror qabul qiluvchi organlari o'zgartirishlarning o'yinga foyda keltirishiga ishonch hosil qilishlari kerak. Bu har qanday kiritilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar dastlab sinovdan o'tkazilishini bildiradi.

Qoidalarni o'zgartirish bo'yicha har qanday taklifda adolat, halollik, hurmat, xavfsizlik, ishtirokchilar va tomoshabinlarning zavqlanishiga va agar kerak bo'lsa, o'yinni yaxshilash uchun texnologiyadan foydalanishga ye'tibor qaratiladi.

IFAB Qoidalardagi o'zgarishlar barcha darajada va sayyoramizning har bir burchagida futbolga manfaat keltirishi uchun jahon futbol oilasi bilan

hamkorlik qilishda davom etadi. Shu tariqa, o'yinning yaxlitligi, qoidalar va hakamlar hurmat qilinadi, qadrlanadi va himoya qilinadi.

6.1. Futbol o'yin qoidalari.

Futbolning 17 qoidasi.

№	Qoidalar nomi
1	Futbol maydoni o'lchamlari
2	Futbol to'pining og'irligi
3	O'yinchilar soni
4	O'yinchilar kiyimi
5	Bosh hakam
6	Yordamchi hakamlar
7	O'yin vaqti
8	O'yin boshlanishi
9	To'p qachrn o'yinga kiritilgan va kiritilmagan xisoblanadi
10	O'yin hisobi
11	O'yindan tashqari holat
12	Qoidani bo'zish va o'yinchilarning intizomsizligi
13	Jarima va erkin to'plar
14	11 metirli jarima to'pi
15	Autdan to'pni tashlash
16	Darvoza chizig'idan chiqib ketgan to'pni o'yinga kiritish zarbasi
17	Bo'rchak to'pi

01-QOIDA O'YIN MAYDONI

Maydon qoplamasi

Musobaqa reglamenti sun'iy va tabiiy materiallarning (gibrid tizim) kombinatsiyasiga ruxsat bermasa, o'yin maydoni butunlay tabiiy bo'lishi kerak yoki agar musobaqa reglamentida ruxsat etilsa, butunlay sun'iy bo'lishi kerak.

Sun'iy qoplamalarning rangi yashil bo'lishi kerak.

Agar sun'iy qoplama FIFAg a'zo milliy assotsiatsiyalar jamoalari

o'rtasidagi musobaqa o'yinlarida yoki xalqaro musobaqalarda foydalanilsa, IFAB tomonidan maxsus ruxsatnoma berilmagan taqdirda, bunday qoplama FIFAning futbol maydoni qoplamalari uchun sifat dasturi talablariga javob berishi kerak.

Maydondagi chiziqli belgilar

O'yin maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lishi va xavfsiz bo'lgan doimiy chiziqlar bilan belgilanishi kerak. Tabiiy qoplama maydon chiziqlarini belgilash uchun, agar sun'iy maydonni qoplash materiali xavf tug'dirmasa, undan foydalanish mumkin. Bu chiziqlar o'zlari chegaralayotgan maydon qismga kiradi.

Maydonda faqat 1-qoidada ko'rsatilgan chiziqlar chizilishi kerak. Sun'iy qoplamadan foydalaqilganda boshqa chiziqlar futbol uchun chiziqlardan farqli bo'lgan o'zgacha ranglarda chizilgandagina ruxsat beriladi.

O'yin maydonini chegaralovchi ikki uzun chiziq yon chiziqlar deyiladi, ikki qisqasi — darvoza chizig'idir.

O'yin maydoni o'rta chiziq bilan teng ikki qismga bo'linadi. Bu chiziq ikki yon chiziq o'rtasidagi nuqtalarni birlashtiradi.

Markaziy nuqta o'rta chiziqning o'rtasini ko'rsatadi. Uning atrofidan 9,15 m (10 yard) radiusli aylana chiziladi.

Burchak maydoni yoyidan 9,15 m (10 yard) masofada o'yin maydoni tashqarisida yon chiziq va darvoza chizig'iga perpendiko'lyar belgilar chizilishi ham mumkin.

Barcha chiziqlar bir xil kenglikda bo'lishi hamda 12 sm (5 dyuym) dan ortiq bo'lmasligi kerak. Darvoza chizig'i kengligi darvoza ustuni va to'sini kengligi bilan bir xil bo'lishi lozim.

O'yin maydonida ruxsat etilmagan belgilar qoldirayotgan o'yinchi sportchiga xos bo'lmagan xatti- harakati uchun ogoxlantirilishi kerak. Agar hakam o'yinchi buni o'yin vaqtida qilayotganini payqab qolsa, o'yinchi to'p maydonni tark etgan chog'da ogoxlantirilishi zarur.

O'lchamlar

Yon chiziq darvoza chizig'idan uzunrok bo'lishi kerak.

- Buyi (yon chiziq):

minimum 90 m (100 yard)

maksimum 120 m (130 yard)

- Eni (darvoza chizig'i):

minimum 45 m (50 yard)

maksimum 90 m (100 yard)

Musobaqa tashkilotchilari darvoza chizig'i va yon chiziq uzunligini yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'lchamlar doirasida belgilashi mumkin.

Xalqaro uchrashuvlar uchun o'lchamlar

- Buyi (yon chiziq):

minimum 100 m (110 yard)

maksimum 110 m (120 yard)


- Eni (darvoza chizig'i):

minimum 64 m (70 yard)

maksimum 75 m (80 yard)

Musobaqa tashkilotchilari darvoza chizig'i va yon chiziq uzunligini yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'lchamlar doirasida belgilashi mumkin.

FOTO maydon



darvoza chizig'i

min. 45 m (50 yard) / maks. 90 m (100 yard)

yon chiziq

min. 90 m (100 yard) / maks. 120 m (130 yard)

burchak maydoni

7,32 m (8 yard)

darvoza maydoni

penalti nuqtasi

jarima maydoni

penalti nuqtasi yoyi

burchak bayrog'i – flagshtok (majburiy element)

markaziy nuqta

radius 9,15 m (10 yard)

markaziy chiziq

markaziy aylana

flagshtok (majburiy bo'lmagan element)

16,5 m (18 yard)

5,5 m (6 yard)

11 m (12 yard)

9,15 m (10 yard)

5,5 m (6 yard)

majburiy bo'lmagan element

9,15 m (10 yard)

9,15 m (10 yard)

radius 1 m (1 yard)

Masofa chiziqning tashqi chetidan boshlab o'lchanadi. Boisi, chiziqdar o'zlari chegaralayotgan maydonning qismi hisoblanadi.

Penalti nuqtasigacha bo'lgan masofa nuqtaning o'rtasidan darvoza chizig'i tashqi chetigacha o'lchanadi.

Darvoza maydoni

Darvoza ustunining ichki tomonidan 5,5 m (6yard) masofada to'g'ri burchak ostida maydon ichkarisiga qarata ikkita chiziq o'tkaziladi. 5,5 m (6 yard) masofada bu chiziqlar darvoza chizig'iga parallel bo'lgan boshqa chiziq bilan birlashtiriladi. Ushbu chiziqlar va darvoza chizig'i bilan chegaralangan hudud darvoza maydoni deb ataladi.

Jarima maydoni

Darvoza ustunining ichki tomonidan 16,5 m (18 yard) masofada to'g'ri burchak ostida maydon ichkarisiga qarata ikkita chiziq o'tkaziladi. 16,5 m (18 yard) masofada bu chiziqlar darvoza chizig'iga parallel bo'lgan boshqa chiziq bilan birlashtiriladi. Ushbu chiziqlar va darvoza chizig'i bilan chegaralangan hudud jarima maydoni deb ataladi.

Har bir jarima maydoni ichida darvoza ustunlari o'rtasidan 11 m (12 yard) masofada penalti nuqtasi belgilanadi.

Jarima maydoni tashqarisida markazi penalti nuqtasi bo'lgan, radiusi 9,15 m (10 yard) aylana yoyi chiziladi.

Burchak maydoni

Har bir burchakdagi bayroq ustunidan o'yin maydoniga qarata radiusi 1 m (1 yard) bo'lgan chorak doira chiziladi.

Burchak flagshtoki albatta bo'lishi kerak. Flagshtok balandligi 1,5 m (5 fut) dan kam bo'lmasligi, uchi o'tkir bo'lmasligi kerak.

Flagshtoklar

Har bir burchakda uchi o'tkir bo'lmagan, balandligi 1,5 m (5 fut) dan kam bo'lmagan flagshtoklarga maxkamlanadigan bayroq o'rnatiladi.

Flagshtoklar o'rta chiziqning har ikki tomoniga, yon chiziqdan tashqarida kamida 1 m (1 yard) masofada ham o'rnatilishi mumkin.

Texnik hudud

Texnik hudud jamoalar rasmiy shaxslari, zaxira va almashtirilgan

o'yinchilar uchun belgilangan hududga ega stadionlarda o'tadigan uchrashuvlarga taalluqli bo'lib, quyidagicha ta'riflanadi:

Texnik hudud o'tirish joylarining har ikki yoni 1 m (1 yard)dan oshmaydi va old tomoni maydonning yon chizig'iga 1 metr masofa qolguncha belgilanadi;

Bu hududning chegaralari belgilab quyiladi;

Texnik hududda bo'lishga ruxsat etiladigan shaxslar soni musobaqalar reglamenti bilan belgilanadi;

Texnik hududdagi shaxslar:

- musobaqalar reglamentiga muvofiq uchrashuv boshlanguncha belgilab olinadi;

- o'zlarini mas'uliyat bilan tutishlari kerak;

- texnik hudud chegarasida qolishlari kerak. Hakam ruxsati bilan jarohat olgan o'yinchini ko'rikdan o'tkazish va unga yordam berish uchun massajchi yoki shifokorning maydonga chiqishi kabi alohida holatlar bundan mustasno.

Bir vaqtning o'zida faqat bir kishi texnik hududdan taktik ko'rsatmalar berib turishi mumkin.

Darvozalar

Darvozalar darvoza chiziqlari markaziga o'rnatilishi kerak.

Darvozalar burchak flagshtoklaridan teng masofada o'rnatilgan, yuqorisi gorizontal to'sin bilan tutashtirilgan ikkita vertikal ustundan iborat. Ustunlar va to'sinlar tasdiqlangan materiallardan tayyorlangan bo'lishi lozim. Ularning kesimi kvadrat, to'g'ri turtburchaq aylana, ellips shaklida yoki ushbu shakllarning kombinatsiyasidan iborat ko'rinishda bo'lishi va ular xavfsiz bo'lishi kerak.

Ustunlar orasidagi masofa - 7,32 m (8 yard), to'sinning ostki qismidan yer sirtigacha bo'lgan masofa - 2,44 m (8 fut).

Darvoza ustunlarining darvoza chizig'iga nisbatan joylashuvi quyida

keltirilgan sur'atlarga mos bo'lishi kerak.

Darvoza ustunlari va to'sini oq rangda, kesimining eni va buyi bir xil bo'lishi va 12 sm (5 dyuym)dan oshmasligi lozim.

Agar to'sin siljisa yoki sinsa, toki u tuzatilmaguncha yoki almashtirilmaguncha o'yin to'xtatiladi va o'yin to'pni qo'lda tashlab berish bilan qaytadan boshlanadi. Agar buning iloji bo'lmasa, o'yin to'xtatiladi. Tros yoki har qanday egiluvchan va xavfli predmetdan to'sin sifatida foydalanishga ruxsat etilmaydi.

To'r darvozalarga va darvoza ortidagi yerga maxkamlanishi mumkin; to'r mustaxkam qotirilgan va darvozaabonga xalaqit qilmasligi kerak.

Xavfsizlik

Darvozalar (jumladan ko'chma darvozalar ham) yerga mustaxkam qotirilgan bo'lishi kerak.

Golni aniqlash texnologiyasi (Goal Line technology — GLT)

Tizimlardan hakamning qarorini qo'llab-quvvatlash maqsadida gol urilganligini tekshirish uchun foydalanish mumkin.

GLTdan foydalanish musobaqalar reglamenti bilan belgilangan bo'lishi lozim.

DARVOZA O'LCHAMI

2,44 m (8 fut)

7,32 m (8 yard)

Darvoza ustunlarining darvoza chizig'iga nisbatan joylashuvi quyida keltirilgan sxemalarga mos kelishi kerak.

7,32 m

GLT prinsiplari

GLTdan faqat darvoza chizig'ida va faqatgina gol urilgan-urilmaganini aniqlash uchun foydalaniladi.

Gol urilgani xaqidagi signal (hakamning qo'lidagi soatga vibratsiya va

tasvirli signal) zudlik bilan yetkazilishi va bir soniya ichida faqat uchrashuvning rasmiy shaxslariga yuborilib avtomatik tarzda tasdiqlanishi kerak. Signal video operatsion xonaga ham yuborilishi mumkin (Video operation room - VOR).

GLTga qo'yiladigan talablar va uning xususiyatlari

Agar GLTdan musobaqa uchrashuvlarida foydalaqiladigan bo'lsa, uning tashkilotchilari tizim quyidagi standartlardan biriga muvofiq tarzda sertifikatlangan bo'lishini ta'minlashlari lozim:

- FIFA Quality PRO
- FIFA Quality
- IMS - INTERNATIONAL MATCH STANDARD

O'yinlar o'tkaziladigan musobaqa tashkilotchilari tizim (shu jumladan, darvoza ramkasi yoki to'pdagi texnologiyaga ruxsat etilgan har qanday o'zgartirishlar) FIFAning CAL sifat dasturiga muvofiqligini ta'minlashi kerak.

Agar tizim ishlatilsa, hakam o'yin boshlanishidan oldin sinov qo'llanmasiga muvofiq uning xizmatga yaroqliligini tekshirishi kerak. Agar texnologiya sinash buyicha yo'riqnomaga muvofiq ishlamas, hakam GLT tizimidan foydalanmasligi va buni tegishli tashkilotlarga ma'lum qilishi lozim.

Video yordamchi hakam (Video Assistant Referees — VARs)

VARdan foydalaqiladigan o'yinlarda video operatsion xona va hakam uchun kamida bitta video ko'rib chiqish maydoni (Referee review area - RRA) jsozlanishi zarur.

Video operatsion xona (Video Operation Room — VOR)

Video operatsion xona — bu video yordamchi hakam (VAR), video yordamchi hakam assistent (assistant VAR — AVAR) va videotakrorlar operatori (replay operator — RO) ishlaydigan xona. U stadionda/uning yaqinida yoki o'zokroq joyda joylashgan bo'lishi mumkin. O'yin vaqtida faqat vakolatli shaxslar video operatsion xonaga kirishlari yoki VAR, AVAR va RO

bilan gaplashishlari mumkin.

Video operatsion xonaga kirgan o'yinchi, zaxiradagi o'yinchi, almashtirilgan o'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsi o'yindan chetlatish bilan jazolanadi.

Hakamning video ko'rib chiqish maydoni (Referee Review Area — RRA)

VARdan foydalaqiladigan uchrashuvlarda kamida bitta RRA bo'lishi kerak va u yerda hakam «maydondan turib videoni ko'rib chiqishni» («on-field review» — OFR amalga oshiradi). RRA:

- maydondan tashqaridagi ko'rinarli joyda;
- aniq belgilangan bo'lishi kerak.

RRAGA kirgan o'yinchi, zaxiradagi o'yinchi, almashtirilgan o'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsi sariq kartochka bilan ogoxlantiriladi.

02-QOIDA

TO'P

Xususiyatlari va parametrlari

Barcha to'plar:

- sfera (shar) shaklda bo'lishi;
- mos keladigan materialdan tayyorlangan bo'lishi;
- aylanasining uzunligi 68 sm (27 dyuym) dan 70 sm (28 dyuym) gacha bo'lishi;
- uchrashuv boshlanishida 410 g (14 unsiya) dan 450 g (16 unsiya) gacha vaznga ega bo'lishi;
- dengiz satxidan (8,5 funt/dyuym²-15,6 funt/dyuym²) 0,6-1,1 atm (600-1100 g/sm²) bosimga ega bo'lishi kerak.

FIFA yoki konfederatsiyalar shafeligi ostida o'tadigan rasmiy musobaqalarda foydalaniladigan barcha to'plar quyidagi markirovkalardan biriga ega bo'lishi shart:



• FIFA Quality PRO



• FIFA Quality



• IMS - INTERNATIONAL MATCH STANDARD

Har bir belgi 2-qoidada keltirilgan minimal talablarni to'ldiruvchi va IFAB tomonidan tasdiqlanishi lozim bo'lgan alohida texnik talablarga mosligi va rasman tekshirilganini bildiradi. Tekshiruv o'tkazuvchi tashkilotlar FIFA tomonidan tasdiqlanadi.

Gol chizig'i texnologiyasi (GLT) ishlatilganda bu texnologiya o'rnatilgan to'p yuqorida ko'rsatib o'tilgan markirovkalardan biriga ega bo'lishi lozim.

Milliy assotsiatsiyalarning musobaqalari uchun ushbu belgilardan biri bo'lgan to'plardan foydalanish talabi o'rnatilishi mumkin.

FIFA, konfederatsiyalar yoki milliy futbol assotsiatsiyalari kafeligi ostida o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarda to'pda musobaqa, musobaqa tashkilotchisi va to'p ishlab chiqaruvchining ruxsat etilgan savdo belgisi logotipi/emblemasidan tashqari boshqa tijoriy reklamadan foydalanish taqiqlanadi. Musobaqalar reglamenti bunday emblemalarning o'lchami va sonini cheklashi mumkin.

Yaroqsiz to'pni almashtirish

Agar to'p o'yin vaqtida yaroqsiz holga kelib qolsa:

- o'yin to'xtatiladi va to'p yaroqsiz holga kelib qolgan joydan to'p tashlab berish bilan davom ettiriladi.

Agar to'p dastlabki zarba, darvoza maydonidan zarba, burchak zarbasi, jarima erkin zarbalarda, penaltida yoki to'pni yon chiziqdan o'yinga tashlashda yaroqsiz holga kelib qolsa, o'yin xuddi shu yusinda qayta davom ettiriladi.

Agar to'p penalti nuqtasidan (o'yin vaqtida) zarba berishda yoki

(o'yindan so'ng) zarbalar berishda oldinga harakatlanayotgan chog'da va o'yinchi, darvoza ustuni va to'siniga tegishdan avval yaroqsiz holatga kelib qolsa, penalti zarbasi takrorlanadi.

To'p uchrashuv davomida hakam ruxsatisiz almashtirilishi mumkin emas.

Qo'shimcha to'plar

Qo'shimcha to'plar 2-qoida talablariga javob berishi lozim va maydon atrofiga joylashtirilishi mumkin. Ulardan foydalanish hakamning nazoratida bo'ladi.

03-QOIDA

O'YINCHILAR

O'yinchilar soni

O'yin har birida maksimum 11 nafar o'yinchi bo'lgan, ikkita jamoa ishtirokida o'tkaziladi. Bunda o'yinchilardan biri darvozabon bo'ladi. Istalgan jamoa safida 7 nafardan kam o'yinchi bo'lsa, uchrashuv boshlanishi yoki davom ettirilishi mumkin emas.

Agar bir yoki bir necha o'yinchi maydonni atayin tark etgani bois jamoa tarkibida 7 nafardan kam o'yinchi qolgan bo'lsa, hakam o'yinni to'xtatishga majbur emas hamda ustunlik prinsipidan foydalanishi mumkin, ammo jamoa tarkibida kamida 7 nafar o'yinchi bo'lmasa, to'p maydonni tark etganidan keyin o'yin davom ettirilishi mumkin emas.

Agar musobaqalar reglamentida barcha o'yinchilar va zaxiradagilar dastlabki zarbaga qadar o'yin qaydnomasiga kiritilishi belgilangan bo'lsayu, jamoa bahsni 11 nafardan kam o'yinchi bilan boshlasa, faqat qaydnomaga kiritilgan o'yinchilar va zaxiradagilar stadiongga yetib kelganidan so'ng o'yinda ishtirok eta oladi.

O'zgarishlar soni

Rasmiy musobaqalar

Istalgan rasmiy musobaqalardagi o'yinda amalga oshiriladigan o'zgarishlar soni maksimum beshtagacha bo'lishi mumkin. Bu FIFA, konfederatsiyalar, milliy futbol assotsiatsiyalari tomonidan aniqlab olinadi. Maksimum uchta o'zgarish qilish mumkin bo'lgan oliy divizion klublarining 1-jamoalari yoki "A" toifadagi milliy terma jamoalar ishtirokidagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi musobaqalar bundan mustasno.

Musobaqalar reglamenti quyidagilarni belgilab quyishi kerak:

- qaydnomaga nechta zaxira o'yinchilari kiritilishi mumkinligi (3 nafardan 12 nafargacha);
- uchrashuv qo'shimcha vaqtga o'tganda (jamoalar o'zgarishlar limitidan foydalangan yoki foydalanmaganidan qat'i nazar) qo'shimcha bitta o'zgarishni amalga oshirish mumkinligi yoki mumkin emasligi.

Boshqa uchrashuvlar

"A" toifadagi milliy terma jamoalar ishtirokidagi uchrashuvlarda maksimum 12 nafargacha zaxira o'yinchisi qaydnomadan joy olishi va ulardan maksimum 6 nafaridan foydalanish mumkin.

Boshqa barcha uchrashuvlarda undan ko'prok o'zgarishni amalga oshirish mumkin, agar:

- jamoalar maksimal o'zgarish soni buyicha kelishuvga erishgan bo'lishsa;
- o'yindan oldin hakam bu haqda ogohlantirilgan bo'lsa.

Agar hakam bu haqda xabardor etilmagan bo'lsa yoki jamoalar uchrashuv boshlanishiga qadar kelishuvga erishmagan bo'lsalar, ikkala jamoa safida maksimum olti nafargadan o'zgartirishni amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Qayta almashtirish

Qayta almashtirishlar milliy futbol assotsiatsiyasi, konfederatsiya yoki

FIFA qarori asosida faqat yoshlar, faxriylar, imkoniyati cheklanganlar ishtirokidagi va ommaviy futbolda amalga oshirilishiga ijozat beriladi.

O'zgarishlarni amalga oshirish tartibi

Zaxiradagi o'yinchilarning ism-sharifi uchrashuv boshlanguniga qadar hakamga taqdim etilishi shart. Bu vaqtga qadar ism-sharifi hakamga taqdim etilmagan zaxiradagi har qanday o'yinchi uchrashuvda ishtirok eta olmaydi.

Asosiy tarkib o'yinchisining o'rniga zaxiradan o'yinchi maydonga to'shayotganda quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- har qanday o'zgarish oldidan hakam bu haqda xabardor etilishi kerak;
- zaxiraga olinayotgan o'yinchi:

• agar bungacha maydonni tark etmagan bo'lsa, hakamdan maydonni tark etish uchun ruxsat oladi va maydon chetini belgilovchi chiziqqa eng yaqin nuqtadan tark etishi kerak. Hakam o'yinchiga to'g'ridan-to'g'ri va darhol o'rta chiziqdan yoki boshqa nuqtadadan (masalan, xavfsizlik yoki jarohat sababli) maydonni tark etishini ko'rsatgan hollar bundan mustasno;+

• darhol texnik hudud yoki kiyim almashtirish xonasiga o'tishi kerak va u o'yinda boshqa ishtirok etmaydi. Qayta almashtirishlar ruxsat etilgan hollar bundan mustasno;

• agar o'zgartirilayotgan o'yinchi maydonni tark etishdan bosh tortsa, o'yin davom ettiriladi.

Zaxiradagi o'yinchi maydonga faqat quyidagi hollarda tushadi:

- o'yin to'xtagan paytda;
- maydonning markaziy chizig'idan;
- zaxiraga olinayotgan o'yinchi maydonni tark etganidan so'ng;
- hakamdan ijozat olganidan so'ng.

Zaxiradagi o'yinchi maydonga tushganidan so'ng almashtirish amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab almashtirilayotgan o'yinchi almashtirilgan, zaxiradan to'shayotgan o'yinchi esa asosiy tarkib o'yinchisiga aylanadi va bundan buyon uchrashuvda ishtirok eta oladi.

Barcha almashtirilgan va zaxiradagi o'yinchilar uchrashuvda ishtirok etish yoki etmasligidan qati nazar hakam nazorati ostida bo'ladi.

Darvozabonni almashtirish

Istalgan o'yinchi darvozabon bilan quyidagi shartlar bajarilganda o'rin almashishi mumkin:

- almashtirish xaqida hakam avvaldan xabardor qilinganda;
- o'zgarish o'yin to'xtagan paytda amalga oshiriladi.

Qoidabuzarlik va jazo

Agar qaydnomadan o'rin olgan zaxiradagi o'yinchi asosiy tarkibda qayd etilgan o'yinchining o'rniga uchrashuvni boshlagan va hakam bu haqda xabardor etilmagan bo'lsa:

• hakam qaydnomadan o'rin olgan zaxiradagi o'yinchiga uchrashuvni davom ettirishga ruxsat beradi;

• zaxirada qayd etilgan o'yinchiga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilmaydi;

- asosiy tarkib o'yinchisi zaxiradagi o'yinchiga aylanishi mumkin;
- o'zgarishlar soni kamaymaydi;
- hakam bu hodisa xaqida tegishli tashkilotga xabar beradi.

Agar o'zgarish tanaffus vaqtida yoki qo'shimcha vaqt boshlanishidan oldin amalga oshirilsa, jarayon o'yin davom ettirilgunga qadar tugatilishi lozim. Agar hakam bu haqda xabardor etilmagan bo'lsa, kaydnomadan o'rin olgan zaxiradagi o'yinchi uchrashuvni davom ettirishi mumkin, unga nisbatan intizomiy chora qo'llanilmaydi va bu hodisa xaqida tegishli tashkilotlarga xabar beriladi.

Agar o'yinchi darvozabon bilan ruxsatsiz o'rin almashib olsa, hakam:

- o'yinni davom ettiradi;
- to'p navbatdagi safar o'yindan chiqqanidan so'ng ikkala o'yinchini ogohlantiradi. O'zgarish tanaffus vaqtida (qo'shimcha vaqtlar orasidagi tanaffus ham inobatga olinadi), yoki asosiy vaqt tugashi hamda qo'shimcha

vaqt va/yoki penaltilar seriyasi boshlanishi oralig'ida amalga oshirilgan hollar bundan mustasno.

Ushbu qoidani boshqa har qanday ko'rinishda buzishda:

- o'yinchilar ogoxlantiriladi;
- o'yin to'xtatilgan paytda to'p kaerda bo'lsa, o'sha joydan erkin zarba bilan davom ettiriladi.

Asosiy tarkib va zaxiradagi o'yinchilarni chetlatish

Chetlatilgan o'yinchi:

- jamoa ro'yxati taqdim yetilguncha, uni har qanday holatda o'yin kaydnomasiga kiritib bo'lmaydi;
- o'yin qaydnomasiga kiritilganidan so'ng va birinchi zarba berilguniga qadar chetlatilsa, zaxiradagi o'yinchi bilan joy almashishi mumkin va zaxiradan o'yinga qo'shila olmaydi; jamoaning ruxsat etilgan o'zgarishlari soni kamaymaydi;
- birinchi zarbadan keyin chetlatilsa, uning o'rniga zaxiradan o'yinchi to'sha olmaydi.

Qaydnomadan joy olgan zaxiradagi o'yinchi birinchi zarbadan oldin yoki keyin chetlatilsa, uni almashtirish mumkin emas.

Maydondagi ortiqcha odamlar

Qaydnomaga kiritilgan murabbiy va boshqa rasmiy shaxslar (asosiy o'yinchilar va zaxiradagilardan tashqari) jamoaning rasmiy shaxslari hisoblanadi. Uchrashuv qaydnomasidagi o'yinchilar, zaxiradagi o'yinchilar yoki jamoaning rasmiy shaxslari sifatida kiritilmagan har qanday shaxs begona faktor hisoblanadi.

Agar jamoaning rasmiy shaxsi, zaxiradagi o'yinchi, zaxiraga olingan, chetlatilgan o'yinchi yoki begona faktor maydonda paydo bo'lishsa, hakam:

- o'yinga aralashilganda o'yinni to'xtatishi;
- o'yin to'xtagan paytda begonalarni maydondan chiqarib yuborishi;
- tegishli intizomiy choralarni qo'llashi kerak.

Agar o'yin to'xtatilsa va aralashuv jamoaning rasmiy shaxsi, zaxiradagi o'yinchi, zaxiraga olingan yoki chetlatilgan o'yinchi tomonidan sodir yetilsa, o'yin jarima zarbasi yoki penalti to'pi bilan davom ettiriladi.

- begona faktor o'yinga aralashsa, o'yin to'p tashlab berish bilan davom ettiriladi.

Agar to'p darvoza tomon harakatlanayotgan bo'lsa va o'yinga aralashuv himoyalananayotgan jamoaga to'pni o'ynashga xalal bermasa va to'p darvozaga kirsa (xatto to'p bilan kontakt bo'lsa ham) gol inobatga olinadi. O'yinga aralashuv hujum qilinayotgan jamoa tomonidan bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Maydon tashqarisidagi o'yinchi

Agar maydonga qaytishi uchun hakamning ruxsati kerak bo'lgan o'yinchi uning ruxsatisiz maydonga tushsa, hakam:

- o'yinni to'xtatishi kerak (agar o'yinchi o'yinga yoki rasmiy shaxslarning harakatiga aralashmasa yoki ustunlik prinsipi qo'llanilishi mumkin bo'lgan holatlarda, o'yin darhol to'xtatilishi shart emas);
- maydonga ruxsatsiz tushgani uchun o'yinchini ogoxlantirishi kerak.
- Hakam o'yinni to'xtatgan holda, u quyidagicha davom ettirilishi kerak:
- aralashuv yuz bergan joydan jarima zarbasi bilan;
- aralashuv yuz bermagan takdirda o'yin to'xtatilgan paytda to'p bo'lgan joydan erkin zarba bilan.

O'yinchi o'yindagi harakatlar natijasida chegaralangan chiziqni kesib o'tsa, qoidani buzgan deb hisoblanmaydi.

Maydonda begonalar borligida urilgan gol

Agar gol urilganidan so'ng o'yin davom ettirilguniga qadar hakam gol urilgan paytda maydonda ortiqcha shaxs bo'lganini bilib qolsa:

- hakam golni bekor qiladi, agar begonalar:
- gol urgan jamoaning o'yinchisi, zaxiradagi o'yinchisi, zaxiraga olingan o'yinchisi, chetlatilgan o'yinchisi yoki rasmiy shaxsi bo'lsa; o'yin ortiqcha

shaxs bo'lgan joydan jarima zarbasi bilan davom ettiriladi;

• begona faktor o'yinga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, o'yin to'p tashlab berish bilan davom ettiriladi. "Maydondagi begona faktorlar" bo'limida yozilgan vaziyatlarda urilgan gol bundan mustasno.

• hakam quyidagi holatda golni inobatga olishi kerak:

• o'zdarvozasiga to'p o'tkazib yuborgan jamoaning o'yinchisi, zaxiradagi o'yinchisi, zaxiraga olingan o'yinchisi, chetlatilgan o'yinchisi yoki rasmiy shaxsi bo'lsa;

• begona faktor o'yinga ta'sir ko'rsatmagan bo'lsa.

Har qanday holatda hakam begonalarni maydondan tashqariga chiqarishi shart.

Agar maydonda begonalar bor paytda gol urilgan bo'lsa va hakam buni o'yin davom ettirilganidan so'ng sezib qolsa, gol bekor qilinmaydi.

Agar begonalar hamon maydonda bo'lsa, hakam:

• o'yinni to'xtatishi;

• begonalarni maydondan chiqarib yuborishi;

• o'yinni mos ravishda to'p tashlab berish, jarima zarbasi yoki erkin zarba bilan davom ettirishi kerak.

Hakam bu hodisa xaqida tegishli tashkilotlarga xabar berishi kerak.

Jamoa sardori

Jamoa sardori hech qanday makom yoki imtiyozlarga ega emas, birok jamoasining o'zini tutishiga mas'ul hisoblanadi.

04-QOIDA

O'YINCHILAR EKIPIROVKASI

Xavfsizlik

O'yinchi xavf tug'diradigan ekipirovkadan foydalanmasligi va bunday kiyimlarni kiyimasligi kerak.

Har qanday qimmatbaxo buyumlar (taqinchoq, o'zuk, bilago'zuk, zirak, charm yoki rezina tasmalar va xokazo) taqiqlangan va ular yechilishi shart. Ularni yopish uchun tasmalardan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

O'yinchilar uchrashuv boshlanguniga qadar tekshirilishi kerak. Zaxiradagilar esa maydonga tushishdan oldin tekshiriladi. Agar o'yinchi ruxsat etilmagan xavfli ekipirovka yoki zargarlik buyumlaridan foydalansa, hakam o'yinchiga quyidagi ko'rsatmani berishi kerak:

• bu buyumni yechish;

• agar talabni bajara olmasa yoki bajarishni xoxlamasa, o'yindagi navbatdagi to'xtalish vaqtida maydonni tark etish.

Talabni bajarishga qarshi chiqqan yoki o'sha narsadan qayta foydalangan o'yinchi o'gohlantirilishi kerak.

Majburiy ekipirovka

O'yinchilar uchun majburiy ekipirovka quyidagi alohida predmetlardan iborat:

• yengi bor futbolka;

• shortik;

• getralar (uzun paypoq) - uning ustidan bog'lanadigan lenta yoki boshqa materiallar getra o'sha joyining rangi bilan bir xil bo'lishi shart;

• shirkalar (suyak qalqonchasi) - yetarli darajada himoyani ta'minlab beruvchi materialdan tayyorlangan bo'lishi va getralar bilan butunlay yopilishi kerak;

• poyabzal;

Darvozabonlar mashg'ulot shimlaridan foydalanishlari mumkin.

Poyabzalni yoki suyak qalqonchasini ko'tilmaganda yo'qotib qo'ygan o'yinchi ularni imkon qadar tezroq to'p maydonni keyingi tark etguniga qadar kiyishi kerak; agar bungacha o'yinchi to'p bilan o'ynasa va yoki gol ursa, gol hisobga olinadi.

Ranglar

- ikki jamoa bir-biridan va uchrashuvning rasmiy shaxslaridan farqlanib turadigan ranglardan foydalanishi kerak;

- har bir darvozabon boshqa o'yinchilardan va uchrashuvning rasmiy shaxslaridan farqlanib turadigan rangdagi kiyimni kiyishi kerak;

- agar ikkala darvozabon futbolda rangi bir xil bo'lsa va boshqa futbolka bo'lmasa, hakam o'yinni boshlashga ruxsat beradi.

Futbolda ichidan kiyiladigan maykalar quyidagicha bo'lishi kerak:

- futbolka yengining asosiy rangi bilan bir xil faqat bitta rangda yoki futbolka yengini aniq takrorlovchi rang naqshli.

Shortikning tagidan kiyiladigan kiyim triko shortikning asosiy rangi yoki quyi qismi rangi bilan bir xil bo'lishi kerak va bitta jamoa o'yinchilari bir xil rangdan foydalanishlari zarur.

Boshqa ekipirovka

Yumshoq yengil tikilgan materialdan tayyorlangan xavfsiz himoya ekipirovkalar masalan, bosh kiyim, niqob, tizza va tirsakni tutib turuvchilar, darvozabon kepkasi va sport ko'zoynaklari ham ruxsat etilgan.

Bosh kiyimlar

Agar bosh kiyimlardan foydalaqilsa (darvozabon kepkasi bundan mustasno), ular quyidagicha bo'lishi kerak:

- qora rangda yoki futbolda asosiy rangi bilan bir xil bo'lishi (bitta jamoa o'yinchilari bir xil rangdan foydalanishlari sharti bilan);

- o'yinchilar ekipirovkasi professional tashqi ko'rinishiga mos tushishi;

- futbolda biriktirilmagan bo'lishi;

- uni kiygan va boshqa o'yinchilarga hech qanday xavf tug'dirmasligi (masalan, bo'yin atrofida taqiladigan echiladigan mexanizmga ega bo'lmasligi);

- hech qanday bo'rtib chiqqan qismlari (chiqib turgan elementlar) bo'lmasligi.

Prinsiplar

- 4-qoida o'yinchilar, zaxiradagi o'yinchi yoki almashtirilgan o'yinchilar tomonidan kiyib yuriladigan barcha uskunalarga (kiyimga ham) qo'llaniladi va bu prinsiplar jamoaning texnik hududdagi barcha rasmiy shaxslariga ham tatbiq etiladi.

- Quyidagilarga (odatda) ruxsat beriladi:

- o'yinchining raqami, ismi-sharifi, jamoa gerbi logotipi, futbolga, hurmatga va o'yin yaxlitligiga undovchi shiorlar emblemalar, shuningdek musobaqa reglamenti yoki FIFA, konfederatsiyalar va milliy futbol assotsiatsiyalari qoidalari bilan ruxsat berilgan har qanday reklama;

- uchrashuv ma'lumotlari: o'ynayotgan jamoalar, sana, musobaqalar voqealar, o'tkazish joyi;

- Ruxsat berilgan shiorlar, bayonotlar yoki sur'atlar futbolda old tomonida va yoki yengdagi bog'ichda bo'lishi kerak;

- Ba'zi holatlarda shiorlar, bayonotlar yoki sur'atlar faqat sardorlik bog'ichida joylashishi mumkin.

Qoidabuzarlik va jazo

Ushbu qoidalar buzilgan har qanday holatda o'yinni to'xtatishning ehtiyoji yuq, o'yinchi esa:

- ekipirovkasini tartibga keltirish uchun hakam tomonidan maydondan chiqish ko'rsatmasini oladi;

- agar ekipirovka xali ham tartibga keltirilmagan bo'lsa, o'yin to'xtagan paytda maydonni tark etadi.

Ekipirovkasini tartibga keltirish yoki uni almashtirish uchun maydonni tark etgan o'yinchi:

- maydonga qaytish uchun ruxsat berilishidan oldin rasmiy shaxslardan biri tomonidan tekshiruvdan o'tishi;

- faqat bosh hakam ruxsati bilan (o'yin davom etayotganida ham) maydonga qaytishi mumkin.

Maydonga ruxsatsiz qaytgan o'yinchi ogohlantirilishi lozim. Agar o'yin qoidabuzarni jazolash uchun to'xtatilgan va ruxsatsiz qaytgan o'yinchi o'yinga aralashmagan holatda, o'yin to'xtatilgan paytda to'p qaerda bo'lgan bo'lsa, o'sha joydan erkin zarba belgilanadi. O'yinchi o'yinga aralashgan bo'lsa, o'sha joydan jarima to'pi (penalti) belgilanadi.

05-QOIDA HAKAM

Hakam vakolati.

Har qanday match hamma vakolatga ega bulgan hakam tomonidan nazorat qilinadi va o'yin qoidasiga rioya qilinishini ta'minlaydi.

Hakamning huquqi va majburiyatlari.

Hakam:

- O'yin Qoidasiga rioya qilinishini ta'minlaydi.
- Matchning borishini o'z yordamchilari bilan nazorat qiladi.
- Foydalaniladigan har kanday to'pni 2 Qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi.
 - O'yinchilar kiyimi 4 Qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi.
 - O'yin xronometrajini va matchni yozib boradi.
 - U o'z ixtiyoriga ko'ra o'yinni to'xtatishi vaqtinchalik to'xtatishi yoki har qanday qoida buzilishida o'yinni umuman to'xtatib qo'yishi mumkin.
 - To'xtatishi, vaqtinchalik to'xtatishi yoki har qanday chetdan bo'lgan aralashuvga matchni umuman to'xtatib qo'yish mumkin.
 - Matchni to'xtatadi, agar uning fikricha o'yinchi jiddiy jarohat olgan va o'yinchini maydondan olib chiqilishini ta'minlaydi.
 - Agar uning fikricha o'yinchi unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan jarohat olgan bo'lsa to'p o'yindan chiqmaguncha o'yinni davom ettirishiga ruxsat berishi mumkin.
 - O'yinchidan qon oqayotgan bo'lsa, uning maydondan chiqishini ta'minlaydi. Hakam qon oqishining to'xtaganiga ishonch hosil qilib, signal berganidan so'ng o'yinchi maydonga qaytishi mumkin.

- Qachonki o'yinchi birdaniga bir nechta qoida buzilishiga yo'l qo'ysa, uni muhimroq (og'irroq) bo'lgan qoida buzilishi uchun jazolaydi.

- Ogohlantirishi yoki chiqarib yuborish bilan jazolanadigan qoida buzilishlariga yo'l qo'ygan o'yinchilarga nisbatan intizom choralari qabul qiladi. U bunday choralarni tez qabul qilishga majbur emas, lekin to'p o'yindan chiqqan zahotiy oq qabul qilishi kerak.

- O'zlarini tarbiyali, madaniyatli tutmagan jamoa rasmiy kishilarga nisbatan chora qabul qiladi va o'z ixtiyoriga ko'ra maydondan (texnik zonadan) chiqarib yuborishi mumkin.

- Hakam o'zi qo'rmay qolgan holatlar bo'yicha o'z yordamchilari tavsiyasiga asoslanib harakat qiladi.

- Begona shaxslar maydonda bo'lmasliklarini ta'minlaydi.
- Match vaqtinchalik to'xtatilgandan keyin uni yangilaydi.
- Match davomida o'yinchilarga yoki jamoaning rasmiy shaxslariga nisbatan qo'llanilgan intizom choralari va har xil matchdan oldin, match davomida yoki matchdan so'ng yuz bergan holatlar bo'yicha tegishli tashkilotga bildirishnoma beradi.

Hakam qarori.

O'yinga bog'liq voqealar bo'yicha hakam qarori qat'iy hisoblanadi. Hakam o'z qarorini faqat shunday holatlarda o'zgartirishi mumkin, agar u qarorini xato ekanligini yoki yordamchilari tavsiyasi bilan tushunib yetsa, lekin shu shart bilanki u hali o'yinni yangilamagan bo'lsa

Xalqaro yig'in qarori.

Hakam (yoki sharoitga qarab yordamchi yoki zahiradagi hakam) fuqorolik javobgarligiga tortilmaydi:

- Har qanday o'yinchi rasmiy shaxs yoki tomoshabin tomonidan olingan jarohat (uchun).
- Har qanday mulkka yetkazilgan zarar uchun.

- Matchni tashkil qilish, o'tkazish va boshqarishda zarur bo'lgan yoki o'yin qoidasi talablariga mos qabul qilingan qarorlar oqibatida yuzaga yoki yuz bergan har qanday klub, kompaniya, uyushma yoki tashkilotga etkazilgan har qanday zarar uchun.

Bularga kirishi mumkin:

- Maydon holatiga ko'ra yoki ob havo sharoitiga ko'ra matchni o'tkazishga ijozat bersa bo'ladimi, yo'qmi.

- Biron bir sababga ko'ra matchni to'xtatish to'g'risidagi qaror.

- Match davomida foydalaniladigan uskuna yoki jihozlar holati to'g'risida qaror, darvoza ustuni, to'sini, burchak bayroqlari va to'pni qo'shgan holda.

- Tomoshabinlar aralashuvi sababli yoki tomoshabinlar uchun ajratilgan zonada yuz bergan muammolar uchun matchni to'xtatish yoki to'xtatmaslik to'g'risidagi qaror.

- Jarohat olgan o'yinchi tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun maydondan chiqishiga ruxsat berish uchun o'yinni to'xtatish yoki to'xtatmaslik to'g'risida qaror.

- Jarohat olgan o'yinchidan unga tibbiy yordam ko'rsatish uchun maydondan chiqishini so'rash yoki talab qilish to'g'risidagi qaror.

- O'yinchiga ayrim kiyim yoki epikirovka predmetlarini taqib yurishga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik to'g'risidagi qaror.

- Har qanday shaxslarga (jamoaning yoki o'yingoh rasmiy kishilari, xavfsizlik xizmati vakillari, suratchi yoki boshqa ommaviy axborot vakillarini qo'shgan holda) to'g'ridan to'g'ri maydon yaqinida bo'lishlariga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik (uning majburiyatlari doirasida bo'lsa) to'g'risida qaror.

- O'yin qoidasiga mos keluvchi yoki FIFA reglamenti yoki qoida shartlariga ko'ra uning vazifasiga kiruvchi boshqa har qanday qaror. Zahiradagi hakam tayinlanadigan musobaqa yoki turnirlarda, uning roli va majburiyati, Xalqaro yig'in tomonidan tasdiqlangan ko'rsatmaga mos kelishi kerak.

Hakam yordamchilari.

Majburiyati.

Ikkiita hakam yordamchisi tayinlanadi va ularning vazifasiga (hakam qaroriga bog'liq) signal berish kiradi:?

- Qachonki to'p maydon chizig'idan tashqariga to'liq chiqsa.

- Qaysi jamoa burchak to'pi, darvozadan zarba yoki to'p tashlash huquqiga ega.

- Qachon o'yinchi o'yindan tashqari holatda bo'lganligi uchun jazolanadi.

- Qachonki o'yinchi almashtirish to'g'risida iltimos bo'lsa.

- Hakam ko'rish maydonidan tashqarisida yuz bergan intizomsiz xulq yoki boshqa har qanday holatlar bo'yicha.

- Qachonki qoida buzilishi sodir etilganda bosh hakamdan ko'ra shu joyga hakam yordamchilari yaqin bo'lgan holatlarda (qisman jarima maydonida yuz bergan qoida buzilishlari ham kiradi).

- Shunday hollarda ya'ni qachonki 11m jarima to'pi bajarilayotganda darvozabon to'pga zarba berilishidan oldin joyidan oldinga siljisa, to'p esa chiziqni kesib o'tsa.

Video yordamchi hakam (Video assistant referee - VAR)

Uchrashuv musobaqa tashkilotchisi FIFA ning IFAB hujjatlarida belgilangan yordam va tasdiqlash dasturining(Implementation Assistance and Approval Programme - TAR) barcha talablarini bajargan hamda FIFA dan yozma ruxsat olgan taqdirda video yordamchi hakamdan foydalanishga ruxsat etiladi.

Video yordamchi hakam faqat "Yaqqol va ochiq-oydin xato" yoki "jiddiy ko'ngilsiz hodisani nazardan qochirish" holatlarida hakamga yordam berishi mumkin.

Jumladan:

- Gol / gol emas;

- penalti / penalti emas;

- to'g'ridan-to'g'ri qizil kartochka (ikkinchi o'gohlantirish emas);
- o'yin qoidasini buzgan jamoa o'yinchisini o'gohlantirish yoki chetlatish paytida qoidabuzarni aniqlashda xatoga yo'l qo'yilsa.

Video yordamchi hakam vaziyatning videotakroridan foydalanib, hakamga yordam beradi. Hakam faqat VAR ma'lumoti va/yoki videotakrorini mustakil tomosha qilib ("maydondagi videoko'rik"), o'z fikriga asoslangan holda yakuniy qarorni qabul qiladi.

"Jiddiy hodisani o'tkazib yuborish" dan boshqa qarorlar (shu jumladan mumkin bo'lgan qoidabuzarlik uchun jazolamaslik to'g'risidagi qaror) har doim hakam tomonidan (va agar kerak bo'lsa, boshqa o'yin rasmiy shaxslari) qabul qilinishi kerak; agar bu "aniq va ochiq xato" bo'lmasa, ushbu qaror o'zgartirilmaydi.

O'yin davom ettirilganidan keyin videoko'rik

Agar o'yin to'xtatilib, qayta davom ettirilgan bo'lsa ham, hakam faqat o'yin qoidasini buzgan o'yinchiga nisbatan intizomiy chorani qo'llashda jamoaning qoidabuzar o'yinchisini aniqlashda xatoga yo'l qo'ysa, yoki tajovo'zkor xulq tupurish, tishlash va xaddan ortiq xaqoratli, xafa qiladigan va/yoki odobsiz xatti-harakat kabi chetlatishga sabab bo'ladigan qoidabuzarlikni aniqlash uchun "videotakror"ga murojaat qilishi mumkin.

Hakamning epikirovkasi

Majburiy ekipirovka

Hakamlar quyidagi ekipirovkaga ega bo'lishlari shart:

- hushtak (hushtaklar);
- soat (soatlar);
- qizil va sariq kartochkalar;
- bloknot (yoki uchrashuvdagi voqealarni kayd etib borish uchun boshqa vositalar).

06.QOIDA

Uchrashuvning boshqa rasmiy shaxslari

Uchrashuvning boshqa rasmiy shaxslari (ikki yordamchi hakam, zaxiradagi hakam, ikki qo'shimcha yordamchi hakam, zaxiradagi yordamchi hakam, video yordamchi hakam va video yordamchi hakamning kamida bir nafar assistenti) o'yinga tayinlanishi mumkin. Ular hakamga uchrashuvni o'yin qoidalariga muvofiq boshqarishda yordam berishadi, ammo yakuniy qarorni doim hakam qabul qiladi.

- Hakam, yordamchi hakamlar, zaxiradagi hakam, qo'shimcha yordamchi hakamlar va zaxiradagi yordamchi
- Hakam uchrashuvning "maydondagi" rasmiy shaxslari hisoblanadi.
- Video yordamchi hakam (VAR) va video yordamchi hakam assistant (AVAR) uchrashuvning "video" rasmiy shaxslari hisoblanadi. Ular IFAB tomonidan tasdiqlangan VAR bayonnomasi va o'yin qoidalariga muvofiq ravishda hakamga yordam berishadi.

- Uchrashuvning rasmiy shaxslari hakamning ko'rsatmasi buyicha harakat qilishadi. Xaddan tashqari noo'rin aralashishganda yoki o'zini nomunosib tutishganda hakam ularni bajarib turgan vazifasidan chetlatadi va bu haqda tegishli tashkilotlarga xabar beradi.

- Uchrashuvning "maydondagi" rasmiy shaxslari (zaxiradagi yordamchi hakamdan tashqari) sodir bo'lgan qoidabuzarlikni hakamga nisbatan aniqroq ko'rsalar, qaror qabul qilishda hakamga yordam beradilar. Shuningdek ular sodir bo'lgan, ammo hakam va uchrashuvning boshqa rasmiy shaxslarining e'tiboridan chetda qolgan intizomsizlik yoki boshqa ko'ngilsiz hodisalar yuzasidan tegishli tashkilotlarga xabar berishlari kerak. Bu haqda bildirgi tuzishda ular hakam va uchrashuvning boshqa rasmiy shaxslari bilan holat yuzasidan maslaxatlashishadi.

- Uchrashuvning "maydondagi" rasmiy shaxslari o'yindan oldin maydonni, to'plarni va o'yinchilarning ekipirovkasini tekshirishda (muammolar aniqlansa, ularni xal qilishda), o'yinning vaqti, gollar, yuzaga

keladigan intizomsizlik va boshqa voqealarni yozib borishda hakamga yordam berishadi.

- Musobaqalar reglamentida uchrashuvni boshqara olmaydigan, davom ettira olmaydigan rasmiy shaxslarning o'rnini kim egallashi va bu bilan bog'liq har qanday o'zgarishlar aniq yozib quyilgan bo'lishi kerak. Jumladan, o'yinni davom ettira olmaydigan hakamning o'rnini kaysi hakam, ya'ni zaxiradagi hakam, birinchi yordamchi hakam yoki birinchi qo'shimcha hakam egallashi aniq belgilab quyilgan bo'lishi kerak.

Yordam.

Yordamchilar hakamga matchni o'yin qoidasiga mos o'tkazilishiga yordam beradilar. Yordamchilar 9,15m masofasiga rioya qilishiga yordam berish uchun maydon doirasiga kirish mumkin.

Hakam o'z yordamchisini asoslanmagan aralashuv yoki qo'pol muomala holatlarida vazifasidan ozod qiladi va tegishli tashkilotga bildirishnoma beradi.

07-QOIDA

UCHRASHUVNING DAVOMIYLIGI

O'yin vaqti.

O'yin 45 minutdan 2 taym davom etadi. (agar hakam va ikki jamoa vakillari boshqa variantni kelishmagan bo'lsa) Har qanday o'yin vaqtini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuvga (masalan yorug'likning yetishmasligi sababli har qaysi taymning 40 minutgacha qisqartirilishi) o'yin boshlangunga qadar erishilgan bo'lishi kerak va bu holat musobaqa talablariga javob berishi kerak.

Taymlar oralig'idagi tanaffus.

O'yinchilar 2 taym oralig'ida tanaffus olishlariga haqlari bor. Taym oralig'idagi tanaffus 15 minutdan oshmasligi kerak. Musobaqa tartibida

taymlar oralig'idagi tanaffus vaqti ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Taymlar orasidagi tanaffusning davomiyligi faqat hakamning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

Qo'shib berilgan vaqt.

Quyidagi holatlarga ketgan vaqt ikki taymning har qaysisiga qo'shib beriladi.

- O'yinchilarni almashtirishga.
- O'yinchining jarohatini jiddiyligini aniqlashga.
- Jarohatlangan o'yinchilarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun ularni maydon tashqarisiga olib chiqishga.
- Qasddan o'yin vaqtini cho'zish.
- Boshqa har qanday holatlarda.
- Qo'shib berilgan vaqtning davomiyligini faqat hakam aniqlaydi.

Yo'qotilgan vaqtni hisobga olish

Har bir bo'lim so'ngida hakam quyidagi vaziyatlarda yo'qotilgan vaqt o'rnini koplash uchun qo'shimcha vaqt belgilaydi:

- o'yinchi almashtirish;
- jarohat olgan o'yinchini ko'rikdan o'tkazish yoki uni maydondan olib chiqib ketish;
- uchrashuv vaqtining cho'zilishi;
- intizomiy choralar;
- reglamentda ko'zda tutilgan tibbiy maqsadlar asosida yuzaga kelgan to'xtalishlar, masalan, "ichimlik ichish uchun tanaffus" (bir daqiqadan oshmasligi kerak) va "salqinlanish uchun tanaffus" (bir yarim daqiqadan - uch daqiqagacha);
- VAR vaziyatlarni "tekshirish" va "qayta ko'rish" bilan bog'liq to'xtalishlar;
- o'yin davom ettirilishini sezilarli ortga suruvchi har qanday boshqa sabablar (masalan, golni nishonlash).

Zaxiradagi hakam har bir bo'lim so'nggi daqiqasining oxirida hakam tomonidan qo'shib berilgan eng kam vaqt miqdorini ko'rsatadi. Qo'shilgan vaqtni hakam oshirishi mumkin, ammo kamaytirishi mumkin emas.

Hakam birinchi bo'lim vaqtini belgilashda yo'l qo'ygan xatoni ikkinchi bo'limning davomiyligini o'zgartirish evaziga to'g'rilashi mumkin emas.

11- Metrlik to'p.

Har qaysi ikki taymning asosiy vaqtning oxirgi daqiqasida yoki qo'shib berilgan vaqtning oxirgi daqiqasida belgilangan 11 metrlik jarima to'pi uchun alohida vaqt ajratiladi.

Ohirigacha o'ynalmagan match.

Agar musobaqa nizomida boshqacha holatlar bo'lmasa oxirigacha o'ynalmagan match qayta o'ynaladi.

O'yin boshlanishi va yangilanishi.

Dastlabki shartlar.

Match boshlanishidan oldin qur'a tashlash o'tkaziladi va jamoalardan biri darvozani tanlash huquqini oladi.

Qarshi jamoa matchda boshlang'ich zarbani bajaradi.

Qur'a tashlash tufayli darvozani tanlagan jamoa, ikkinchi taymda boshlang'ich zarbani bajaradi.

Matchni ikkinchi taymda jamoalar darvoza almashadilar.

Boshlang'ich zarba.

Boshlang'ich zarba bu o'yinni boshlash yoki o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan usuldir.

1. Match boshida.
2. Urilgan goldan so'ng.
3. Ikkinchi taym boshida.

Boshlang'ich zarbani bajarish holatlari.

1. Hamma o'yinchilar o'z maydonida bo'lishlari kerak.

2. Boshlang'ich zarbani bajarish huquqini qo'lga kirita olmagan jamoa

o'yinchilari to'p o'yinga kiritilmaguncha to'pdan 9,15m masofa uzoqlikda turishlari kerak.

3. To'p harakatsiz holatda maydon markazida turadi.

4. Hakam signal beradi.

5. To'pga zarba berilib to'p oldinga xarakatlangandan so'ng to'p o'yinda hisoblanadi.

6. Boshlang'ich zarbani bajargan o'yinchi to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha ikkinchi marta tegishga haqqi yo'q.

Jamoalardan biri gol urgandan so'ng boshlang'ich zarba boshqa jamoa o'yinchisi tomonidan bajariladi.

Qoida buzilishi va jazo.

Agar boshlang'ich zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa bir o'yinchi tegmasidan oldin ikkinchi marta tegsa.

1. Qoida buzilgan joydan raqib jamoa o'yinchisiga erkin to'p tepish huquqi beriladi.

Har qanday boshlang'ich zarba bajarish tartibi buzilganda:

* boshlang'ich zarba qaytariladi.

Bahsli to'p.

«Bahsli to'p»-- bu to'p o'yinda bo'lgan vaqtda o'yin qoidasida ko'zda tutilmagan holat buyicha vaqtinchalik tuxtatilgandan sung o'yinni yangilash usulidir.

Bahsli to'pni bajarish holati.

Hakam o'yinni to'xtatganda to'p qayerda bo'lsa o'sha joydan to'pni tashlab beradi. To'p yerga tegishi bilan o'yin davom ettiriladi.

Qoida buzilishi va jazo.

Bahsli to'p qayta o'ynaladi:

- Agar o'yinchi to'p yerga tegmasidan oldin tegsa.

- Agar to'p yerga tekkandan so'ng maydon tashqarisiga chiqib ketsa va bunda hech qaysi o'yinchi to'pga tegmagan bo'lsa.

Muhim holatlar.

Ximoyalanuvchi jamoa foydasiga uning darvoza maydoni chegarasida erkin yoki jarima to'pi belgilansa darvoza maydonining har qanday nuqtasidan bajariladi.

Xujum qiluvchi jamoa foydasiga belgilangan raqib jamoa darvoza maydoni chegarasidagi erkin to'p darvoza maydoni chizig'idan qoida buzilgan joyga yaqin nuqtada bajariladi.

Darvoza maydoni ichida vaqtinchalik to'xtatishdan so'ng o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan "bahsli to'p", darvoza chizig'iga parallel holatda darvoza maydoni chizig'ida o'yin to'xtatilgan vaqtda to'p qayerda bo'lgan bo'lsa shu joy yaqinidagi nuqtadan o'ynaladi.

08-QOIDA

O'YINNING BOSHLANISHI VA DAVOM ETTIRILISHI

Har bir bo'lim, qo'shimcha vaqtlarning ikkala yarmi va gol urilganidan so'ng o'yinning qayta boshlanishida birinchi zarba beriladi. Har bir goldan keyin esa birinchi zarba bilan o'yin qayta davom ettiriladi. Jarima erkin zarbalari, penalti zarbasi, to'pni yon chiziqdan tashlash, darvoza maydonidan zarba, burchak zarbasi o'yinni qayta davom ettirish uslublari hisoblanadi. Hakam tomonidan to'xtatilgan o'yinni qoidalarning yuqorida ko'rsatilgan uslublari bilan qayta davom ettirish ko'zda tutilmagan holatlarda, o'yin "to'pni tashlash" uslubi bilan davom ettiriladi.

Qoidabuzarlik to'p o'yinda bo'lmaganda yuz bersa, o'yinni davom ettirish uslubi o'zgarmaydi.

Birinchi zarba

Tartibi

- qur'ada g'olib chiqqan jamoa birinchi bo'limda qaysi darvozaga hujum

qilish yoki birinchi zarba berishni tanlaydi.

- yuqoridagi qayd etilgandan kelib chiqib, raqib jamoa birinchi zarbani beradi yoki birinchi bo'limda qaysi darvozaga hujum qilishni tanlaydi.

- birinchi bo'limda qaysi darvozaga hujum qilishni tanlagan jamoa, ikkinchi bo'limda birinchi zarbani beradi.

- ikkinchi bo'limda jamoalar maydon tomonlarini almashishadi va qarama-qarshi darvozaga hujum uyushtirishadi.

- gol urilganidan keyin birinchi zarbani raqib jamoa beradi.

- Har bir birinchi zarba paytida:

- zarba berayotgan futbolchidan boshqa barcha o'yinchilar maydonning o'z tomonida bo'lishi shart.

- birinchi zarbani amalga oshirayotgan jamoaning raqiblari to'p o'yinga kiritilgunga qadar to'pdan kamida 9,15 metr (10 yard) masofada joylashishlari kerak.

- to'p markaziy nuqtada qimirlamasdan turishi kerak.

- hakam ishora beradi.

- oyok bilan zarba berilganidan keyin to'p sezilarli harakatlanganida o'yinda hisoblanadi.

- bevosita birinchi zarbadan Raqib darvozasiga gol urishi mumkin; agar to'p birinchi zarbani bergan jamoa darvozasidan to'g'ridan-to'g'ri o'rin olsa, burchak zarbasi belgilanadi.

Qoidabuzarlik va jazo

Agar o'yinchi birinchi zarbani berganidan so'ng boshqa o'yinchi to'pga tekklunga qadar uning o'zi to'pga yana bir marta tegsa, erkin zarba belgilanadi, yold to'pga qo'li bilan tegsa, jarima zarbasi belgilanadi.

"Tashlab beriladigan" to'p

Tartibi

To'p himoyalanayotgan jamoaning darvozaboniga, ya'ni uning jarima maydoniga agar o'yin to'xtatilgan vaqtda:

to'p jarima maydoni ichida bo'lsa;

to'pga so'nggi teginish jarima maydoni ichida ro'y bergan bo'lsa tashlab beriladi.

Boshqa barcha holatlarda to'p o'yinchi, begona faktor yoki qoidalarining 9.1-bandida belgilanganidek uchrashuvning rasmiy shaxsiga so'nggi bor tekkan joyda to'pga so'nggi marta teginan jamoa a'zolaridan biriga hakam tomonidan tashlab beriladi.

Har ikkala jamoaning qolgan barcha o'yinchilari to'p o'yinga kirgunga qadar kamida 4 metr (4,5 yard) masofada joylashishlari kerak.

To'p yerga tushishi bilan u o'yinda hisoblanadi.

Qoidabuzarlik va jazo "Tashlab beriladigan" to'p qaytadigan o'yinga kiritiladi, agar:

- To'p yerga tushmasidan avval o'yinchi unga tegsa;
- to'p yerga tushganidan keyin xali birorta o'yinchi unga teginmasidan oldin maydonni tark etsa.
- "Tashlab beriladigan" to'p kamida ikkita o'yinchiga tegmasdan oldin darvozadan o'rin olsa, o'yin quyidagicha davom ettiriladi:
 - agar to'p raqib darvozasidan o'rin olgan bo'lsa, darvoza maydonidan zarba bilan;
 - agar to'p o'z darvozasidan o'rin olgan bo'lsa, burchak zarbasi bilan.

09.QOIDA

TO'P O'YINDA VA O'YINDA EMAS

To'p o'yinda emas

- To'p o'yinda emas, kachonki:
- u darvoza chizig'i yoki yon chiziqni yer yoki xavo buylab to'liq kesib o'tsa;
- o'yin hakam tomonidan to'xtatilsa;

- u uchrashuv rasmiy shaxsiga tegib, maydonda qolsa va:
- jamoa istikbolli hujumni boshlasa, yoki
- to'p bevosita darvozaga kirsa, yoki
- to'pga egalik qilish boshqa jamoaga o'tsa.

Barcha bu kabi vaziyatlarda o'yin "to'p tashlash" bilan davom ettiriladi.

To'p o'yinda

Qolgan barcha vaqtda, to'p uchrashuv rasmiy shaxsiga tegsa, darvoza ustuni, to'sini yoki burchak flagshtokiga urilib qaytsa va maydonda qolsa, to'p o'yinda hisoblanadi.

10.QOIDA

UCHRASHUV NATIJASINI ANIQLASH

Gol

To'p darvoza chizig'ini ustunlar orasi va to'sin ostidan to'liq kesib o'tsa, gol urgan jamoa bunga qadar o'yin qoidasini buzmagani bo'lsa, gol urilgan deb hisoblanadi.

Agar darvozabon to'pni qo'li bilan otib bevosita ranib jamoa darvozasiga kiritrsa, darvoza maydonidan zarba belgilanadi.

Agar to'p darvoza chizig'ini to'liq kesib o'tgunga qadar hakam golni hisoblab hushtak chalgan bo'lsa, o'yin "to'p tashlash" bilan davom ettiriladi.

G'olib jamoa

Ko'proq gol urgan jamoa, g'olib hisoblanadi. Agar ikkala jamoa gol urmasa yoki urgan gollari soni bir xil bo'lsa, uchrashuv durang bilan yakunlanadi.

Agar durang bilan tugagan yoki uy-mexmon tizimidagi uchrashuvlarning yakuniy natijasi durang bo'lganda, musobaqa reglamenti uchrashuvning g'olib jamoasini aniqlashni talab qilsa, buning uchun muxlis quyidagi tartibga ruxsat beriladi:


- mexmonda urilgan gollar qoidasi;
- har biri 15 daniqadan oshmagan ikkita teng bo'limdan iborat qo'shimcha vaqtlar;

- penaltilar seriyasi.

Yunorida ko'rsatilgan tartiblar kombinatsiyasi qo'llanilishi mumkin.

Penaltilar seriyasi

Agar boshqa vaziyat nazarda tutilmagan bo'lsa, uchrashuv yakunlanganidan so'ng penaltilar seriyasi bajariladi. Tegishli o'yin qoidalari qo'llaniladi.



Tartibi

Penaltilar seriyasi bajarilishidan avval

• Agar boshqa hech qanday sabablar bo'lmasa (masalan, maydonning holati, xavfsizlik va xokazo), kaysi darvozaga zarbalar tepilishini aniqlash uchun hakam kur'a o'tkazadi. O'yin koplamasi yoki darvoza yaroqsiz holatga kelsa yoxud xavfsizlik sabablariga ko'ra darvozani almashtirish mumkin.

• Hakam yana kur'a o'tkazadi va kur'ada yutgan jamoa birinchi yoki ikkinchi bo'lib zarba berishni tanlaydi.

• Uchrashuv yakunlangan paytda faqat maydonda bo'lgan o'yinchilar

yoki vaqtincha maydonda bo'lmagan o'yinchilar (jarohatlangan, ekiptirovkasini to'g'irilayotgan va xokazo) zarba berish huquqiga ega bo'ladi. O'yinni davom ettira olishga qodir bo'lmagan darvozabonni almashtirgan o'yinchi bundan mustasno.

• Har bir jamoa zarba berish huquqiga ega bo'lgan o'yinchilar kaysi tartibda zarbani amalga oshirishi uchun javob beradi. Zarbalar ketma-ketligi hakamga ma'lum qilinmaydi.

• Agar o'yin yakunlangan paytda hamda zarbalar berilishidan oldin yoki zarbalar vaqtida bir jamoaning o'yinchilari raqibga nisbatan ko'prok bo'lsa, o'yinchilar sonini tenglashtirish uchun jamoa o'z o'yinchilari sonini kamaytirishi shart. Zarba beruvchilar ro'yxatidan chiqarilgan har bir o'yinchining ismi va raqami hakamga yetkazilishi kerak. Ro'yxatdan chiqarilgan har qanday o'yinchi zarbalar berishda ishtirok eta olmaydi (quyidagilardan tashqari).

• Zarbalar beriladigan vaqtda yoki undan oldin darvozabon o'yinni davom ettira olishga qodir bo'lmasa, o'yinchilar sonini tenglashtirish uchun ro'yxatdan chiqarilgan o'yinchi bilan almashtirilishi yoki uning jamoasi ruxsat berilgan maksimal almashtiruvdan foydalanmagan bo'lsa, kaydnomaga kiritilgan zaxira o'yinchisi bilan almashtirilishi mumkin. Ammo almashgan/almashtirilgan darvozabon o'yin davomida ishtirok etmaydi va zarba bera olmaydi.

• Agar darvozabon zarbani bergan bo'lsa, u holda u bilan almashgan almashtirgan o'yinchi, keyingi zarbalar seriyasi boshlanmaguncha zarba bera olmaydi.

Penaltilar ijro etish vaqtida

• Faqat zarba berish huquqiga ega bo'lgan o'yinchilar va uchrashuvning rasmiy shaxslariga maydonda bo'lishlariga ruxsat beriladi;

• Zarba beruvchi o'yinchi va ikki darvozabondan tashqari, zarbani bajarish huquqiga ega bo'lgan barcha o'yinchilar, markazdagi aylana ichida turishlari kerak;

- Zarba berayotgan jamoa darvozaboni, maydonda — darvoza chizig'i va jarima maydonini chegaralovchi chiziq kesishgan joyning jarima maydoni tashqarisida turishi kerak;

- Zarba berish huquqiga ega bo'lgan har qanday o'yinchi darvozabon bilan joy almashishi mumkin;

- To'p harakatdan to'xtatganda, o'yindan chiqqanda yoki har qanday qoidabuzarlik sabab hakam o'yinni to'xtatganda, zarba yakunlangan hisoblanadi. O'yinchi to'pga takroran tega olmaydi;

- Hakam zarbalar hisobini olib boradi;

- Darvozabon qoidalarni buzsa va buning oqibatida zarba takrorlansa, darvozabon ogoxlantirilishi kerak;

- Agar zarba berish uchun hakam hushtagi chalingandan so'ng, zarba beruvchi o'yinchi qoidani buzgani uchun jazolansa, zarba berilgan deb hisoblanadi, zarba beruvchi o'yinchi esa ogoxlantiriladi;

Agar darvozabon va zarba beruvchi o'yinchi qoidalarni bir vaqtda buzishsa:

- agar to'p darvoza yonidan o'tib ketsa yoki darvozabon tomonidan qaytarilgan bo'lsa, zarba takrorlanadi, ikkala o'yinchi esa ogoxlantiriladi;

- agar gol urilsa, u bekor qilinadi, zarba yo'qotilgan deb hisoblanadi, zarba bergan o'yinchi esa ogoxlantiriladi.

Ikkala jamoa quyidagi shartlarga muvofiq beshtadan zarba beradilar

- Jamoalar navbatma-navbat zarba beradilar.

- Har bir zarbani boshqa o'yinchi beradi. Har qaysi o'yinchi takroriy zarba bergunga qadar bu xuquqqa ega bo'lgan barcha o'yinchilar o'z zarbasini bajarishi shart.

- Ikkala jamoa beshtadan zarba bergunga qadar, ulardan biri raqib jamoa barcha beshta zarbani berganda ham urilishi mumkin bo'lganidan ham ko'proq gol ursa, zarba berish to'xtatiladi.

- Agar ikkala jamoa beshtadan zarba berganidan so'ng hisob teng bo'lsa

va berilgan zarbalar soni bir xil bo'lsa, u holda jamoalardan biri boshqasiga nisbatan bitta gol ko'proq urmaguncha, zarbalar berilishi davom ettiriladi.

- Yuqorida ko'rsatilgan prinsip har qanday keyingi zarbalar seriyasi uchun amal qiladi, ammo jamoa zarba beruvchi o'yinchilarning tartibini o'zgartirishi mumkin.

- Maydonni tark etgan o'yinchi tufayli, penaltilar seriyasi kechiktirilishi kerak emas. Agar o'yinchi zarba berish vaqtigacha qaytmasa, o'yinchining zarbasi yo'qotiladi (urilmagan deb hisoblanadi).

Penaltilar seriyasi vaqtida almashtirishlar va chetlatishlar

- O'yinchi, zaxiradagi yoki almashtirilgan o'yinchi ogoxlantirilishi yoki chetlatilishi mumkin;

- Darvozabon chetlatilganda, zarba berish xuquqiga ega bo'lgan har qanday o'yinchi bilan almashtirilishi kerak;

- Darvozabon bo'lmagan har qanday o'yinchi o'yinni davom ettira olmasa, uni almashtirish mumkin emas.

- Agar jamoada yettita nafardan kamroq o'yinchi qolsa, hakam uchrashuvni to'xtatishi kerak emas.

11.QOIDA

O'yindan tashqari holat

O'yindan tashqari holat (o'yindan tashqari holat (offside))

O'yindan tashqari holatda bo'lish o'z-o'zidan qoidabuzarlik hisoblanmaydi.

O'yinchi o'yindan tashqari holatda bo'ladi, agar:

- uning boshi, tanasi yoki oyog'ining har qanday qismi raqib yarim maydonida bo'lsa (o'rta chiziq bundan mustasno) va uning boshi, tanasi yoki oyog'ining har qanday qismi raqibning oxirigidan oldin o'yinchisi va to'pga nisbatan raqib darvoza chizig'iga yaqin bo'lsa.

Barcha o'yinchilar, jumladan, darvozabonlarning qo'llari o'yindan tashqari holatni aniqlashda inobatga olinmaydi. "O'yindan tashqari" holatni aniqlashda qo'lning yuqori chegarasi qo'ltiq osti chegarasiga to'g'ri keladi.

Agar o'yinchi quyidagilar bilan bir chiziqda bo'lsa, o'yindan tashqari holat (offside)da hisoblanmaydi:

oxiridan oldingi raqib bilan yoki
oxirgi ikkita raqib bilan.

O'yindan tashqari holatda qoidabuzarlik

Agar o'yindan tashqari holatdagi o'yinchining jamoadoshi to'pga o'ynagan yoki to'pga tegingan vaqtda u o'yin vaziyatlariga aralashsagina buning uchun jazolanadi, xususan:

(* "o'yinga qo'shilish" yoki "to'p tegish" birinchi nuqtasi inobatga olinishi kerak) jamoadoshi o'zatma berganidan yoki to'pga tekkanidan so'ng, to'pga o'ynab yoki unga tegib o'yinga aralashsa yoki quyidagi holatlarda raqibga xalakit qilsa:

Raqibning ko'rish chizig'ini yaqqol yopib, raqibning to'pga o'ynashiga yoki o'ynash imkoniyatiga to'sqinlik qilsa, yoki;

Raqib bilan to'p uchun kurashga kirishsa, yoki yaqindagi to'pga yaqqol o'ynashga o'rinib, raqibning harakatiga xalal bersa, yoki;

Yaqqol harakat qilish orqali raqibning to'pga o'ynash imkoniyatiga ta'sir qilsa;

yoki to'pga o'ynab yoki raqibga xalakit qilib, ustunlikka ega bo'ladi.

Agar to'p:

darvoza ustuni, to'sini, uchrashuvning rasmiy shaxsi yoki raqibga tegib, yo'nalishini o'zgartirsa yoki urilib kaytsa;

darvozani goldan ko'tkarayotgan raqibning har qanday o'yinchisidan kaytgan bo'lsa.

O'yindan tashqari holatda turgan o'yinchi to'pga atayin o'ynagan raqibdan (darvozani goldan ko'tkarish uchun to'pga atayin o'ynalgan vaziyat

bundan mustasno) to'pni olsa, shu jumladan qasddan qo'l bilan o'ynasa ham ustunlikka ega bo'lgan deb hisoblanmaydi.

"Darvozani ko'tkarish" — o'yinchi darvozaga yoki darvozaning juda yaqiniga yo'naltirilgan to'pni qo'lidan boshqa (jarima maydoni ichidagi darvozabon bundan mustasno) tanasining har qanday qismi bilan qaytargan yoki to'xtatishga o'ringan harakat.

Quyidagi vaziyatlarda:

- o'yindan tashqari holatda turgan yoki undan chiqayotgan o'yinchi, raqibning yo'lida turgan bo'lsa va uning to'pga harakatlanishiga xalakit qilib, raqibning to'pga o'ynash imkoniyati yoki to'p uchun kurash olib borishiga ta'sir qilsa, bu o'yindan tashqari holat (offside) qoidabuzarligi hisoblanadi. Agar o'yinchi raqib yo'lida tursa va uning harakatlanishiga to'sqinlik qilsa (masalan, raqibni to'sib qo'ysa), u holda qoidabuzarlik 12-Qoidaga muvofiq jazolanishi kerak.

- o'yindan tashqari holatda turgan o'yinchi to'pga o'ynashni ko'zlab harakatlansa va u to'pga o'ynashdan yoki o'ynashga o'rinishdan yoxud raqib bilan to'p uchun kurashga kirishishdan oldin unga karshi qoidabuzarlik ishlatilsa, bunday holatda u ushbu qoidabuzarlik uchun o'yindan tashqari holat (offside)dan avval yuz bergan qoidabuzarlik uchun jazolanadi.

To'pga o'ynagan yoki o'ynashga harakat kilgan yoxud raqib bilan to'p uchun kurashga kirishgan o'yindan tashqari holatdagi o'yinchiga karshi qoidabuzarlik ishlatilsa, u holda bu o'yinchiga nisbatan ishlatilgan qoidabuzarlikgacha yuzaga kelgan o'yindan tashqari holat (offside) sifatida kayd etiladi.

Qoidabuzarlik mavjud emas

O'yinchi to'pni bevosita quyidagi holatdan qabul qilsa, o'yindan tashqari holat qoidabuzarligi yo'q hisoblanadi:

- darvoza maydonidan zarba berilganida;
- yon chiziqdan to'p tashlab berilganida;

- burchak zarbasi amalga oshirilganda.

Qoidabuzarlik va jazo

Agar o'yindan tashqari holat qoidabuzarligi sodir etilsa, bu holat o'yinchilarning o'z yarim maydonida ro'y bergan takdirida ham, hakam qoidabuzarlik yuz bergan joydan erkin zarba belgilaydi.

Hakam ruxsatisiz maydonni tark etgan himoyalanuvchi o'yinchi, o'yindan tashqari holatni aniqlash paytida darvoza chizig'ida yoki yon chiziqda joylashgan deb hisoblanadi, toki:

- o'yin to'xtatilmaguncha;
- himoyalanayotgan jamoa to'pni maydonning markaziy chizig'i tomon yo'naltirmaguncha;
- to'p jarima maydoni tashqarisiga chiqmaguncha.

Agar o'yinchi maydonni atayin tark etsa, u keyingi safar o'yin to'xtaganda ogoxlantirilishi kerak.

Hujum qilayotgan jamoa o'yinchisi o'yinga aralashmasdan maydondan chiqishi yoki maydondan tashqarida qolishi mumkin. Agar o'yinchi darvoza chizig'idan kaytgan bo'lsa va o'yin keyingi safar to'xtamaguncha yoki himoyalanayotgan jamoa to'pni maydonning markaziy chizig'i tomon tepib yubormaguncha va **bu holat ularning jarima maydoni tashqarisida sodir bo'lsa**, o'yinga aralashgan bo'lsa, o'yindan tashqari holatni aniqlash uchun o'yinchi darvoza chizig'ida joylashgan deb hisoblanadi. Maydondan atayin chiqib ketib hakam ruxsatisiz kaytib kirgan, o'yindan tashqari holat uchun jazolanmagan va ustunlikka ega bo'lgan o'yinchi ogoxlantirilishi kerak.

Agar hujum qilayotgan o'yinchi ustunlar orasidagi darvoza ichida qimirlamay tursa va to'p darvozadan o'rin olsa, gol hisobga olinishi kerak. Ushbu holatida o'yinchi " O'yindan tashqari holatda " qoidasini yoki 12-qoidani buzgan bo'lsa, bunday holatda o'yin erkin zarba yoki jarima zarbasi bilan qayta davom ettiriladi.

12.QOIDA

QOIDABUZARLIKLAR VA INTIZOMSIZLIK

Jarima zarbasi, erkin zarba va penalti faqatgina to'p o'yinda bo'lgan paytda sodir bo'lgan qoidabuzarlik uchun belgilanishi mumkin.

O'yinchi raqibga nisbatan quyidagi qoidabuzarliklardan istalgan birini sodir etsa va hakam uni extiyotsizlik kaltis harakat yoki xaddan ortiq kuch ishlatish sifatida baholasa, jarima zarbasi belgilanadi:

- hujum qilsa;
- sakrasa;
- oyok bilan tepsa yoki shunga o'rinsa;
- turtsa;
- nima bilandir (jumladan, bosh bilan ham) zarba berish yoki zarba berishga o'rinish;
- podkatni amalga oshirsa yoki tashlansa;
- oyog'idan chalsa yoki chalishga o'rinsa.

Agar qoidabuzarlik jismoniy kontakt orqali yuzaga kelsa, u jarima zarbasi yoki penalti bilan jazolanadi.

• Extiyotsizlik — yakkakurash paytida o'yinchi e'tiborsizlik yoki muljalni aniq olmaslik yoxud ko'r-ko'rona harakat qilishi. Unga intizomiy chora talab etilmaydi.

• Qaltis harakat — o'yinchi o'z harakatlarining xavfini yoki raqibga yetkazish mumkin bo'lgan oqibatni inobatga olmasligi. U ogoxlantirilishi kerak.

• Xaddan ortiq kuch ishlatish — agar o'yinchi kerakli kuchdan oshib ketsa va raqib xavfsizligiga tahdid solsa, u maydondan chetlatilishi shart.

O'yinchi quyidagi qoidabuzarliklardan birini sodir etsa, jarima zarbasi belgilanadi:

- to'pni qo'li bilan o'ynagani uchun qoidabuzarlik (darvozabonning jarima maydoni ichida to'pni qo'li bilan o'ynashi bundan mustasno);

- Raqibni ushlab qolsa;
 - jismoniy kontakt orqali raqibning harakatiga xalal bersa;
 - qaydnomaga kiritilganlar yoki o'yin rasmiy shaxslarni tishlasa yoki ularga tupursa;
 - to'p, raqib yoki uchrashuvning rasmiy shaxsiga biror buyum otsa; yoki ushlanadigan buyum yordamida to'p bilan kontaktga kirishsa.
- Shuningdek 3-qoidadagi qoidabuzarliklarga ham qarang.

To'pni qo'l bilan o'ynash

Qo'l bilan to'pni o'ynashda qoida buzilishni aniqlashda qo'lning yuqori chegarasi qo'ltingning pastki chegarasi bo'ylab o'tadigan chiziqqa e'tibor beriladi. To'pga teggan har bir qo'l qoidabuzarlik yemas.

O'yinchi quyidagi harakatlarni qilsa, bu qoidabuzarlik hisoblanadi:

- to'p tomon qo'l o'zatib, ataylab to'pni qo'li bilan o'ynasa;
- qo'li bilan to'pga tegishi uning tanasini g'ayritabiiy darajada kattalashtirganda. Agar o'yinchining qo'l holati ushbu vaziyatda o'yinchi tanasi harakatining natijasi bo'lmasa yoki uni oqlamasa, o'yinchi tanasining hajmini g'ayritabiiy ravishda oshirgan deb hisoblanadi.
- to'p qo'lga tekkanidan keyin o'yinchi to'pga egalik qilsa yoki uni o'z nazoratiga olsa hamda shundan so'ng:

raqib darvozasiga gol ursal;

gol urish imkoniyatini yuzaga keltirsa.

raqib darvozasiga bevosita qo'l yordamida gol ursal, xattoki bu tasodifan yuz bersal ham, (jumladan, bu darvozabonga ham tegishli).

Odatda bu holat qoidabuzarlik hisoblanadi, agar:

- to'p o'yinchining qo'lga quyidagi vaziyatda tegsa:
qo'llari yelkasidan balandda bo'lsa (o'yinchi ongli ravishda to'pni o'ynashga harakat qilishi natijasida to'pning qo'lga tegishi bundan mustasno).

To'p o'yinchining yaqinida turgan boshqa o'yinchining bevosita boshi yoki tanasi (oyog'i ham)dan qo'lga tegsa ham, yuqoridagi qoidabuzarliklar qo'llaniladi.

Yuqorida sanab o'tilgan qoidabuzarliklardan boshqa holatda to'p qo'lga tegsa, quyidagilar odatda qoidabuzarlik hisoblanmaydi:

- bevosita o'zining boshi yoki tanasidan (oyog'idan ham);
- yaqinda turgan boshqa o'yinchining bevosita boshi yoki tanasidan (oyog'idan ham);
- qo'l tanaga yaqin turgan bo'lsa va bu tanani notabiiy ravishda katta qilmagan bo'lsa;

o'yinchi yiqilayotganda qo'l tayanch sifatida tana va yer oralig'ida bo'lsa, ammo qo'llar yonga yoki tanadan yuqoriga ko'tarilmagan bo'lsa.

Darvozabon jarima maydonidan tashqarida to'pni qo'l bilan o'ynashda boshqa o'yinchilar kabi cheklovlarga ega. Darvozabonga o'z jarima maydoni ichida qo'l bilan o'ynash taqiqlangan hollarda to'pni qo'li bilan o'ynasa, erkin zarba belgilanadi, ammo intizomiy chora qo'llanilmaydi. Biroq, agar qoidabuzarlik o'yin davom yetgandan so'ng va to'p boshqa o'yinchiga tegmasdan oldin to'pni qayta o'ynash (qo'l bilan yoki qo'lsiz) bo'lsa, agar qoidabuzarlik istiqbolli hujumni yoki raqibni aniq gol urish imkoniyatidan mahrum qilsa, darvozabon intizomiy jazoga tortiladi.

Erkin zarba

O'yinchi quyidagi qoidabuzarlikni sodir etsa, erkin zarba belgilanadi:

- xavfli o'ynasa;
- Raqibning harakatiga jismoniy kontaktsiz xalal bersal;
- xaqoratli, xafa kiluvchi yoki axloqsiz so'zlar va/yoki imo-ishoralalar va boshqa og'zaki e'tirozlar bilan o'z noroziligini bildirsa;
- darvozabon to'pni qo'lidan chiqarmokchi bo'lganida o'yinchi bunga xalal bersal, to'pga zarba bersal yoki zarba berishga o'rinsa;
- to'pga qo'llari bilan tegishidan qat'iy nazar, qoidalarni chetlab o'tish uchun to'p darvozabonga (shu jumladan jarima/erkin zarba va gol zarbasi orqali) boshi, ko'kragi, tizzasal va boshqalar bilan o'zatilishi uchun qasddan qilingan hiyla-nayrang ishlatilsa, darvozabon. Darvozabon shunday vaziyatni yaratsal, jazolanadi;

Qoidalarda eslab o'tilmagan boshqa qoidabuzarlikni amalga oshirgan o'yinchini ogoxlantirish yoki chetlatish uchun o'yin to'xtatilgan bo'lsa.

Darvozabon o'z jarima maydoni ichida quyidagi qoidabuzarliklardan istalgan birini sodir etsa, erkin zarba belgilanadi:

-to'pni qo'lidan chiqargunga qadar olti soniyadan ortiq vaqt davomida uni qo'lida ushlab tursa;

-to'pni qo'lidan chiqarib, boshqa o'yinchi to'pga tegingunga qadar unga qo'li bilan qayta tegsa;

-quyidagi holatdan (darvozabon to'pni o'yinga kiritish maqsadida to'pga oyok bilan Yaqqol zarba bergan yoki oyok bilan zarba berishga o'ringan holat bundan mustasno) so'ng darvozabon qo'li bilan to'pga teginsa:

- jamoadoshi ataylab to'pni unga oyok bilan o'zatsa;

- jamoadoshi to'pni bevosita yon chiziqdan tashlab berganidan keyin to'pni olsa.

Quyidagi holatlarda darvozabon to'pni qo'l(lar)i bilan nazorat qilayotgan hisoblanadi:

- to'p qo'llar yoki qo'l va istalgan yuza (masalan: yer, shaxsiy tanasi) orasida bo'lsa; yoki darvozabon qo'lining istalgan qismi bilan to'pga tegib tursa.

To'p darvozabonga tegib, sakrab ketish yoki darvozabon darvozani ko'tkargan hollar bundan mustasno;

to'pni o'zatilgan ochiq kaftida ushlab tursa;

to'pni yerga urayotgan yoki xavoga otayotgan paytda.

Darvozabon to'pni qo'l(lar)i bilan nazorat qilayotganida, raqiblar tomonidan unga hujum qilinishi mumkin emas.

Xavfli o'yin

Xavfli o'yin — o'yinchi to'pga o'ynashga o'rinib, kimgadir (jumladan o'ziga ham) jarohat yetkazish xavfini yuzaga keltiradigan har qanday harakat hamda yaqinda turgan raqib o'yinchisining jarohat olishdan xavfsirashi

evaziga uning to'pga o'ynashiga xalaqit berishi.

Raqibga xavf tug'dirmagan holatdagina "kaychi" yoki "velosipedcha" uslubida zarba berishga ruxsat etiladi.

Kontaktsiz raqibning harakatiga xalaqit berish

Raqibning harakatlanishiga xalaqit berish shuni anglatadiki, to'p har ikki o'yinchidan o'ynay oladigan masofada bo'lmaganda raqib o'yinchisining yo'lini to'sish, uning harakatini cheklash va sekinlashtirish yoki raqib o'z yo'nalishini o'zgartirishga majbur bo'ladigan tarzda uning yo'lini to'sib chiqish.

Barcha o'yinchilar maydonda o'z joylarini egallash huquqiga ega. Raqib yo'lida turish — bu raqibning yo'lini to'sish uchun harakat emas.

O'yinchi, agar to'p o'yin masofasida joylashgan va raqibni qo'llari yoki tanasi bilan ushlamagan bo'lsa, raqib va to'p orasidagi joyni egallab, to'pni yopishi mumkin. Agar to'p o'yin masofasida bo'lsa, raqib ruxsat berilgan uslub bilan hujum qilishi mumkin.

Intizomiy choralar

Hakam uchrashuvdan oldingi tekshiruv uchun maydonga chiqqan paytdan boshlab, to uchrashuv yakunlanganidan keyin (penaltilar seriyasini ham qo'shgan holda) maydonni tark etgunga qadar intizomiy choralar qo'llash vakolatiga ega.

Uchrashuv boshlanishidan avval maydonga chiqkunga qadar o'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsi chetlatishga loyiq qoidabuzarlik sodir etsa, hakam o'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsiga uchrashuvda ishtirok etishiga ruxsat bermaslik huquqiga ega; hakam har qanday boshqa intizomsiz xulq-atvor xaqida tegishli tashkilotlarga xabar beradi;

O'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsi maydonda yoki uning tashqarisida ogoxlantirish yoki chetlatishga loyik qoidabuzarlik sodir etsa, qoidabuzarlikning xususiyatiga mos ravishda jazolanadi.

Sariq kartochka ogoxlantirishni, qizil kartochka chetlatishni bildiradi.

Qizil va sariq kartochkalar faqat o'yinchi, zaxiradagi va almashtirilgan o'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsiga ko'rsatilishi mumkin.

O'yinchilar, zaxiradagi va almashtirilgan o'yinchilar

Kartochka ko'rsatish uchun o'yinni to'xtatib turish

Agar hakam o'yinchi o'gohlantirish yoki chetlatishga qaror qilsa, jazo chorasi qo'llanilguncha o'yin davom ettirilishi mumkin emas. Qoidabuzarlikdan jabr chekkan jamoa jarima erkin zarbalarini tezda amalga oshirib, Yaqqol gol urish imkoniyatiga ega bo'lgan hamda hakam intizomiy chora qo'llash tartibini boshlamagan holat bundan mustasno. Jazo chorasi o'yinning navbatdagi to'xtalishida qo'llaniladi. Agar qoidabuzarlik raqibni Yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lsa, o'yinchi darhol o'gohlantirish bilan jazolanadi.

Ustunlik

Agar hakam qoidabuzarlik paytida ustunlik bersayu, ushbu qoidabuzarlik uchun o'yinni to'xtatgan holatda o'yinchi o'gohlantirish chetlatish nazarda tutilgan bo'lsa, bu o'gohlantirish chetlatish chorasi to'p navbatdagi safar o'yindan chiqqanida qo'llanilishi kerak. Yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilish holati bundan mustasno bo'lib, bunda o'yinchi sportchiga xos bo'lmagan xatti-harakati uchun o'gohlantiriladi. Agar qoidabuzarlik istiqbolli hujumga xalaqit bergan yoki uni buzgan bo'lsa, o'yinchiga o'gohlantirish berilmaydi.

Ustunlikni jiddiy qoidabuzarlik tajovo'zkorona xatti-harakat yoki ikkinchi o'gohlantirish bilan bog'liq holatlarda bermaslik kerak. Biroq yaqqol gol urish imkoniyati mavjud holatlar bundan mustasno. Hakam o'yinchi to'p navbatdagi safar o'yindan chiqqanida, chetlatishi kerak. Ammo o'yinchi to'pga o'ynasa, raqib bilan to'p uchun kurashsa kirishsa yoki raqibiga xalal bersa, hakam o'yinni to'xtatadi, o'yinchi chetlatadi va o'yinni erkin zarba bilan davom ettiradi. O'yinchi yanada jiddiyroq qoidabuzarlik sodir etgan holatlar bundan mustasno.

Agar himoyachi hujum qilayotgan o'yinchi jarima maydon tashqarisida ushlashni boshlagan va jarima maydoni ichida ham ushlashda davom etgan bo'lsa, hakam penalti belgilashi zarur.

O'gohlantirish bilan jazolanadigan qoidabuzarliklar

O'yinchi quyidagi qoidabuzarliklarni sodir etganlikda aybdor deb topilsa, u o'gohlantiriladi:

- O'yinning davom ettirilishini kechiktirsa;
- O'z noroziligini so'z yoki xatti-harakatlari bilan namoyish qilsa;
- Hakamning ruxsatisiz maydonga chiqsa, kaytsa yoki uni ataylab tark etsa;

- O'yin burchaq jarima / erkin zarbalari yoki to'pni yon chiziqdan tashlab berish bilan davom ettirilish paytida talab qilingan masofani saqlamas;

- sistematik qoidabuzarlik (qoidabuzarlikni sistematik deb hisoblash uchun aniq son yoki karakteristik mavjud emas);

- Sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvor;
- Hakamning video ko'rib chiqish maydoniga kirs;
- "videoko'rik" ("TV-monitor") ishorasini xaddan tashqari ko'p qilsa.

Zaxiradagi yoki almashtirilgan o'yinchi quyidagi qoidabuzarliklarni sodir etganlikda aybdor deb topilsa, u o'gohlantiriladi:

- O'yinning davom ettirilishini kechiktirsa;
- O'z noroziligini so'z yoki xatti-harakatlari bilan namoyish qilsa;
- Hakamning ruxsatisiz maydonga chiqsa, kaytsa;
- Sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvor;
- Hakamning video ko'rib chiqish maydoniga kirs;
- "videoko'rik" ("TV-monitor") ishorasini xaddan tashqari ko'p qilsa.

Agar ikkita alohida o'gohlantirish bilan jazolanadigan qoidabuzarlik sodir etilsa (xattoki ketma-ket bo'lsa ham), ular ikkita o'gohlantirish bilan jazolanishi kerak. Masalan, o'yinchi talab etilgan ruxsatsiz maydonga chiqsa va extiyotsizlik bilan podkat ishlatsa / jismoniy to'qnashuv yoki to'pni qo'li

bilan o'ynash orqali istikbolli hujumni buzsa va xokazo.

Sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvor uchun ogoxlantirish

O'yinchi sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvor uchun ogoxlantirilishi kerak bo'lgan turli holatlar mavjud, shu jumladan:

- Hakamni aldashga harakat qilsa, masalan, o'zini jarohat olgandek yoki o'ziga nisbatan qoidabuzarlik ishlatilgandek tutsa (simulyatsiya);

- O'yin mobaynida yoki hakamning ruxsatisiz darvozabon bilan o'rin almasha;

- Jarima zarbasi bilan jazolanadigan qoidabuzarlikni extiyotsizlik bilan sodir etsa;

- To'pni qo'l bilan o'ynash orqali istikbolli hujumga aralasha yoki uni uzib qo'ysa;

Istikbolli hujumga xalaqit berish yoki uni uzib quyish bilan bog'liq qoidabuzarlik sodir etsa. To'pni o'ynashga o'rinib, sodir etilgan qoidabuzarlik uchun hakam penalti belgilagan vaziyat bundan mustasno.

- To'pni o'ynashga o'rinib, raqibni yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilish bilan bog'liq qoidabuzarlikka yo'l qo'ysa va hakam shu holat uchun penalti belgilasa;

- Gol urish maqsadida to'pni qo'l bilan o'ynasa (gol bo'lgan yoki bo'lmaganidan kat'i nazar) yoki golning oldini olish uchun muvaffakiyatsiz harakat qilsa;

- Maydonda ruxsat etilmagan belgilar xosil qilsa;

- Hakamning ruxsati bilan maydonni tark etayotganida to'pni o'ynasa;

- O'yinga hurmatsizlik namoyish qilsa;

- Qoidalarni chetlab o'tish maqsadida darvozabonga to'pni bosh, ko'krak tizza va xokazolar bilan o'zatish (jarima/erkin zarbalarni bajarish vaqtida ham) uchun atayin tryukdan foydalansa; bunda darvozabon to'pni qo'li bilan ushlagani yoki ushlamagani ahamiyatga ega emas. Agar darvozabon hiyla ishlatishni boshlasa, ogohlantirish bilan jazolanadi.

- O'yin mobaynida yoki uni davom ettirish vaqtida so'zlari bilan raqibni g'azablantirsa.

Golni nishonlash

O'yinchilar golni nishonlashi mumkin, ammo nishonlash xaddan ortiq bo'lishi kerak emas; sahnalashtirilgan uslubda golni nishonlash rag'batlantirilmaydi va bu holat vaqtning cho'zilishiga olib kelishi kerak emas.

Golni nishonlash uchun maydondan chetga chiqish ogoxlantirish bilan jazolanmaydi, ammo o'yinchilar imkon qadar tezrok maydonga qaytishlari kerak.

O'yinchi ogoxlantirilishi kerak (xattoki gol bekor qilinsa ham), agar u:

- to'sikli panjaraga osilib chiqsa va/yoki, xavfsizlik va/yoki tartibni saqlash bilan bog'liq muammoni keltiruvchi uslub bilan tomoshabinlarga yaqinlashsa;

- provaqatsion, mazax yoki ig'vogarlik uslubida imo-ishora yoki xatti-harakat qilsa;

- boshini yoki yuzini nikob yoki shu kabi boshqa narsa bilan yopsa;

- futbolكاني yechsa yoki uni boshiga yopsa.

O'yin davom ettirilishining cho'zilishi

Hakamlar o'yinni davom ettirishni quyidagi uslublar bilan cho'zadigan o'yinchilarni ogoxlantirishi kerak:

- to'pni yon chiziqdan o'yinga tashlashga harakat qilib, keyin tusatdan uni jamoadoshiga qoldirsa;

- almashtirish paytida maydondan chiqib ketishni cho'zsa;

- o'yinni davom ettirishni xaddan ortiq cho'zsa;

- hakam o'yinni to'xtatganidan keyin to'pni o'zokrokka tepib yuborsa yoki olib ketsa yoxud to'pga ataylab teginib, adovatni qo'zg'asa;

- keyinchalik qayta amalga oshirishga majbur bo'lishini bilib, jarima erkin zarbalarini boshqa joydan amalga oshirsa.

Chetlatish bilan jazolanadigan qoidabuzarliklar

O'yinchi, zaxiradagi yoki almashtirilgan o'yinchi quyidagi qoidabuzarliklardan istalganini sodir etsa, maydondan chetlatiladi:

- to'pni qo'li bilan o'ynash orqali (o'z jarima maydoni ichidagi darvozabondan tashqari) raqibni goldan yoki yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilsa;

- umumiy harakati darvoza tomon yo'naltirilgan raqibga nisbatan jarima erkin zarba bilan jazolanadigan qoidabuzarlikni sodir etish orqali raqibni goldan yoki yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilsa (quyida berilgan izohni inobatga olgan holda);

- jiddiy qoidabuzarlik sodir etsa;
- kimnidir tishlasa yoki kimgadir tupursa;
- o'zini tajovo'zkorona tutsa;
- xaqoratli, xafa kiluvchi yoki axloqsiz so'zlar gapirsa yoki imo-
ishoralarni ko'rsatsa;

- bir o'yinda ikkinchi ogoxlantirishni olsa;
- video operatsion xona (VOR)ga kirsas.

O'yinchi, zaxiradagi yoki almashtirilgan o'yinchi maydondan chetlatilsa, yondosh hudud va texnik hududni tark etishi kerak.

Goldan yoki yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilish

O'yinchi to'pni qo'li bilan o'ynash qoidabuzarligi orqali raqibni goldan yoki yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilsa, bu kaerda sodir bo'lishidan kat'i nazar, maydondan chetlatiladi.

O'yinchi o'z jarima maydoni ichida raqibga nisbatan qoidani buzgani tufayli raqibni yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilsa va hakam penalti belgilasa, u to'pni o'ynashga harakat kilgan taqdiridagina qoidabuzarga ogoxlantirish beriladi. Qolgan barcha holatlarda (masalan, raqibni ushlab qolish, kuchoklab olish, turtish, to'pga o'ynash holati mavjud bo'lmasa va xokazo) qoidabuzar o'yinchi chetlatilishi shart.

O'yinchi, chetlatilgan, zaxiradagi yoki almashtirilgan o'yinchi hakamning ruxsatisiz maydonga chiqsa va o'yinga aralashsa yoki raqibga xalal bersa, shu bilan birgalikda, raqib jamoani goldan yoki yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilsa, qoidabuzar o'yinchi chetlatish bilan jazolanadigan qoidabuzarlikda aybdor deb topiladi.

Shu bilan birgalikda, quyidagilarni inobatga olish kerak:

- qoidabuzarlik sodir bo'lgan joydan darvozagacha bo'lgan masofa;
- hujumning asosiy yo'nalishi;
- to'pga egalik qilish, to'pni olib quyish yoki to'pni nazorat qilish imkoniyati;
- himoyachilarning joylashuvi va ularning soni.

Qoidalarning jiddiy buzilishi

Raqibning xavfsizligiga taxdid soluvchi podkat yoki hujum, xaddan ortiq kuch ishlatish yoki shafkatsizlik bilan sodir etgan o'yinchi qoidalarning jiddiy buzilishi sifatida jazolanishi kerak.

To'p uchun kurashayotgan har qanday o'yinchi raqibga oldidan, yon tomondan yoki orqadan bir yoki ikki oyokni ishlatib katta kuch bilan tashlansa yoki raqibning xavfsizligiga taxdid solsa, qoidalarni jiddiy tarzda buzishda aybdor sanaladi.

Tajovo'zkorona xatti-harakat

Tajovo'zkorona xatti-harakat — bu shunday harakatki, o'yinchi to'p uchun kurash olib bormayotgan paytda raqibga nisbatan yoki jamoadoshiga, jamoaning rasmiy shaxsiga, uchrashuvning rasmiy shaxsiga, tomoshabinga yoki har qanday shaxsiga nisbatan, kontakt bo'lgan yoki bo'lmaganidan kat'i nazar, xaddan ortiq kuch ishlatish, shafkatsizlik qilish yoki shunga intilishidir.

Shuningdek, to'p uchun kurashmayotgan o'yinchi raqib yoki boshqa shaxsning boshiga, yuziga qo'l bilan ursa, tajovo'zkorona xulq-atvorda aybdor hisoblanadi. Zarba kuchsiz bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Jamoaning rasmiy shaxslari

Agar qoidabuzarlik sodir etilsa va qoidabuzarni aniqlashning imkoni bo'lmasa, texnik hududdagi murabbiylarning lavozim buyicha kattasi jazo oladi.

Tanbex

Quyidagi qoidabuzarliklar odatda tanbex berilishiga, agar ular takroran sodir etilgan yoki xaddan oshgan bo'lsa, ogoxlantirish yoki chetlatishga sabab bo'lishi kerak:

- maydonga iltifotli bo'lmagan ziddiyatga moyil tusda chiqish;
- uchrashuvning rasmiy shaxsi bilan kerakli darajada o'zaro hamkorlikning yo'qligi. Masalan, yordamchi hakam yoki zaxiradagi hakamning ko'rsatmasi talabini inkor qilish.
- qarorga (so'z yoki xatti-harakat bilan) muloyim "yumshok" e'tiroz bildirish;
- boshqa qoidabuzarliksiz texnik hududni bexosdan tark etish.

Ogoxlantirish

Ogoxlantirish bilan jazolanadigan qoidabuzarliklar o'z ichiga quyidagilarni oladi (lekin bu bilan cheklanmaydi):

- o'z jamoasi texnik hududi chegaralariga yaqqol doimiy amal qilmaslik;
- o'z jamoasining o'yinni davom ettirishini cho'zish;
- Raqib jamoa texnik hududiga atayin (ziddiyatga bormasdan) kirish;
- so'z yoki harakat orqali norozilik bildirish, jumladan, suv idish yoki boshqa buyumlarni otish tepish;
- uchrashuvning rasmiy shaxsiga nisbatan yaqqol hurmatsizlikni namoyish kiluvchi imo- ishoralar qilish, masalan, istexzoli qarsak;
- Hakamning video ko'rib chiqish maydoni (RRA)ga kirish;
- Imo-ishora bilan sariq yoki qizil kartochka ko'rsatishni xaddan ortiq qat'iyat bilan talab qilish;
- VARni "ko'rish" uchun "TV-monitor" ishorasini xaddan ortiq namoyish qilish;

- provokatsion va g'alamislik uslubida imo-ishora yoki xatti-harakat;
- Doimiy nojoiz xulq-atvor (tanbex bilan jazolanadigan qoidabuzarlikni takroran sodir etilishini qo'shgan holda);
- O'yinga nisbatan hurmatsizlik namoyish qilish.

Chetlatish

Chetlatish bilan jazolanadigan qoidabuzarliklar o'z ichiga quyidagilarni oladi (lekin bu bilan chelanmaydi):

- Raqib jamoaning o'yinni davom ettirishiga to'sqinlik qilish, masalan: to'pni ushlab turish, tepib yuborish, o'yinchining harakatiga to'sqinlik qilish;
- quyidagi maqsadlarda texnik hududni atayin tark etish:
 - uchrashuvning rasmiy shaxsiga nisbatan nafrat yoki norozilikni namoyish qilish
 - provokatsion va g'alamislik uslubida xatti-harakat qilish;
- Raqib jamoa texnik hududiga tajovo'zkorona yoki adovat bilan bilan kirish;
- maydonga buyumni atayin uloqtirish / tepib yuborish;
- quyidagi maqsadda maydonga chiqish:
 - uchrashuvning rasmiy shaxsi bilan ziddiyatga borish (jumladan, tanaffus vaqtida va uchrashuv yakunlanganidan so'ng);
 - o'yin, raqiblar, uchrashuvning rasmiy shaxsi harakatlariga aralashish;
- video operatsion xonaga kirish;
- Raqib jamoa o'yinchisi, zaxiradagi o'yinchisi, raqib jamoaning rasmiy shaxsi, uchrashuvning rasmiy shaxsi, tomoshabin yoki har qanday boshqa shaxs (masalan, to'pni o'zatib turuvchi o'g'il/qizlar, xavfsizlik xizmati vaqili yoki musobaqa tashkilotchisi va xokazo)ga nisbatan jismoniy ta'sir yoki tajovo'zkorona muomala qilish (jumladan, tupurish yoki tishlash);
- o'yinning o'zida ikkinchi ogoxlantirishni olish;
- xaqoratli, xafa qiladigan yoki axloqsiz so'z aytish va/yoki imo-ishora ko'rsatish;

- ruxsat etilmagan elektron yoki kommunikatsiya uskunalardan foydalanish va/yoki elektron yoki kommunikatsiya uskunalardan foydalanish oqibatida o'zini nomakbo'l tutish;

- tajovo'zkorona xatti-harakat.

Buyum (yoki to'p) otilgan paytdagi qoidabuzarliklar

Barcha holatlarda hakam quyidagi intizomiy choralarni qo'llaydi:

- extiyotsizlik tufayli sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvor uchun qoidabuzar o'yinchini ogoxlantiradi;

- xaddan ortiq kuch ishlatish orqali tajovo'zkorona xatti-harakat kilgani uchun qoidabuzarni chetlatadi.

Qoidabuzarlik va intizomsiz xatti-harakatdan so'ng o'yinning davom ettirilishi.

Agar to'p o'yinda bo'lmasa, o'yin avvalgi qarorga muvofiq davom ettiriladi. Agar to'p o'yinda bo'lsa va o'yinchi maydonda quyidagilarga nisbatan jismoniy qoidabuzarlikni sodir etsa:

- Raqibga — erkin yoki jarima zarbalari yoki penalti belgilanadi;
- jamoadoshi, zaxiradagi, almashtirilgan yoki chetlatilgan o'yinchi, jamoaning rasmiy shaxsi yoki uchrashuvning rasmiy shaxsiga — jarima zarbasi yoki penalti belgilanadi.

- har qanday boshqa shaxsga — tashlab beriladigan to'p o'ynaladi.

So'zlash bilan bog'liq qoidabuzarliklar erkin zarba bilan jazolanadi.

Agar hakam o'yinchi tomonidan maydonda yoki undan tashqaridagi begona omilga nisbatan sodir etilgan qoidabuzarlik tufayli o'yinni to'xtatsa, o'yin "bahsli" to'p bilan davom yetadi. Biroq hakam ruxsatisiz maydondan chiqib ketish uchun jarima zarbasi tayinlangan holatlar bundan mustasno.

Agar to'p o'yinda bo'lsa:

o'yinchi uchrashuvning rasmiy shaxsi yoki raqib o'yinchisi, zaxiradagi, almashtirilgan va chetlatilgan o'yinchisi yoki raqib jamoa rasmiy shaxsiga nisbatan maydon tashqarisida qoidabuzarlik sodir etsa yoki

zaxiradagi, almashtirilgan, chetlatilgan o'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsi raqib o'yinchisi yoki uchrashuvning rasmiy shaxsiga nisbatan maydon tashqarisida qoidabuzarlik sodir etsa yoki ularning harakatiga aralashsa

o'yin qoidabuzarlik sodir bo'lgan joydagi maydonni chegaralovchi chiziq yaqinida jarima/erkin zarbalari orqali davom ettiriladi. Agar jarima zarbasi bilan jazolanadigan qoidabuzarlik qoidabuzar o'yinchi jarima maydoni chegaralari ichida sodir etilgan bo'lsa, penalti belgilanadi.

Agar qoidabuzarlik o'yinchi tomonidan o'z jamoasining o'yinchisi, zaxiradagi va almashtirilgan o'yinchisi yoki rasmiy shaxsiga nisbatan maydon tashqarisida sodir etilgan bo'lsa, o'yin qoidabuzarlik sodir bo'lgan joydagi maydonni chegaralovchi chiziqqa eng yaqin joyda erkin zarba bilan davom ettiriladi.

Agar o'yinchi qo'lidagi buyum (bo'tsa, shitki va xokazo) bilan to'pga tegsa, o'yin jarima zarbasi (yoki penalti) bilan davom ettiriladi.

Agar maydonda yoki maydon tashqarisida turgan o'yinchi raqib o'yinchisiga qarata buyum (o'yindagi to'pdan tashqari)ni otsa yoki tepsa, yoki raqibning zaxiradagi, almashtirilgan yoki chetlatilgan o'yinchisi, rasmiy shaxsi yoki uchrashuvning rasmiy shaxsi yoxud o'yindagi to'pga qarata buyum (jumladan, to'p)ni otsa yoki tepsa, o'yin buyum yuqoridagi shaxs yoki to'pga tekkan yoki tegishi mumkin bo'lgan joydan jarima zarbasi bilan davom ettiriladi. Agar bu joy maydon tashqarisida bo'lsa, jarima zarbasi maydonni chegaralovchi chiziqqa eng yaqin joydan belgilanadi. Bu hodisa qoidabuzarning jarima maydoni ichida sodir bo'lsa, penalti belgilanadi.

Agar o'yinchi, almashtirilgan, chetlatilgan, vaqtinchalik maydonni tark etgan o'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsi maydonga buyumni otsa yoki tepsa va bu o'yinga, raqibga yoki uchrashuvning rasmiy shaxsiga xalal bersa, buyum o'yinga xalal bergan, raqibga, uchrashuvning rasmiy shaxsi yoki to'pga tekkan yoxud tegishi mumkin bo'lgan joydan jarima zarbasi (yoki penalti) bilan o'yin davom ettiriladi.

13.QOIDA

JARIMA ERKIN ZARBALARI

Zarbalar turi

Jarima va erkin zarbalar qoidabuzarlik sodir etgan o'yinchi, zaxiradagi, almashtirilgan va chetlatilgan o'yinchi yoki jamoaning rasmiy shaxsining raqib jamoasi foydasiga belgilanadi.

«Erkin zarba» ishorasi

Hakam qo'lini boshidan yuqoriga ko'targan holda erkin zarba haqida xabar beradi. U mazkur ishorani zarba berilmaguncha va to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha, to'p o'yindan chiqmaguncha yoki to'g'ridan-to'g'ri zarba bilan gol urilmasligi aniq bo'lmaguncha saqlab turishi kerak.

Agar hakam erkin zarba xaqida ishora bermagan bo'lsa va to'p esa to'g'ridan-to'g'ri zarba bilan darvozaga kiritilsa, erkin zarba takrorlanishi kerak.

To'p darvozaga kirs

- jarima zarbasidan to'p bevosita darvozaga kirs, gol hisobga olinadi.
- erkin zarbadan to'p bevosita darvozaga kirs, darvoza maydonidan zarba belgilanadi.
- jarima erkin zarbalaridan to'p bevosita jamoaning o'z darvozasiga kirs, burchak zarbasi belgilanadi.

Tartibi

Quyidagilarni istisno qilganda barcha zarbalar qoidabuzarlik yuz bergan joydan belgilanadi:

- Raqib darvoza maydonidagi qoidabuzarlik uchun hujum qilayotgan jamoa foydasiga belgilangan erkin zarbalar darvozaga parallel bo'lgan darvoza maydoni chizig'iga eng yaqin nuqtadan amalga oshiriladi.
- darvoza maydoni ichida himoyalananayotgan jamoa foydasiga

belgilangan jarima erkin zarbalar darvoza maydonining istalgan joydan amalga oshiriladi.

- O'yinchining ruxsatsiz maydonga chiqishi, qaytishi yoki maydonni tark etishi kabi qoidabuzarlik uchun belgilanadigan jarima/erkin zarbalar o'yin to'xtatilgan paytda to'p bo'lgan joydan bajariladi. Ammo o'yinchi maydondan tashqarida qoidabuzarlik sodir etgan bo'lsa, o'yin qoidabuzarlik sodir etilgan joydagi maydonni chegaralovchi chiziqqa eng yaqin joydan jarima erkin zarbalar bilan davom ettiriladi; jarima zarbasi bilan jazolanadigan qoidabuzarlik qoidabuzar o'yinchi jarima maydoni cheralari ichida sodir etilgan takdirda, penalti belgilanadi.

- Qoidalar boshqa vaziyatlarga aniqlik kiritgan holatlarda.

To'p:

- qimirlamay turishi kerak va zarba bergan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmaguncha yana tegishi mumkin emas;
- unga oyok bilan zarba berilgan va u yaqqol harakatda bo'lsa, o'yinda hisoblanadi.

To'p o'yinga kirgunga qadar barcha raqiblar:

- to'pdan kamida 9,15 metr (10 yard) masofada joylashishlari kerak. Ularning darvoza ustunlari orasidagi chiziqda turishi bundan mustasno;
- raqib jarima maydoni hududidan jarima erkin zarbalar amalga oshirilayotganda jarima maydoni tashqarisida joylashishlari kerak.

Agar himoyalananayotgan jamoaning uch yoki undan ko'p o'yinchisi "jonli devor" xosil qilsa, hujum qilayotgan jamoaning barcha o'yinchilari to'p o'yinga kirgunga qadar "jonli devor"dan kamida 1 metr (1 yard) masofada joylashishlari kerak.

Jarima erkin zarbalar bir vaqtda bir yoki ikki oyos bilan to'pni tashlab berish bilan bajaralishi mumkin.

Jarima erkin zarbalarini amalga oshirishda raqibni chalg'itish uchun aldamchi harakatlar qilishga ruxsat berilgan, zero, bu futbolning bir qismi hisoblanadi.

Agar jarima erkin zarbalarini berayotgan o'yinchi to'pni yana qayta o'ynash massadida raqibga atayin tepsa va bu ishni extiyotsizlik yoki beparvolik bilan yoxud xaddan ortiq kuch bilan qilmasa, hakam o'yinni davom ettirishga imkon beradi.

Qoidabuzarlik va jazo

Jarima erkin zarbalarini amalga oshirish paytida raqib to'pga talab qilinganiga nisbatan yaqin joylashgan bo'lsa, zarba takroran amalga oshiriladi. Ustunlik taqdim etilgan vaziyat bundan mustasno. Lekin o'yinchi jarima/erkin zarbalarini tezda amalga oshirgan bo'lsa va to'pga nisbatan 9,15 metr (10 yard)dan kam masofada joylashgan raqib to'pni egallab olsa, hakam o'yinni davom ettirishga ruxsat beradi. Biroq, jarima/erkin zarbalarini tezda bajarilishiga ataylab xalal bergan raqib o'yinning davom ettirilishini cho'zгани uchun ogoxlantirilishi kerak.

Jarima erkin zarbalari amalga oshirilayotgan paytda hujum qilayotgan jamoa o'yinchisi himoyalana yotgan jamoaning uch yoki undan ko'proq o'yinchisidan tashkil topgan "jonli devor"ga nisbatan 1 metr (1yard)dan kamroq masofada joylashgan bo'lsa, erkin zarba belgilanadi.

Jarima erkin zarbalar himoyalana yotgan jamoa jarima maydonida amalga oshirilayotganida raqib jamoa o'yinchisida jarima maydonini tark etish uchun vaqt bo'lmagani bois jarima maydonida qolgan bo'lsa, hakam o'yinni davom ettiradi. Raqib jarima erkin zarbalarni amalga oshirilayotganida raqib jarima maydoni ichida bo'lsa yoki to'p o'yinga kirguncha jarima maydoniga kirsa, to'pga tegsa yoxud to'p o'yinga kirgunga qadar to'p uchun kurashga qo'shilsa, jarima / erkin zarbalari takrorlanadi.

To'pga o'yinga kirganidan keyin zarbani amalga oshirgan o'yinchi boshqa o'yinchi to'pga tegmagunicha to'pga yana bir marta tegsa, erkin zarba belgilanadi. Agar zarbani amalga oshirgan o'yinchi to'pni qo'li bilan o'ynab, qoidabuzarlik sodir etsa:

- jarima zarbasi belgilanadi;

- qoidabuzarlik zarba berayotgan o'yinchi jarima maydoni ichida ro'y bergan bo'lsa, penalti belgilanadi. Darvozabon zarba bergan holat bundan mustasno. Bunday holatda erkin zarba belgilanadi.

14.QOIDA

PENALTI ZARBASI

O'yinchi o'z jarima maydoni ichida yoki 12, 13-Qoidalarda yozilganidek o'yin harakati jarayoni sifatida maydondan tashqarida jarima zarbasi bilan jazolanadigan qoidabuzarlikni sodir etsa, penalti zarbasi belgilanadi. Gol bevosita penalti zarbasidan urilishi mumkin.

Tartibi

To'p penalti nuqtasida qimirlamasdan turishi kerak hamda darvoza ustunlari, to'sini va turi qimirlamasligi zarur.

Penalti zarbasini berayotgan o'yinchi yaqqol ajralib turishi kerak.

Himoyalana yotgan jamoa darvozaboni zarba berilgunga qadar zarba berayotgan o'yinchi tomonga yuzlangan holda darvoza chizig'ida turishi kerak hamda darvoza ustunlari, to'sini yoki to'riga teginmasligi lozim.

Zarba berayotgan o'yinchi va darvozabondan boshqa o'yinchilar quyidagicha joylashishlari kerak:

- Penalti nuqtasidan kamida 9,15 m (10 yard) masofada;
- Penalti nuqtasidan orqada;
- Maydon hududida;
- Jarima maydoni tashqarisida.

O'yinchilar ushbu qoidaga mos ravishda joy egallaganlaridan keyin hakam penaltini amalga oshirish uchun ishora beradi.

Penalti zarbasini berayotgan o'yinchi to'pni oldinga yo'naltirishi kerak; to'p oldinga harakatlanish sharti bilan tovon bilan zarba berishga ruxsat etiladi.

Zarba berilish chog'ida himoyalana yotgan jamoa darvozaboni kamida

bitta oyog'i bilan chiziqqa tegib turishi yoki chiziq bilan bitta satxda bo'lishi kerak.

Oyok bilan zarba berilganidan keyin sezilarli harakatlanganda to'p o'yinda hisoblanadi.

Zarba bergan o'yinchi boshqa o'yinchi to'pga tegmaguncha yana to'pga tegishi mumkin emas.

To'p harakatdan to'xtaganda, o'yindan chiqqanda yoki hakam har qanday qoidabuzarlik sababli o'yinni to'xtatganida penalti zarbasi yakunlangan hisoblanadi.

Har bir bo'lim yoki qo'shimcha vaqtlar so'ngida penalti zarbasini amalga oshirish va yakunlash uchun vaqt qo'shishga ruxsat etilgan. Agar vaqt qo'shib berilsa, zarba berilganidan so'ng to'p harakatdan to'xtasa, o'yindan chiqsa, himoyalananayotgan jamoa darvozabonidan tashqari har qanday o'yinchi tomonidan o'ynalsa (jumladan, zarba bergan o'yinchini ham qo'shganda) yoki hakam zarba bergan o'yinchi yoki uning jamoadoshi qoidabuzarlik sodir etgani uchun o'yinni to'xtatsa, penalti zarbasi yakunlangan hisoblanadi. Agar himoyalananayotgan jamoa o'yinchisi (darvozabonni ham qo'shganda) qoidabuzarlik sodir etsa va penalti zarbasi noaniq bajarilgan / darvozabon to'pni qaytargan bo'lsa ham, zarba takroran beriladi.

Qoidabuzarlik va jazo

Hakam penalti uchun ishora bergan zaxoti zarba berilishi kerak. Agar zarba berilmagan bo'lsa, hakam penalti uchun yana ishora berishdan oldin intizomiy chora qo'llashi mumkin.

To'p o'yinga kirgunga qadar quyidagilar sodir bo'lsa:

• penalti zarbasi berayotgan o'yinchi yoki uning jamoadoshi qoidabuzarlik sodir etsa:

- to'p darvozaga kirsa, zarba takrorlanadi;

- to'p darvozaga kirmasa, hakam o'yinni to'xtatadi va uni erkin zarba bilan davom ettiradi

- gol bo'lgan yoki bo'lmaganidan kat'i nazar, istisno tariqasida quyidagi holatlarda o'yin to'xtatiladi va erkin zarba bilan davom ettiriladi:

- penalti zarbasi orqaga berilganda;

- zarba berish uchun ajratilgan o'yinchining jamoadoshi zarba berganda; hakam zarba bergan o'yinchini ogoxlantiradi;

- zarba beruvchi o'yinchi yugurib kelib zarba berishdan oldin aldamchi harakatlarni qilsa (yugurish jarayonida aldamchi harakatlarga ruxsat berilgan); hakam zarba bergan o'yinchini ogoxlantiradi.

Darvozabon yoki uning jamoadoshi qoidabuzarlik sodir etsa:

• To'p darvozaga kirsa, gol hisobga olinadi;

• agar to'p darvozadan o'tib ketsa yoki to'sindan yoki ustun(lar) dan qaytsa, zarba faqat darvozabon tomonidan sodir etilgan qoidabuzarlik tepuvchiga aniq ta'sir qilgan taqdirda takrorlanadi;

• agar to'pni darvozabon qaytarsa, tepish takrorlanadi.

Agar darvozabon tomonidan sodir etilgan qoidabuzarlik zarbaning qaytarilishiga olib kelsa, darvozabon o'yindagi birinchi qoidabuzarlik uchun ogohlantiriladi va o'yindagi keyingi qoidabuzarlik(lar) uchun jazolanadi.

• darvozabonning sherigi qoidabuzarlik qilsa:

• agar to'p darvozaga kiritilgan bo'lsa, gol hisoblanadi;

• agar to'p darvozaga kirmasa, tepish takrorlanadi

Har ikkala jamoa o'yinchilari o'yin qoidalarini buzishsa — zarba takrorlanadi. Biroq o'yinchi jiddiyrok qoidabuzarlik sodir etgan holat (masalan, taqiqlangan aldamchi harakatlar) bundan mustasno. Agar darvozabon va zarba berayotgan o'yinchi bir vaqtda qoidabuzarlik sodir etsa:

o agar zarba noaniq berilgan bo'lsa yoki darvozabon to'pni qaytargan bo'lsa, zarba takrorlanadi va har ikkala o'yinchi ogoxlantiriladi.

o gol urilgan bo'lsa, u bekor qilinadi; zarba beruvchi o'yinchi ogoxlantiriladi, o'yin esa himoyalananayotgan jamoa foydasiga erkin zarba bilan davom ettiriladi.

Penalti zarbasi berilganidan keyin:

- zarba beruvchi o'yinchi boshqa o'yinchi to'pga tekkunga qadar yana bir marta to'pga tegsa:

- erkin zarba (yoki to'pni qo'li bilan o'ynab, qoidabuzarlikka yo'l qo'ysa, jarima zarbasi) belgilanadi;

- to'p oldinga harakatlenganda unga begona faktor tegsa:

zarba takrorlandi; to'p darvozaga harakatlenganda va aralashuv darvozbonga yoki uning jamoadoshiga to'pni o'ynashga to'sqinlik kilmagan holat bundan mustasno. Bunday holatda to'p darvozaga kirsam (xattoki to'p bilan kontakt yuz bersam ham), aralashuv hujum qilayotgan jamoa tomonidan sodir etilmagan bo'lsa, gol hisobga olinadi;

to'p darvozbonga, darvoza to'sini yoki ustunlaridan maydonga kaytsam, so'ngra begona faktor unga tegsa:

- hakam o'yinni to'xtatadi;

- begona faktor to'pga tekkan joydan to'p tashlab berish bilan o'yin davom ettiriladi.

3. Umumiy jadval

Penalti zarbasi natijasi		
Tartibni buzish	Gol	Gol emas
Hujum qilayotgan o'yinchi	Zarba takrorlanadi	Erkin zarba
Himoyalananayotgan o'yinchi	Gol	Zarba takrorlanadi
Darvozbonga qoidani buzsa	Gol	"Qutqaruv" yo'q: zarba qaytarilmaydi (agar hujumchiga ta'sir qilinmagan bo'lsa) "Qutqaruv" bor: zarba takrorlanadi va darvozbonga tanbeh beriladi, keyingi qoidabuzarlik uchun ogohlantiriladi

Zarba orqaga berilgan bo'lsa	Erkin zarba	Erkin zarba
Taqiqlangan aldamchi harakatlar	Erkin zarba va zarba beruvchi ogohlantiriladi	Erkin zarba va zarba beruvchi ogohlantiriladi
Zarbani boshqa o'yinchi bersam	Erkin zarba va o'sha o'yinchi ogohlantiriladi	Erkin zarba va o'sha o'yinchi ogohlantiriladi
Darvozbonga va zarba beruvchi bir vaqtda qoidani	Erkin zarba va zarba beruvchi ogohlantiriladi	Zarba takrorlanadi va zarba beruvchi ogohlantiriladi
Ilk kala jamoa futbolchilari	Zarba takrorlanadi	Zarba takrorlanadi

15. QOIDA

YON CHIZIQDAN TO'PNI TASHLAB BERISH

To'p tashlab berish yon chiziqni yer yoki xavodan to'liq kesib o'tgan to'pga so'nggi marta teginan o'yinchining Raqib jamoasi foydasiga belgilanadi.

Yon chiziqdan bevosita to'p tashlab berish orqali gol urilishi mumkin emas:

- to'p raqib darvozasiga kirsam, darvoza maydonidan zarba belgilanadi;
- to'p o'z darvozasiga kirsam, burchak zarbasi belgilanadi.

Tartibi

Yon chiziqdan to'p tashlash paytida to'pni tashlayotgan o'yinchi:

- maydonga yuzlangan holda bo'lishi;
- har bir oyog'ining bir qismi yon chiziq ustida yoki yon chiziq tashqarisidagi yerda bo'lishi kerak.
- To'p maydonni tark etgan joydan to'pni ikki qo'li bilan boshining ortidan va ustidan tashlab beradi.

Barcha raqiblar yon chiziqdan to'p tashlab berilayotgan joydan kamida 2 metr (2 yard) masofada joylashishlari kerak.

To'p maydonga kirganida, u o'yinda hisoblanadi. Agar to'p maydonga kiringunga qadar yerga tegsa, o'sha jamoa tomonidan o'sha joydan to'p takroran tashlab beriladi. Agar yon chiziqdan to'p tashlab berish noto'g'ri bajarilgan bo'lsa, u qarama-karshi jamoa tomonidan amalga oshiriladi.

Agar o'yinchi yon chiziqdan to'p tashlab berishni to'g'ri bajara turib, to'pga yana egalik qilish maqsadida atayin to'pni raqib tomon o'tsa, lekin bu ishni extiyotsizlik yoki **beparvolik bilan** yoxud xaddan ortiq kuch bilan qilmasa, hakam o'yinni davom ettiradi.

Yon chiziqdan to'pni tashlayotgan o'yinchi boshqa o'yinchiga to'p tegmaguncha to'pga tegishi mumkin emas.

Qoidabuzarlik va jazo

To'p o'yinga kirganidan keyin yon chiziqdan to'pni tashlab bergan o'yinchi boshqa o'yinchi to'pga tekkuncha yana to'pga tegsa, erkin zarba belgilanadi. Agar to'pni tashlab bergan o'yinchi to'pni qo'l bilan o'ynab qoidabuzarlik sodir etsa:

- Jarima zarbasi belgilanadi;
- Qoidabuzarlik to'pni tashlab bergan o'yinchi jarima maydoni ichida yuz bergan bo'lsa, penalti belgilanadi. Himoyalananayotgan jamoa darvozaboni to'pni qo'li bilan o'ynagan vaziyat bundan mustasno — bunday holatda erkin zarba belgilanadi.

Yon chiziqdan to'pni tashlab berayotgan o'yinchini g'irrom uslub bilan chalg'itgan yoki unga xalal bergan raqib (to'p tashlab berayotgan joyga 2 metr (2 yard) masofadan yaqinroqqa harakatlanishini ham qo'shganda), sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvori uchun ogoxlantiriladi va yon chiziqdan to'p tashlab berilgan bo'lsa, erkin zarba belgilanadi.

Ushbu qoidaning boshqa har qanday buzilishi uchun yon chiziqdan to'pni tashlab berish raqib jamoa o'yinchisi tomonidan qayta amalga oshiriladi.

16.QOIDA

DARVOZA MAYDONIDAN ZARBA

Hujum qilayotgan jamoa o'yinchisiga so'nggi marta tekkan to'p darvoza chizig'ini yer yoki xavodan to'liq kesib o'tganida va gol bo'lmaganida darvozabon maydonidan zarba belgilanadi.

Bevosita darvoza maydonidan zarba orqali faqat qarama-karshi jamoa darvozasiga gol urilishi mumkin. Agar to'p bevosita darvoza maydonidan zarbani amalga oshirgan jamoa o'yinchisi darvozasiga kirs, burchak zarbasi belgilanadi.

Tartibi

To'p qimirlamasdan turishi kerak. Zarba himoyalananayotgan jamoa o'yinchisi tomonidan darvoza maydonining istalgan nuqtasidan oyok bilan amalga oshiriladi.

To'pga oyok bilan zarba berilgan va u yaqqol harakatda bo'lsa, to'p o'yinda hisoblanadi.

To'p o'yinga kirmaguncha raqiblar jarima maydon tashqarisida bo'lishlari kerak.

Qoidabuzarlik va jazo

To'p o'yinga kirganidan keyin zarba bergan o'yinchi boshqa o'yinchi to'pga tekkunga qadar yana to'pga tegsa, erkin zarba belgilanadi. Agar zarba bergan o'yinchi to'pni qo'l bilan o'ynab qoidabuzarlik sodir etsa:

- Jarima zarbasi belgilanadi;
- Qoidabuzarlik zarba bergan o'yinchi jarima maydoni ichida yuz bergan bo'lsa, penalti belgilanadi. Zarbani darvozabon amalga oshirgan holat bundan mustasno bo'lib, bunday vaziyatda erkin zarba belgilanadi.

Darvoza maydonidan zarbani amalga oshirish paytida raqibning kaysidir o'yinchisi jarima maydonini tark etish uchun vaqti bo'lmagani bois ichkarida qolgan bo'lsa, hakam o'yinni davom ettirishga ruxsat beradi. Darvoza maydonidan zarba amalga oshirilayotgan paytda jarima maydoni ichida

turgan yoki to'p o'yinga kirgunga qadar jarima maydoniga kirgan raqib to'pga tegsa yoxud to'p uchun kurashga qo'shilsa, zarba takrorlanadi.

O'yinchi to'p o'yinga kirgunga qadar jarima maydoniga kirsa va qoidabuzarlik sodir etsa yoki unga nisbatan raqib tomonidan qoidabuzarlik sodir etilsa, darvoza maydonidan zarba takrorlanadi, qoidabuzar esa qoidabuzarlikka bog'liq ravishda ogoxlantiriladi yoki chetlatiladi.

Ushbu Qoidaning boshqa har qanday buzilishida zarba takrorlanadi.

17.QOIDA

BURCHAK ZARBASI

Himoyalalanayotgan jamoa o'yinchisiga so'nggi marta tekkan to'p darvoza chizig'ini yer yoki xavodan to'liq kesib o'tganida va gol bo'lmaganida burchak zarbasi belgilanadi.

Bevosita burchak zarbasidan faqat qarama-karshi jamoa darvozasiga gol urilishi mumkin. Agar to'p bevosita burchak zarbasini amalga oshirgan jamoa o'yinchisi darvozasiga kirsa, raqib jamoa foydasiga burchak zarbasi belgilanadi.

Tartibi

- To'p darvoza chizig'ini kesib o'tgan joyga yaqinroq burchak maydonida turishi kerak.
- To'p qimirlamay turishi, zarba esa hujum qilayotgan jamoa o'yinchisi tomonidan amalga oshirilishi kerak.
- To'pga oyok bilan zarba berilgan va u yaqqol harakatda bo'lsa, to'p o'yinda hisoblanadi. Zarba berilganidan keyin to'p burchak maydonini tark etishi shart emas.
- Burchakdagi flagshtok surilishi mumkin emas.
- To'p o'yinga kirmaguncha raqiblar burchak maydoni yoyidan kamida 9,15 m (10 yard) masofada qolishlari kerak.

Qoidabuzarlik va jazo

To'p o'yinga kirganidan keyin zarba bergan o'yinchi boshqa o'yinchi to'pga tekkunga qadar yana to'pga tegsa, erkin zarba belgilanadi. Agar zarba bergan o'yinchi to'pni qo'l bilan o'ynab qoidabuzarlik sodir etsa:

- Jarima zarbasi belgilanadi;
- Qoidabuzarlik zarba bergan o'yinchi jarima maydoni ichida yuz bergan bo'lsa, penalti belgilanadi. Zarbani darvozabon amalga oshirgan holat bundan mustasno bo'lib, bunday vaziyatda erkin zarba belgilanadi.

Agar o'yinchi burchak zarbasini to'g'ri bajara turib, to'pga yana egalik qilish maqsadida atayin to'pni raqib tomon tepsa, lekin bu ishni extiyotsizlik yoki **beparvolik bilan** yoxud xaddan ortiq kuch bilan qilmasa, hakam o'yinni davom ettiradi.

6.2. Nazariy mashg'ulotlarni olib borish usuliyati va uni tashkil etish

Nazariy mashg'ulotlarni olib borish yosh sportchilarning sport mahoratini tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Mashg'ulot o'tish tayyorgarligini shartli ravishda o'zaro bog'lik bo'lgan ikki qismga ajratish mumkin:

- nazariy tayyorgarlik, ya'ni taktik bo'yicha maxsus bilimlarni o'zlashtirish
- amaliy tayyorgarlik, ya'ni alohida guruhli va jamoaviy harakatlarni o'zlashtirish shuningdek, o'yinchilarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.

Amaliyotdan ma'lumki, kim nazariy jihatdan yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa, taktik ko'nikmalarni egallashda muvaffaqiyatga erishadi. Nazariy bilimlar murakkab o'yin vaziyatlarda to'g'ri mo'ljal ola bilishga, ehtimollik qarorlarni baholash va ularni tahlil etishga, ularda eng samaradorligini tanlab olishga yordam beradi.

Taktikada nazariy tayyorgarlik o'yin qoidalarini bilish va taktikaning alohida vositalarini egallashni ko'zda tutadi. Futbolchi o'yinning asosiy

tizimlari va ularning variantlarini jamoadagi muayyan ampula o'yinchilarining vazifasini uchrashuvning xar xil bosqichlaridagi harakatlarning o'zaro munosabatini ob'ektiv shart-sharoitlarning o'yin jaryoniga ta'siri hamda tashqi omillardan jamoa manfaatlari yo'lida foydalanishni bilish zarur. Har bir harakatda bularning barchasini inobatga olish kerak. Taktik mahorat o'sib borgan sayin bilimlarning o'yin jarayonning ko'rsatadigan ta'siri ham ortadi. Futbol taktikasi nazariyasini o'rganish o'yining asosiy qoidalarini tushuntirishdan boshlanib, ular o'yin mashqlarini boshqarish davomida hamda mashg'ulot o'yinlari vaqtida amaliy jihatdan o'zlashtiriladi. Murabbiy jamoa ichidagi vazifalarning taqsimlanishi alohida o'yinchilar oldilaridagi muammolar haqida. Yosh shug'ullanuvchilarga to'liq tushunarli ma'lumot berishi, muayyan hududda o'ynaydigan aniq bir o'yinchining harakatlari yordamida ixtisoslashtirilgan tarzda ayrim o'yinchilarning asosiy vazifalarini ta'riflab berishi lozim.

O'rgatishning keyingi pog'onasi o'yinning alohida bosqichlarini batafsil tahlil qilib chiqadilar. Yaxshisi bunday tahlilda o'tkazilgan uchrashuvlarda o'yinchilar yo'l qo'ygan kamchiliklarni tanqid qilib o'tgan ma'qul. O'yin bosqichlari tahlilidan so'ng turli murakkablikdagi taktik vazifalarning nazariy yechimini o'rganishga o'tish mumkin. Harakat ko'nikmalarini o'rgatish jarayonida taktik faoliyatlarni amalga joriy etish uchun shug'ug'llanuvchilarga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish hamda o'rganilgan harakatning mustahkamlash usullari haqida tushuncha beriladi.

Taktikani o'rgatish va uni takomillashtirishning asosiy usullari:

1. Mashq qilish usuli. (O'rganilayotgan va yangi mashqlarni ko'p karra takrorlash) Shug'ullanuvchilarda harakatlanishning dinamik qoliplari streotiplari shakllanishida yordam beradi.

2. Namoiyish etish va kursatish usuli.

3. So'zlashish usuli.

4. Yaxlit qismlarga bo'lingan usul (yaxlit taktik harakatlarga o'tishdan avval ulardan har birining asosiy qismlari o'zlashtiriladi. Odatda taktik

harakatlarni mustahkamlash va shakllantirish uchun yaxlit usulga murojaat etiladi).

5. Taktikaga oid kinomateriallar tahlili raqib jamoa o'yinini baholashda juda katta ahamiyatga ega. O'yinlarni video tasмага tushirishning afzalligi shundaki, u raqiblar o'yinini ko'p marotalab ko'rib o'rganishga imkon yaratadi. Bundan tashqari o'z taktik harakatlarini tahlil etishga eng samarali yo'llaridan biridir.

6. O'z harakatlari va raqib xarakatlarini tahlil etish.

Odatda murabbiylar kuzatuvni mustaqil ravishda olib borishni afzal deb biladilar. Shundan keyin o'yinchilarga faoliyat ko'rsatish variantlarining tayyor qoliplarini beradilar: bu yosh futbolchilarni tashabbuskorlik va mustaqillikdan mahrum etadi. Demak, ularning o'yin tafakkurini rivojlantirishga yo'l qo'ymaydi. Yosh futbolchilarning o'yin musobaqalarini ko'rishga jalb etish juda muhim. Ularni shunchaki o'yin tomosha qilishga emas, balki jamoa qo'llayotgan taktik variantlarga, hujum va himoyada o'yinni tashkil etish yo'llariga, taktik vazifalarni hal etishda o'yinchilar qo'llaydigan vositalarga e'tibor qaratishni o'rgatish zarur. Yosh futbolchi taktik vazifalar ustida qanchalik ko'p o'ylab, ularning yechimini topsa, har xil sharoitlarda turli raqiblar bilan o'yinlardagi o'z taktikasi hamda shaxsiy tajribasini kanchalik chuqur tahlil etsa, o'zini o'yin vazifalarini to'g'ri tushunish va baholashga o'yin payti oldiga qo'yiladigan xilma xil vazifalarni mustaqil ravishda ijodkorona hal etishga shuncha yaxshi tayyorlaydi.

Taktik xarakatlarni o'yin texnikasi bilan bir vaqtda o'rganish maqsadga muvofiqqligi yuqori bo'limlarda e'tirof etilgandi. Chunki dastlabki mashg'ulotlarda Yosh futbolchilarda mustaqillik, mo'ljal olish tezkorligi hamda ijodiy faollikni tarbiyalash juda muhim. Shunda mashqlarni tanlash kerakki, ularni bajarish chog'ida shug'ullanuvchilar vaziyatni anglab, muayyan qarorlar qabul qilishi, o'z faoliyatini baholab, umumlashtira olishi lozim.

Taktikani o'zlashtirishning dastlabi bosqichida murakkab reaksiyalar tezkorligi mo'ljal olish va ziyraklik, futbolchilarda ko'prok jismoniy va texnik tayyorgarlik jarayonida rivojlanib boradi. Buning uchun mashqlarga qo'shimcha sharoitlar kiritiladi:

- ovozli va ko'rish mumkin bo'lgan signallardan foydalaniladi. (o'yinchilar to'p bilan yoki to'psiz bajaradigan u yoki bu harakatlarni tez o'zlashtira olishlari uchun)

- to'plarning miqdori, fishkalar, yordachi jihozlar bilan bog'liq mashqlarning mo'ljal yoki chegaralari soni ko'paytiriladi.

- harakatlarning murakkablashtirish, qiyinlashtirishga o'rgatiladi, ularda shug'ullanuvchilarning joy almashtirish tezligining harakat yo'nalishiga bog'lik bo'ladi.

Shartli sheriklarining faol yoki passiv qarshiligidan foydalaniladi, bunda qo'shimcha sharoitlar yoki murakkablashtirishlar texnik usullar asosida yotuvchi jismoniy sifatlarning rivojlantirishiga yoki xarakter ko'nikmalarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga ahamiyat berish muhim.

Texnikaga oid u yoki bu mashqni bajarishda avval, shug'ullanuvchilarning imkoniyatiga mos shunday taktik topshiriq tanlab berish kerakki, usullarning o'zlashtirilishini murakkablashtirmasin, balki uning to'g'ri anglanishiga o'zgaruvchan sharoitlarda oqilona qo'llanilishiga ko'maklashsin. Masalan, yosh futbolchi bir vaqtning o'zida harakat boshlash uchun qulay payt tanlab, ham zarba yo'nalishini aniqlashi yoki sheriklarining joylashuvi va siljishiga qarab to'pni olib yurishi lozim bo'lgan sharoitlarda mashq bajarishi mumkin. Keyin alohida harakatlarni o'zlashtirish raqibsiz o'tkazilgan mashqlarda passiv raqiblar bilan va nihoyat o'yin mashqlarida faol raqib bilan davom ettiriladi. Bu bosqichda muhim vazifani bajaradi. Uning faoliyatini murabbiy yo'naltirib turadi.

O'rganilgan ko'nikma o'yin sharoitida ko'p marotaba takrorlash yo'li bilan mustahkamlanadi. Bunday yosh futbolchiga muayyan topshiriqlar

beriladi. O'quv mashg'ulot va o'rtoqlik o'yinlarida himoyadan hujumga va hujumdan himoyaga o'tishda to'pni o'yin kiritish vaqtida joy tanlashga alohida e'tibor qaratish zarur. O'yinchilarning raqibdan uzilib keta olishiga, jamoa o'yinchilarning ochiq joyiga chiqishiga shuningdek, o'z o'yinchilarni yo'qotgan zahoti raqib o'yinchisini o'z vaqtida to'g'ri bекitishga erishish kerak.

Futbolda guruhli taktik harakatlarning asosini 2,3 va undan ko'proq o'yinchilarning muayyan usullardagi o'zaro munosabatlari tashkil etadi ahamiyat berishi zarur. Ikki va uch undan ortiq o'yinchilarning munosabatlarini yanada takomillashtirish o'yin mashqlari va o'quv o'yinlari jarayonida davom ettiriladi. O'yin mashqlari dastlab, hujumchilar miqdori jihatdan usutnligida, keyin hujumchilar va himoyachilar sonini tenglashtirib va nihoyat hujumchilar midorni kamaytirib o'tkaziladi. O'yin mashqlari hamda o'quv o'yinlariga futbochilarni o'rganilgan usullarni qulay vaziyatlarda qo'llashga majbur qiluvchi sharoitlarni kiritish maqsadga muvofiq. O'yin mashqlarini bajarish va o'quv o'yinlarini bajarish chog'ida murabbiy shug'ullanuvchilarning harakatlarini to'g'ri davom ettirishi uchun eng qulay variantlarni tanlash malakasiga yuzaga kelgan vaziyatni mustaqil baholay olishga muayyan sharoitda mo'ljal olish tezligiga alohida ahamiyat berishi zarur.

6.3. Yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligi

Futbolchilarning o'yin faoliyati sharoitlarida yaxshi mo'ljal olish va taktik jihatdan to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati ko'p jihatdan texnik usullarni maqsadga muvofiq ravishda qo'llash, ya'ni ularning texnik qurollanganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun yosh futbolchi texnik usullarni muntazam takomillashtira borib juda ko'p miqdordagi harakat ko'nikmalarini egallab olgandagina, yaxshi taktik tayyorgarlikka erishishi mumkin. O'yinchining texnik mahorati yo sheriklari bilan hamkorlikda, yoki individual ravishda istalgan taktik g'oyaning amalga oshirilishini ta'minlashi kerak. Har bir futbolchining taktik jihatdan yuqori individual tayyorgarligi butun jamoa taktikasining samarali bo'lishini belgilab beradi.

Yosh futbolchilar bilan o'tkaziladigan har bir o'quv-mashg'uloti bosqichi muayyan yo'nalishga va tegishli o'quv materiallariga ega bo'lishi kerak.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifa o'yinda fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalash va futbol o'yini jarayoniga qiziqish uyg'otishdan iborat. Mashg'ulotlarda murakkab reaksiya tezligi, mo'ljal olish, idrok, mustaqillik jamoada ish ko'ra bilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar bajariladi. O'yinda fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalash uchun o'yin faoliyati xarakteriga ko'ra futbolga yaqin bo'lgan harakatli o'yinlardan keng foydalaniladi. Harakatli o'yinlar raqib "ta'qib"idan qutilish va bo'sh joyga chiqish, o'z vaqtida to'p oshirish, hujum yoki himoya vaqtida tezlik bilan qulay vaziyatni egallash ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Taktik tayyorgarlikda harakatli o'yinlardan foydalanish to'pni egallab olishning murakkab texnikasi yo'qligi bilan ham belgilangandir. Bu shug'ullanuvchilarning diqqat-e'tibori o'yin jarayonini tushunib olishga qaratiladi, juda ko'p vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarib olish imkoni yuzaga keladi. O'yinlarda hujum va himoyadagi individual hamda eng oddiy guruhli harakatlar tarbiyalanadi. O'yinchining «ochilishi» va «yopilishi» kabi taktik harakatlarni, eng yaxshisi, sport o'yinlarga oid harakatli o'yinlarda o'rgangan ma'qul.

Murabbiy o'yin mohiyatini to'g'ri tushunish hissini tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, qabul qilingan har bir noto'g'ri qarorni e'tibordan chetda qoldirmasligi, bajarilgan harakatga baho berishi kerak. Shuning uchun mazkur bosqichdagi har bir mashg'ulot mazmunining asosiy yo'nalishi – o'yinni olib borish tajribasini egallash va uni to'ldirib borishdan iborat.

Boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichi taktik tafakkurni (o'yinchining taktik jihatdan fikr yuritish qobiliyatini) rivojlantirishni hamda asosiy individual va guruhli taktik harakatlarni o'rganishni nazarda tutadi. Mashg'ulotlarda quyidagilar:

- nazariy bilimlar, taktik ko'nikma va malakalar zahirasini kengaytirish;

– o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni doimo o'zgaruvchan o'yin sharoitidagi ijodiy imkoniyati e'tiborga olinish kerak.

Mashg'ulotlarda sport o'yinlari taktikasining umumiy asoslarini o'rganishga, futbol o'yini taktikasini, o'yinchilarning individual va guruhli harakatlarini qarab chiqishga katta o'rin beriladi. Shu maqsadda futbolchining mustaqil ish olib borishida mavjud barcha formalardan, taktik tayyorgarlikning nazariy asosini yaratishga yordam beruvchi formalardan (adabiy manbalar, kinomateriallar, shaxsiy kuzatishlar) foydalaniladi. O'yin qoidalarini o'rganish hamda individual va guruhli harakatlarni tashkil etishda ularni hisobga olish lozim. Tanishish asnosida qoidalarni rasm, sxema, maketda aks ettirilgan o'yin vaziyati va hokazolar bilan to'ldirib tushuntirish, ularni qo'llashga oid amaliy misollar keltirish foydalidir.

Asosiy taktik harakatlarni o'rganish jarayonida taktik tafakkur shakllantirilar ekan, asosiy e'tibor qabul qilingan taktik rejani amalga oshirish uchun o'yin olib borishning shug'ullanuvchilar qabul qilgan muayyan vositalari va usullarini maqsadga qanchalik muvofiqligini tahlil qilishga qaratiladi.

Hujum va himoyaning doimo o'zgaruvchan sharoitlarida konkret individual va guruhli harakatlarga alohida e'tibor berib bajariladigan mashqlar ham o'rganiladi.

Ayrim o'yin vaziyatlarini ijodiy hal etish qobiliyati o'yinchilarning eng muhim malakasi hisoblanadi. Bu malakani rivojlantirish boshlang'ich sport ixtisoslashuvining asosiy vazifalaridan biridir.

Jiddiy mashq qilish bosqichidagi taktik tayyorgarlik o'zlashtirib olingan individual va guruhli harakatlarga alohida e'tibor bergan holda olib boriladi. U futbolchilarning kombinatsion o'yin olib borish qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Jamoada taktik harakatlarni takomillashtirishga katta e'tibor beriladi. Har bir o'yinchi jamoada qanday o'rin egallashiga qarab o'z taktik

harakatlarini takomillashtiradi. Mashqlarga ham hujumchi, ham himoyachi harakatlari kiritiladi.

O'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini, vujudga kelgan o'yin sharoitida to'g'ri yo'l topa bilish, o'yin vaziyatini xarakterlovchi ko'p sonli momentlardan eng muhimini ajratib olish ko'nikmalarini tarbiyalash juda muhimdir.

7. Bob. Yosh futbolchilarda o'yin taktikalarini tarbiyalashda, o'yin qoidalarini o'zlashtirish

Yosh futbolchilarning taktik harakatlarni tarbiyalashda futbol o'yin qoidalarini yoddan bilish muhimdir. O'yin qoidalarini o'zlashtirgan yosh futbolchi o'yin vaziyatlarida o'z jamoadoshlarni hujumda, himoyadagi harakatlari noaniqliklar yuzaga kelishga yo'l qo'ymaydi. Futbol o'yinlarida futbolchilarning o'yin qoidalarini bilmasligi, hakamlar bilan tortushuvlarini, vaziyatlarda oddiy qoidalarini buzilishini, xatokki yirik musobaqarlada ham kuzatilishi sir emas.

O'yinchilar o'yin maydoni, maydonchalar, darvoza va to'pning o'lchamlari hakamlarni majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi shart.

Tekshirishlardan shuni aniqladikki, yosh futbolchilarni o'yindan tashqari holatda, jarima va erkin to'plarni o'yinga kiritishda xattoki yon chiziqdan to'pni tashlashda xatolarga yo'l qo'yishadi. Yosh darvozabonlar ham qoidani bilmasliklari tufayli, jamoalarni mag'lubiyatga uchrashlariga olib kelishadi.

Yosh futbolchilar o'yinlarda o'yindan tashqari holatni yuzaga keltirishda ko'pgina xatoliklarga yo'l qo'yishadi. Bunday xatoliklarga yo'l qo'maslik uchun o'yindan tashqari holatni yuzaga keltirish yoki bo'lmasa ofsayd holatiga tushib qolmaslikda, yosh futbolchilarning o'yin vaziyatini to'g'ri baholay olishlarigina samarali harakatlanishni ta'minlaydi. O'yindan tashqari holatni vujudga keltirish, raqib hujumini to'xtatishda yoki aksincha o'yindan tashqari holatni noaniq qo'llanilishi hujumchining ko'p hollarda darvozabon bilan birga-bir vaziyatga chiqarib, gol bo'lishiga olib keladi.

Biz o'yindan tashqari xolatlarni o'yinlarni yuzaga keltirish va ushbu holatga tushib qolmaslikda maydonda samrali harakatlanishda, rasmlarda vaziyatlarni ko'rsatib berganmiz. Bu vaziyatlarda maydonda o'yindan tashqari holatlarning borligi yoki yo'qligi nazariy tarzda ham tushuntirilib berilgan.

Rasmlardagi shartli belgilar


O -hujum uyushtirayotgan jamoa

PP - himoyalanayotgan jamoa

← - to'pning yo'nalishi


←--- - o'yinchilarning harakatlanishi

1-Vaziyat. O'yindan tashqari holat



O'yindan tashqari holat kuzatildi. A o'yinchi to'p bilan hujum uyushtirish vaziyatida, V o'yinchiga to'pni uzatdi. V o'yinchi bu vaziyatda Y va X raqib o'yinchilariga qaraganda, raqib darvozasiga yaqin turibdi.


2-Vaziyat. O'yindan tashqari holat yo'q



O'yindan tashqari holat kuzatilmaydi. A o'yinchi hujum uyushtirishda, Z raqib o'yinchisi orqasida turgan V jamoadoshiga to'pni uzatdi. Bu holatda V1

joydan V2 joyga to'p uzatilgan tomonga qarab haraktlangan. To'p uzatilgan vaqtda Y raqib o'yinchi o'z darvozasiga yaqin o'yinchi bo'lgan.


3-Vaziyat. O'yindan tashqari holat



O'yindan tashqari holat. A o'yinchi raqib darvozasiga zarba berdi. Darvoza D to'pni qaytradi, to'pni yo'nalishi V o'yinchiga keladi, V o'yinchi qaytgan to'pni darvozaga yo'llab gol kiritdi.


Bu vaziyatda hakam golni inobatga olmadi, chunki A o'yinchi zarba berganda V o'yinchi raqib darvozasiga Z va Y raqib o'yinchilariga qaraganda yaqin turibdi.

4-Vaziyat. O'yindan tashqari holat yo'q.




O'yindan tashqari holat yo'q. V o'yinchi to'pni uzatyotganda, A o'yinchi maydon chizig'ining o'z tomonida bo'lgan. A o'yinchi Z va Y raqib o'yinchilariga qaraganda raqib darvozasiga yaqin bo'lishiga qaramay, bu holatda o'yindan tashqari holat deb qaralmaydi.

5 vaziyat. O'yindan tashqari holat




O'yindan tashqari holat. A o'yinchi raqib darvozasiga kuchli zarba berdi, zarba darvozaning ustuniga tegib V o'yinchiga kelib tushdi va to'pni darvozaga kiritdi. Hakam ushbu vaziyatda golni hisobga olmadi. A o'yinchi raqib darvozasiga zarba berganda V o'yinchi Y raqib o'yinчисiga qarganda, raqib darvozasiga yaqin joylashgan.

6-Vaziyat. O'yindan tashqari holat yo'q.



Burchak to'pi bajarilayotgan vaziyatda A o'yinchi to'pni o'z jamoadoshi V o'yinchiga yetkazdi. V o'yinchi raqib darvozasiga yaqin bo'lishiga qaramay to'pni darvozaga kiritdi. Bu vaziyatda kiritilgan gol hisobga olindi. Burchak to'pining birinchi zarbasi, o'yindan tashqari holat belgilanmaydi.


7-vaziyat. O'yindan tashqari holat



O'yinchi A darvozaga zarba berdi. Himoyachi Y zarba yo'liga to'sqinlik qilib qaytarishga urindi. To'p Y ximoyachiga tegib V o'yinchiga kelib tushdi. V o'yinchi darvozaga zarba berdi.

Bu holatda gol hisobga olinmaydi, chunki A o'yinchi tomonidan darvozaga zarba berilganda V o'yinchi raqib darvozasiga yaqin holatda turibdi.

7-vaziyat. O'yindan tashqari holat yo'q




Bu vaziyatda o'yindan tashqari holat yo'q. A o'yinchi to'pni uzatilyotganda V o'yinchi Y himoyachi bilan bir chiziqda turibdi. To'p uzatilyotganda ikki o'yinchi raqib darvozasiga birgalikda yaqin holatda.

7.1. Futbol o'yinida taktik tizimlarning qo'llanilishi


Taktik tizim - bu har bir o'yinchining alohida xususiyatlari asosida futbol maydonida to'g'ri joylashtirilgan holda jamoa bo'lib o'ynash harkatlarini tashkil etishdir. Taktik tizim futbol o'yini taraqqiyotida bir necha bor o'zgarib kelgan. Taktik tizimning birinchi ko'rinshlari jamoalarda 2-5-3 tizimida qo'llanilgan. Ushbu tizimni tarix manbalarida italiyancha tizim yoki bulmasa avstriya jamoalarning tizimi deb yuritilgan. Futbol o'yin qoidalarining takomillasha borishi taktik tizimlarga o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan. Futbol o'yinga o'yindan tashqari holat qoidasining kiritilishi, jamolarda 3-5-2 (dubl ve) taktik tizimini yuzaga kelishga sabab bo'ldi. Dubl ve taktik tizimida qo'llash futbol jamoalarning maydonda muvaffiqiyatli harakatlanishga olib keldi. Dunyo futbol sporti bo'yicha etakchi hisoblangan Braziliya terma jamoasi ham futboldagi 4-2-4 taktik tizimida harakatlanishi bilan futbolga yangi taktik uslubni olib kelgan va jahon chempionati musobaqalarida g'oliblikka erishishgan.

O'tkazilayotgan jahon chempionatlarida terma jamoalarning tayyorgarliklari va futbol o'yining yangi o'yin uslublarini ko'rsatishadi. Dunyoning yetakchi terma jamoalari o'z o'yinlari bilan mutaxassislar etiborida bo'ldi. Har bir o'yinga aniq rejaga asosan tayyorlangan, vaziyat taqozosiga qarab, o'z taktik tizimni, uslubini o'zgartirishga qodir bo'lgan jamoagina yuksak natijalarni qayd etdi.



1-4-4-2 taktik tizimi


1-4-4-2 taktik tizimi zamonaviy futbol o'yinida jamoalar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan taktik usuldir. Ushbu taktik tizim jamoaning hujumkor taktikada harakatlanishidan darak beradi. Ushbu taktik tizimda ikkita hujumchi bir birlari bilan tandem hosil qilib hujumni yanada samarali ijro etilishini taminlaydi. 1-4-4-2 taktik tizimini yevropaning M.Yunayted, Arsenal, Bavariya, Yuventus kabi klublari deyarli har o'yinda qo'llashadi.



1-4-5-1 taktik tizimi

Ushbu taktik tizim ham futbol jamoalarning raqib ustidan g'alaba qozonishida ishlatiladigan samarali usuldir. 1-4-5-1 taktik tizimida Chelsi jamoasi ko'pgina uchrashuvlarida muvaffiqiyatli o'yin ko'rsatib kelmoqda. Aynan shu taktik tizim orqali Chelsi klubi so'nggi vaqtlarda xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lib, dunyoning yetakchi klublar ro'xatidan o'rin olgan. 2012 yildagi Yevropa chempionlar ligasi musobaqasining bosh sovrini Chelsi klubiga nasib etdi. Mutaxassislar e'tiroficha Chelsi klubi yarim himoyachilari F. Lempard, F. Maluda va markaziy hujumchi D. Drogba ushbu taktik tizimini samarali, mazmunli ijro etilishni ko'rsatishgan.

Toshkentning "Bunyodkor" futbol jamoasi ham aynan 1-4-5-1 taktik tizimda harakatlanadi. Taktik tizim orqali osiyoning etakchi klublarni mag'lubiyatga uchrata olgan.



1-4-3-3 taktik tizimi

1-4-3-3 taktik tizimi hujumkor o'yin taktikasini nomoyon etadi. Bu taktik tizimda Barselona jamoasi samarali harakatlanib so'ngi yillarda barcha raqib jamoalarni mag'lubiyatga uchrata olmoqda. Mutaxassislar e'tiroficha maydon markazida yarim himoyachilar Xavi, Inesta, Pedrolar har bir hujumni tashkil etishda hujumchilar Messi, Vil'ya, Fabregaslar bilan birgalikda qisqa to'p uzatishlarda har qanday raqib himoya chizig'idan o'ta olishlarni ko'rsatishmoqda. Ushbu taktik tizimda harakatlanish orqali Barselona jamoasi 2006-2012 yillar oralig'ida deyarli barcha musobaqalarda sovrinlarga ega bo'lishdi.

7.2. Dars konspektini tuzish

Darsning mavzusi: Futbolning umum texnik asosi, futbol texnikasi haqida tushuncha.

Darsning maqsadi: Sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlantirish, talabalarning harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning vazifasi: Futbolning umum texnik asosi, futbolning jismoniy tarbiyani bir vositasi sifatidagi vazifasi, futbol texnikasi haqida tushunchalar

berish va o'rgatish. **Dars olib borilayotgan joy:** Andijon Davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti, suzish havzasi

Dars davomiyligi: 1 soat 20 minut

Foydalanilgan o'quv jihozlari: maydon, futbol kiyimi.

Dars qismi va vaqt davomiyligi	FAOLIYAT MAZMUNI:	
	Dars mazmuni	Ma'ruza Metodik
Darsning tayyorlov qismi (20 min)	1.1. Salomlashish. 1.2. Talabalar haqida axborot olish. Saf mashqlarini bajarish: Yurish, Sportcha yurish, yengil yugurish, yurish, nafas rastlovchi mashqlar. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish. tayyorlov va yo'llanma beruvchi mashqlar. Maxsus futbol mashqlar. a) yurish va yugurish mashqlar. b) maydonda sirpanish mashqlari. s) maydon bo'ylab sakrash. 1.3. Mavzuning mazmun mohiyati bilan tanishtirish hamda o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
Darsning asosiy qismi (35-45 min)	2.1. Futbolning umum texnik asosi A) Gavda holati. B) Oyoqlar harakati. S) Nafas. Qo'llar harakati. D)Harakatlarning umumiy uyg'unlashuvi. 2.2. Futbol texnikasi haqida tushuncha. 1. Futbol maydoniga maxsus kiyimlar bilan tushishni tushuntirish. 2. Eng yaxshi futbolchilarning o'yin texnikasini kuzatish.	2. Eshitadi, tasavvur hosil qiladi o'rganish jarayonida shug'ullanuvchilar. Barcha suzish mashqlarini o'rganuvchilar avvaliga yakka-yakka bajaradilar; trener esa texnikaga

	3. Futbol o'ynash maboynida qo'l va oyoq harakatiga e'tibor berish 4. Maydonda oyoqlarni tez harakatlantirish. 5 Maydonda qo'llarni tez harakatlantirish.	taalluqli ko'rsatmalar berib turadi, texnika to'g'ri o'zlashtirilgan sari mashklar guruh bo'lib bajariladigan bo'la boradi. Tezlanishini yugurisha asta sekin tezlikni oshira borish kerak, sekin suzuvchining harakati siqiq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarur.
Darsning yakuniy qismi (10 min)	3.1. Qayta saflantirish, nafas oluvchi mashqlarni bajartirish, organizmni dastlabki holatiga qaytarish. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa, uyga vazifa, darsga yakun yasash uyushgan holda mashg'ulot joyidan ketish.:	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

7.3. DARSNI TASHKILLASHTIRISHDA NOAN'ANAVIY O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH

Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad nima uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha hosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Noan'anaviy o'qitish eng sodda qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni o'rgatadi.
3. Ko'p tarmoqli.
4. Sodda va oson.

5. Bilim boyligini oshiradi.
6. Vaqtdan yutadi.
7. Qiziqarli o'tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. O'quvchilarining diqqat e'tiborini tortadi.
12. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi.
13. Xotirani kuchaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga chorlaydi.

Dars jarayonida yangi bilimlarni berish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida amalga oshirilishi lozim. Shundan so'ng bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash, tadqiqot va boshqa shu kabi interfaol metodlarni amalga oshirib, ta'lim oluvchilarning bilimlarini mustahkamlash kerak. Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida ma'ruza o'qiladigan vaqt taxminan 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 20 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi pasaya boshlaydi. Shu bois ta'lim oluvchilarning faolligi, qiziqishlarini saqlash va oshirish maqsadida interfaol metodlarni mavzuni takrorlash yoki mustahkamlash bosqichlarida qo'llash maqsadga muvofiq.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday qoida kelib chiqadi:

- O'quv vaziyatini tayyorlashda interfaol metodlar va audio-vizual vositalarni samarali ishlatish lozim. Shunda birdaniga ko'pgina sensorik kanallar jalb etiladi.
- O'quv materiali to'g'risida bahslashishga doim imkoniyat berish lozim.

Davra suhbatlari, guruhiy bahs-munozaralar tavsiya etiladi, chunki bu metodlar ta'lim oluvchilarni faollikka jalb qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, ta'lim oluvchilarning ma'lumotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30%ni tashkil etar ekan. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda unga ta'lim oluvchilar faolligini oshiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish orqali ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarishga olib keladi. Buning uchun suzish dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishining orttirilishi, ularning faolligi doimo rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda turli faollashtiruvchi metodlarning qo'llanilishi va amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga yo'naltirilishi talab etiladi.

Bu metodlar "interfaol metodlar" deb ataladi. Interfaol metodlar ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi va ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'ladigan metodlar tushuniladi. Bunday metodlarni qo'llashda, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchilar butun jarayon davomida ishtirok etadi. Interfaol metodlarga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, charxpalak, rolli o'yin, ishbilarmonlik o'yini va shu kabi boshqa metodlar kiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida qaytar aloqaning ta'minlanishi;
- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- mustaqil fikrlay oladigan ta'lim oluvchining shakllanishiga yordam

berishi;

- faqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashning ham rivojlanishi.

Har qanday ta'limning maqsadi bilimni va uni amalda qo'llay olish ko'nikmalari va malakalarini hamda zaruriy shaxs sifatlarini shakllantirishdan iborat.

O'quv faoliyati harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun metod tanlashda eng asosiy omil bo'lib, o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Bugungi pedagogika an'anaviy yo'sindagisidan pedagogikadan milliy demokratik xarakterdagi, ya'ni muayyan texnologik jarayonda ijtimoiy munosabatlar, tuyg'u va ruhiy kechinmalar pedagogikasiga aylanib borayotganligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Pedagogik tadqiqotlarda bugungi kunda shaxs va uning taqdiriga munosabat masalasi turadi. Shunga ko'ra oqibatni sababga zid qo'ymaslik lozim. Ta'lim va tarbiyada oqibatga bo'lgan sabab o'zining to'g'ri va ijobiy yo'nalishini olsa, oqibat samarali bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalar oqimi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqaldi va hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli o'zlashtirilmoqda. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini ta'lim jarayoni va uning samaradorligini oshirish hamda ta'lim oluvchilarning berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etildi.

Ta'lim texnologiyasining predmeti ta'lim tizimining kontseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarini qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materiallarini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modulini tanlashdan ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha bo'lgan tizimni loyihalashtirishdan tarkib topgan.

Pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanganda ta'lim metodlarini tanlash va samarali qo'llash alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. An'anaviy ta'lim metodlari bilan bir qatorda pedagogikada ilmiy asosini topgan interfaol ta'lim metodlarini qo'llash ehtiyoji tug'ildi. Chunki pedagogik texnologiyalar bilim oluvchilarni ta'limning asosiy ishtirokchisi, bilim beruvchilar (o'qituvchilar) esa hamkorlik qiluvchi to'g'ri yo'nalish ko'rsatuvchi *Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi*.

Hamkorlikda o'rganish modeli - o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metodlardan iborat.

Fikrni sodda tilda bayon etish: O'z fikrini sodda ifodalash – yaxshi o'qituvchining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'z fikrini murakkab tilda ifodalash – ziyolilik va professionalizm belgisi hisoblanmaydi. O'z fikrini sodda tilda ifodalash – tinglovchibop gapirish demakdir.

Soda tilda gapirishga quyidagilar vositasida erishiladi:

- aytilgan fikrni ko'rgazmali qilib yetkazish;
- fikrni qisqa gaplar vositasida ifodalash;
- oddiy so'zlarni ishlatish;
- dars jarayonida ishlatilgan terminlar ma'nosini tushuntirib o'tish.

Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash: Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash deganda, ma'ruza mazmunining ortiqcha vaqt ketmasdan, lo'nda, aniq va to'g'ri ifodalanishi tushuniladi:

- butunlay o'quv maqsadga qaratilgan;
- asosiy mazmunga qaratilgan;
- to'g'ri (behato) ifodalardan iborat;
- muhim va kerakli izohlar bilan cheklangan.

Rag'batlantirish (stimullar). Rag'batlantirish deb ma'ruza tarkibidagi shunday qo'shimchalar tushuniladiki, ular ma'ruza mazmunini tinglovchilarga jonliroq qilib beradi va shu orqali ularning e'tibori va qiziqishini ta'minlaydi. Stimulyatsiyaga quyidagilar yordamida erishiladi:

Ma'ruza mazmunlarini turli qiziqarli omillar, gines rekordlari, shunga o'xshash misollar yordamida aniqlashtirish:

- taassurotli gapirish;
- aytilayotgan fikrlarni ko'rgazmali tarzda yetkazish (vizuallashtirish);
- qiyoslarda raqamlar va faktlarni ishlatish;
- tinglovchilarbop qiziqarli ifodalarni tanlash;
- shaxsiy fikrni bildirish;
- tinglovchilarning fikr-mulohazalaridan foydalanish.

Ma'ruzaning tuzilishi (strukturasi). Ma'ruza odatda uch qismdan:

kirish, asosiy va yakuniy qismdan iborat bo'ladi.

Kirish qismi:

- qutlash;
- mavzu;
- maqsad;
- tashkiliy savollar;
- motivatsiya, qiziqishni o'yg'otish.

Asosiy qism:

- asosiy fikr 1
- asosiy fikr 2
- asosiy fikr 3 va hokazo.

Yakuniy qism:

- natija va xulosa;
- umumlashtirish;
- umumiyashtirish;
- keyingi mavzuga nazar tashlash.

7.4. Ma'ruzachiga qo'yilgan talablar

Gavdani tutish: Tik, tinglovchilarga qaratilgan, erkin, ikki oyoqqa mahkam tayangan, boshi ko'tarilgan, ammo burun ko'tarilmagan holatda.

Qo'llar: Bo'sh holatda, ikki yonda osilib turgan yoki kamardan yuqorida ikki qo'l bir biriga ulangan; kamardan yuqoridagi harakatlar, tasavvurli (ifodali) hatti harakatlar – gapirish tezligida emas balki, sokin, asta-sekin va xotirjam.

Yuz: Tinglovchilarga qaratilgan, xotirjam.

Ko'z qarashlari: Hadeb bir kishiga tikilmasdan, auditoriyadagi har bir kishiga 3-5 sekund davomida qarash, samimiy

Harakatlar: Maqsadga muvofiq tarzda bir joydan boshqa joyga o'tish, «o'tirib-turishlar» emas, xotirjamlik bilan yordamchi vositalarni qo'lga olish va ishlatish, xotirjam harakatlar, onda-sonda tinglovchilar tomoniga o'tish.

Ovoz: Tanaffuslar bilan (ayniqsa harakatlar paytida), sekin tezlikda va baland ovozda gapirish.

Namoyish etish usulini qo'llashga doir ko'rsatmalar:

Ma'lum bir topshiriqni qanday bajarish kerakligini namoyish etish san'atiga quyidagi bosqichlarni amalga oshirmasdan turib erishish ehtimoldan yiroq.

- Namoyish etish uchun o'z materiallaringizni tayyorlang.

Siz uchun kerak bo'lgan barcha jihozlar, asbob-uskunalar va boshqa narsalar avvaldan tayyor holga keltirilishi lozim.

- O'quvchilarni namoyish etish jarayoni bilan tanishtiring.

O'quvchilarga topshiriq nimadan iborat ekanini ayting va ularning qiziqishlarini e'tiborga olishga harakat qiling. Ularni mashg'ulot boshlashga va tinglashga tayyor ekanliklariga amin bo'lish maqsadida ularning onglariga kirib borishga harakat qiling. O'qituvchi uchun sodda bo'lgan narsa o'quvchi uchun o'ta murakkab bo'lishi mumkin.

- O'quvchilarni sizning namoyishingizni oson ko'ra olishlari uchun ularni to'g'ri joylashtiring.

Umuman olganda, o'quvchilar murabbiyning orqasidan kuzatishlari maqsadga muvofiq, bu o'z navbatida ular topshiriqni o'zlari bajarayotgan vaqtlarida qanday holatda bo'lishlarini kuzatishga sharoit yaratadi.

- Topshiriqni bajarishni muvofiq tezlikda namoyish eting.

O'quvchilarga topshiriq nimalardan iborat ekanini ko'rsatish maqsadida uni normal tezlikda o'rgatishga harakat qiling. Bu kabi namoyish etish jarayoni bir daqiqadan oshmasligi lozim, agar topshiriq uzoqroq cho'ziladigan bo'lsa, uni to'xtatib va bosqichma-bosqich namoyish etish kerak.

- Topshiriqni sekinlik bilan takroran ko'rsating va har bir bosqichda nimalar sodir bo'lishi haqida aniq qilib ehtiyotkorlik bilan tasvirlab bering. Tayanch nuqtalarga alohida e'tibor qarating.

Sekin bajarish imkoni bo'lmagan topshiriqlar normal tezlikda lekin alohida-alohida bajarilishi lozim. Bu bilan asosiy nuqtalarga e'tibor berib o'tish imkoni yaratiladi.

- Har bir o'quvchini o'qituvchi bilan birgalikda topshiriqni bajarishga harakat qiling.

Har bir o'quvchini topshiriqni bajarayotganda o'qituvchi yordami bilan o'zini «ish» jarayonidagidek his qilishlariga erishing. Har qanday savolga javob bering va har qanday xatoni o'sha zahotiy oq to'g'irlang. O'quvchi egallashi qiyin bo'lgan har qanday nuqtalarni qaytadan ko'rsatib bering, bu jarayon qachonki o'quvchi uni to'g'ri bajarmaguncha davom etadi.

- Har bir o'quvchini topshiriqni amalda bajarishga erishing.

Har bir o'quvchini topshiriqni amalda normal tezlikda bajara olgunlariga qadar davom ettirishlariga erishing. Shu bilan bir qatorda, amaliy faoliyat davomida o'quvchilarni to'g'ri usuldan foydalanayotganlariga amin bo'lishingiz muhimdir. Noto'g'ri uslubdan foydalanish oqibatida to'g'ri uslubdan foydalanish orqali o'rganish qiyinchiliklar bilan kechadi.

8. Glassariy

Futbolda ishlatiladigan terminlar

Bo'sh joy-(свободный зона) maydonda o'yinchilar harakatlanishi to'p oshirishi mumkin bo'lgan joy. **futbol-** futbol bu inglizcha so'z bo'lib «fut-oyoq bol-to'p» ma'nosini anglatadi.

Zaxira- maydondagi o'yinchining o'rniga tushirish mumkin bo'lgan jamoa a'zosi.

Murabbiy- jamoani sport tayyorgarligi va musobaqalarda ishtirokini ta'minlovchi mas'ul shaxs

Maydon- bu 120-90 hajmdagi to'g'ri to'rtburchakli, yassi tekislikdagi hudud. **To'p-** bu yumaloq shakldagi o'yin jihozi hisoblanib, deyarli barcha sport o'yinlarida (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi) qo'llaniladi.

Texnika- sportchilarning oldiga qo'ygan vazifalarni qisqa vaqt ichida, aniq va mohirona bajara olishi.

Taktika- raqibni mag'lub etish usuli.

Jonli devor (стенка)- jarima to'pi tepilayotgan vaqtda 6 yoki 7 o'yinchidan iborat to'siq

Tez hujumi- bu juda tez bajariladigan xujum usuli. Bunda hujumchi turli holatlarda hujum vaqtida va hujumoldi tayyorgarlik holatida bo'ladi.

To'sik- jarima to'pi tepilayotgan vaqtda 2 yoki undan ortiq yonma-yon turishi.

Arbitr- hakam

Hakam- bu ma'lum sport turi bo'yicha ishlab chiqilgan qonun – qoidalarni musobaqa va musobaqadan so'ng amalda nazorat qiladigan shaxs.

Голкипер – darvozabon ingliz tilidan tarjima qilinsa “Nishon soqchisi” degan ma'noni bildiradi. “Гол”- nishon, ya'ni darvoza “кипер” qorovul, soqchi.

Газон	- chim (maysa)
Дисквалификация	- chetlatish
Жеребевка	- qur'a tashlash
Жонглирование	- to'pni yerga tushirmagan holda o'ynash
Жребий	- qur'a
Контратака	- qarshi hujum
Пас	- pas, to'p oshirish
Переигровка матча	- o'yinni qayta o'tkazish
Спорный мяч	- bahsli to'p
Симуляция	- mug'ombirlik
Свисток	- hushtak
Флажок	- bayroqcha
Жесты	- imo-ishoralar
Система игры	- o'yin tizimi
Свободный удар	- erkin zarba
Стоппер	- oldingi himoyachi
Рывок	- otilib chiqish
Резаный удар	- burab berilgan zarba
Травма	- jarohat
Угловой удар	- burchakdan to'p tepilishi
Угловые флажки	- burchak bayroqchalari
Усик	- burchak bayroqchasidan 9 metr dagi belgi
Форвард	- hujumchi
Филигранная техника	- o'ta nozik texnika
Флагшток	- bayroq ilinadigan tayoqcha
Флаг	- bayroq
Хронометраж	- vaqt o'lchovi
Хавбек	- yarim himoyachi
Шины	- butsi tishlari
Сентрфорвард	- markaziy hujumchi
Экс-чемпион	- sobiq chempion
Эмблема	- belgi – nishon

9. Fanga oid testlar

№1

Futbol maydoni qanday kattalik (razmer) da bo'ladi?
*90-120 m
69-105 m
145-90 m
95-100

№2

Maydon markazining aylanasi (radiusi) necha metr?
*9,15 m
8,15 m
9,20 m
8,20 m

№3

Burchak to'pi tepish uchun yoysimon belgilangan chiziqning radiusi necha metr?
*1 m
1,5 m
2 m
1,4 m

№4

Darvoza maydonining uzunligi necha metr?
*5,5m
5,4m
5,6m
5,4m

№5

Futbol darvozasining balandligi necha metr?
*2m 44 sm
2m 35 sm
2m 30 sm
2m 40 sm

№6

Futbol darvozasi enining uzunligi necha metr?
*7 m 32 sm
7 m 31 sm
7 m 30 sm
7 m 33 sm

№7

Burchak bayrog'ining olchami necha sm?
*35-45 sm
30-40sm
25-30 sm
35-40 sm

№8

Jarima maydonidagi yarim oysimon chiziqning (radiusi) necha metr?
*9,15 m
9,25 m
8,20 m
9,20 m

№9

Futbol maydoni chizig'i enining olchami?
*12 sm
10 sm
9 sm
5 sm

№10

Futbol to'pining og'irligi necha gramm?
*410-450 gr
440-445 gr
350-400 gr
410-480 gr

№11

Topning ichidagi atmosfera bosimi qanchagacha mumkin?
*600-1100
700-1000
800-900
500-8000

№12

*Futbol to'pining aylanasi necha sm?
70-68 sm
65-60 sm
71-67sm
70-66 sm

№13

Birinchi rasmiy o'yin qoidalari qachon tasdiqlangan?
*1863 y 26 sentabrda Londonda
1864 y 20 avgustda Germaniyada

1868 y 29 sentabrda Italiyada
1860 y 30 avgustda Braziliyada

№14

*To'pni oyoqda o'ynash haqidagi ilk ma'lumot qayerdan olingan?
Britaniya
Germaniya
Angliya
Braziliya

№15

*11- metrlik jarima to'pini tepish, ya'ni inglizchasiga "Penalti" qachon joriy etildi?
1891 yili
1860 yili
1889 yili
1892 yili

№16

Futbol maydonida hakamlilik qilish qachon joriy etildi?
*1880 yilda
1881 yilda
1889 yilda
1884 yilda

№17

Futbol o'yiniga xushtak qachon kiritildi?
*1882 yilda
1883 yilda
1800 yilda
1881 yilda

№18

Futbol bo'yicha jahon chempionati qachondan boshlab otkazilmoqda?
*1930 yildan
1929 yildan
1935 yildan
1925 yildan

№19

Futbol o'yinining asosiy qoidalari nechta?
*17 ta
18 ta
20 ta
19 ta

№20

Futbol kamandasi umumiy tarkibi nechta?
*23 ta
11 ta
15 ta
17 ta

№21

Musobaqaning yordamchi turlariga qaysi musobaqalar kiradi?
*Chempionat
Kubok musobaqalari
Saralash musobaqalari
Nazorat uchrashuvlari, o'rtoqlik uchrashuvlar

№22

Universiada musobaqalari har necha yilda Respublika miqiyosida o'tkaziladi?
*3 yilda
2 yilda
5 yilda
4 yilda

№23

O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sport to'g'risidagi qonun qachon tuzilgan?
*1992 yil 14 yanvar
1990 yil 10 may
1991 yil 2 fevral
1993 yil 28 fevral

№24

O'zbekiston Respublikasida 3 bosqichli sport Musobaqa tizimini tashkiliy nomlari.
*«Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Univesiada»
Spartakiada, «Umid nihollari», «Barkamol avlod»
Olimpiya Respublika Spartakiadasi
Respublika o'yinlari

№25

Respublikamizda Olimpiya shon-shuhratlar muzeyi qachon ochildi?
*1995 yil
1993 yil
1994 yil
1992 yil

№26

Respublikamiz sportchilari mustaqillik tufayli birinchi marta qachon va qaysi davlatda bo'lgan Olimpiada o'yinlariga ishtirok etdi?

*1994 y. Atlanta

1993 y. Germaniya

1992 y. Braziliya

1996 y. Avstraliya

№27

O'zbekiston «Bolalar sportini rivojlantirish jamgarmasi»ni tuzish to'g'risidagi farmon qachon tuzildi?

*2002 yil 24 oktyabr

2000 yil 31 oktyabr

2002 yil 26 oktyabr

2001 yil 30 oktyabr

№28

O'zbekiston Futbol Federatsiyasi qachon tashkil topgan?

*1946 yil

1935 yil

1940 yil.

1945 yil.

№29

O'zbekiston qachon va qayerda FIFA va OFK ga a'zo bo'ldi?

*1995 g. Chikago

1996 g. Vashington

1997 g. Angliya

1993 g. Shveysariya

№30

Xalqaro Futbol Federatsiyasi qachon paydo bo'lgan (FIFA)?

*1904 g. 21 maya

1900 g. 10 aprel

1903 g. 25 iyunya

1902 g. 20 iyulya

№31

Futbol maydonining o'lchamlari?

*Uzunligi 90 m. 120 m., eni 45 m. 90 metr

Uzunligi 75 m. 100 m., eni 60 m. 90 metr

Uzunligi 90 m. 100 m., eni 45 m. 110 metr

Uzunligi 90 m. 110 m., eni 45 m. 100 metr

№32

Futbol to'pining aylana diametri?

*68 sm 70 sm

70 sm 71 sm

66 sm 71 sm

71 sm 73 sm

№33

Futbol to'pining og'irligi?

*410 gr., 450 gr.

395 gr., 453 gr.

398 gr., 460 gr.

396 gr., 458 gr.

№34

Futbol bo'yicha jahon chempionati qaysi yildan boshlab o'tkazilmoqda?

*S 1930 yil

S 1927 yil

S 1929 yil

S 1926 yil

№35

Vazirlar mahkamasining futbolni qo'llab quvatlash haqidagi qabul qilingan chora tadbirlar to'g'risidagi qarorlari?

*1993 y 18 mart, 1996 y 17 yanvar, 1998 g 6 iyul

1993 y 10 mart, 1996 y 12 iyun, 1997 y 5 mart.

1993 y 10 mart, 1996 y 10 yanvar, 1998 y 16 iyun

1993 y 10 aprel, 1994 y 5 aprel, 1998 y 2 sentyabr

№36

Universiada 2004 chempioni?

*Toshkent-1

Samarqand

Jizzax

Buxara

№37

Mashxur O'zbekistonlik hakam?

*Ravshan Ermatov

Nail Lutfulin

Valentin Kovalyov

P.L.Kallina

№38

«AFK» Osiyo futbol konfederatsiyasi qaysi yili tashkil topgan?

*1948

1945

1950

1947

№39

«O'zbekiston iftixorlari» nishonri qaysi futbolchiga berilgan?
*Mirjalol Kosimov
Ulugbek Bakoev
Temur Kapadze
S.Shaparov

№40

1963 yil darvozaga to'p o'tkazib yubormaslik bo'yicha rekord o'rnatgan darvozabon kim?
*Lef Yashin
Fabien Bartes
Rinat Dassaev
Devid Simn

№41

Aut holatida to'pni o'yinga qanday kiritiladi.
*Ikki qo'llab'yelkadan oshirib Oyoqlarni yerdan uzmagan holatda
To'pni tepib
Bir qo'llab'yelkadan oshirib
Barcha javoblar to'g'ri

№42

Darvozabon hujumchi sifatida raqib darvozasiga hujum qilishi mumkinmi?
*Mumkin
Erkin
Jarima to'p
Mumkin emas

№43

Darvozabon maydoni o'lchami?
*5.5 metr
6 metr
7 metr
4 metr

№44

Darvozadan raqib darvozasiga to'p tushurilsa «gol» hisoblanadimi?
*Gol hisoblanadi
Erkin to'p
Jarima to'p
Mumkin emas

№45

Yevropa futbol federatsiyasi (U.E.F.A) qachon tashkil topgan?
*1954 yil
1960 yil
1965 yil
1970 yil

№46

Yevropa chempionlar ligasi ilk bor nechanchi yilda utgan
*1956 y
1955 y
1950 y
1957 y

№47

Yevropa chempionlari kubogi nechanchi yildan boshlab o'tkazilgan?
*1956 yil
1950 yil
1960 yil
1964 yil

№48

Yevropaning eng yaxshi o'yinchisiga beriladigan sovrin.
*Oltin to'p
Oltin butsa
Brilliant to'p
Oltin xushtak

№49

Yon tomondan to'pni kiritish metodikasi qanday bajariladi.
*Ikki oyoqqa tayangan holda bajariladi
Faqat bir oyoqqa tayangan holda bajariladi
Bir qo'lda tashlanadi
Oyoqda bajariladi

№50

Sobiq Paxtakor jamoasi nechanchi yilda halokatga uchragan?
*1979 yil 11 avgust
1979 yil 1 sentyabr
1979 yil 11 sentyabr
1979 yil 20 avgust

№51

Andijon futbol jamoasi nechanchi yili tashkil topgan?
*1964 yil

1970 yil
1966 yil
1971 yil

№52

Jarima maydonlari o'lchamlari?
*16 m 50 sm
13 m 25 sm
14 m 50 sm
15 m 30 sm

№53

Jarima maydonidagi yoy nima uchun chizilgan?
*11 metr jarima tepish vaqtida 9 m masofaga tutish maqsadida chizilgan
Mayin kor'inishi uchun
Darvozabon jarima maydonidan chikmasligi uchun
11 jarima tepuvchi o'yinchi yoy ichidan chiqmasligi uchun

№54

Jahon chempionati birinchi bor qaysi davlatda o'tkazilgan?
*Urugvay
Meksika
AQSH
Ispaniya

№55

Jahonning eng yaxshi o'yinchisiga beriladigan sovrin
*Oltin to'p
Oltin butsa
Brilliant to'p
Oltin xushtak

№56

Qaysi davlat terma komandasi 3 karra chempion bo'lgan?
*Italiya.Braziliya
Urugvay
Gollandiya
Braziliya

№57

Komanda bir kunda necha o'yin o'ynashi mumkin?
*1 marta
2 marta
3 marta
4 marta

№58

Maktabda sport o'yinlari darsi paytida qaysi usuldan ko'p foydalaniladi?
*Ko'rsatish usuli
Gapirib berish usuli
Mashq usuli
Pastki yon

№59

Musobaqa qatnashchilari musobaqadan oldin qanday ko'rikdan o'tishlari shart
*Tibbiy ko'rikdan
Testdan
Formalarni tekshirish
Hakamlar ko'rigidan

№60

Musobaqa nizomining sunggi bandi?
*G'oliblarni taqdirlash
Musobaqa qatnashchilari
Maqsad va vazifalari
Musobaqaga rahbarlik qilish

№61

Nechanchi yildan boshlab Yevropa chempionatlari o'tkazila boshlagan?
*1958 yil
1955 yil
1950 yil
1960 yil

№62

Nechanchi yildan boshlab futbol bo'yicha jahon chempionatlari o'tkazila boshlagan?
*1930 yil
1920 yil
1935 yil
1950 yil

№63

Olimpiada birinchi marta futbol o'yini nechanchi yili bo'lib o'tgan.
*1908 y
1910 y
1905 y
1915 y

№64

Osiyo futbol konferensiyasi (O.F.K) qachon tashkil topgan?
--

*1954 yil
1950 yil
1960 yil
1964 yil

№65

Osiyoning 2003 yildagi yil jamoasi kim?
*Paxtakor
Neftchi
Al-sadd
Al-ittizod

№66

Oxirgi futbol Yevropa chempionati final uchrashuvi qayerda va qachon o'tkazilgan?
*2021 yil Angliya
2001 yil Angliya – Gretsiyada
2000 yil Italiya – Shvetsiyada
2002 yil Belgiya

№67

Oxirgi futbol jahon chempionati qayerda va qachon o'tkazilgan?
*2018 y Rossiya
2004 y Belgiya
2014 y Angliya
2003 y Avtraliya

№68

Qastdan o'yin qoidasi buzilganda hakam qanday jazo o'yinchiga belgilaydi?
Jarima to'plari belgilanadi va hujum qilayogan jamoa o'yinini yon tomondan boshlaydi.
Qizil kartochka qo'rsatiladi
O'yindan chiqarib yuboriladi
Yon tomonidan o'yinga kiritiladi

№69

Prezidentimizning «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'grisida»gi qaror qachon chiqarilgan?
*2003 yil 1 aprel
2006 yil 1 may
2007 yil 30 mart
2008 yil 20 fevral

№70

Tayota kubogi va chempionlar ligasi ilk bor g'olibi qaysi jamoa?
*Real Madrid
Barselona
Manchestr Yunayted

Milan

№71

Tayota kubogi nechanchi yilda tashkil qilingan?
*1960 y
1964 y
1968 y
1970 y

№72

O'zbekiston futbol federatsiyasi nechanchi yilda FIFA va O.F.K. a'zo bo'lgan.
1997 yil
*1994 yil
1971 yil
1999 yil

№73

O'zbekistonda futbol qachon va qayerda paydo bo'lgan?
*1911 yil Fargonada
1910 yil Samarkand
1908 yil Toshkentda
1912 yil Namanganda

№74

Futbol bo'yicha 1-jahon chempionati qachon va qayerda o'tkazilgan?
*1930 y Urugvay
1934 y Braziliya
1925 y Italiya
1927 y Shvetsiya

№75

Futbol o'yinini qachon va qayerda paydo bo'lgan?
*Angliyada 1863 yilda
Gretsiya 1930 yilda
Italiyada 1963yilda
Italiyada 1903 yilda

№76

Futbol bo'yicha ayollar o'rtasida birinchi jahon chempioni kim bo'lgan?
*Daniya
Shvedsiya
Braziliya
Germaniya

№77

Futbol va uni o'qitish metodikasi fanida taktika necha turkumgan bo'linadi?

*Hujum taktikasi va himoya taktikasiga ajratiladi
Himoya taktikasidan iborat
Hujum taktikasidan iborat
Jamoa bo'lib himoyalanih

№78

U 23 O'zbekiston Yoshlar terma jamoasi sardori kim?
*Z.O'rinboev
D.Xamdamov
J.Siddiqov
O.Xamrobekov

№79

Futbol va uni o'qitish metodikasida chalg'itish qanday bajariladi?
*To'p bilan bajariladi
To'psiz bajariladi
To'p bilan va to'psiz bajarish mumkin
To'p bilan chalgitishlar uzatish

№80

Futbol qachon olimpiada dasturiga kiritilgan?
*1908 yil
1905 yil
1900 yil
1910 yil

№81

Futbol qiroli kim?
*Pele
Mishel Platini
Yoxin Kroef
Marko Vanbasten

№82

Futbol to'pining og'irligi?
*410 gr - 450 gr
390 gr - 450 gr
400 gr - 450 gr
450 gr - 460 gr

№83

Futbol o'yini necha daqiqadan iborat bo'ladi.
*90 minut
80 minut
100 minut

115 minut

№84

Futbol o'yiniga qaysi yili qizil kartochka joriy etilgan?
*1970 y
1964 y
1967 y
1960 y

№85

Futbol o'yiniga qaysi yili sariq kartochka joriy etilgan.
*1970 y
1967 y
1964 y
1960 y

№86

Futbolda nechanchi yildan boshlab 11 metrlik jarima to'pi belgilangan?
*1891 yil
1890 yil
1892 yil
1899 yil

№87

Futbolda nechanchi yildan boshlab hakamlar maydonga tushishgan?
*1880 yil
1879 yil
1878 yil
1881 yil

№88

Xalqaro musoboqalar uchun maydon o'lchamlari?
*Uzunligi 100-110m eni 64-75m.
Uzunligi 90-120m eni 45-90m.
Uzunligi 80-90m eni 45-50m.
Uzunligi 100-105m eni 50-55m.

№89

Xalqaro futbol federatsiyasi Fifa qachon tashkil etilgan?
*1904 yil
1804 yil
1905 yil
1800 yil

№90

Italiya "A" seriyasi qaysi yilda tashkil topgan?
*1898 yil
1818 yil
1820 yil
1899 yil

№91

Maydon burchaklaridagi bayroqlar balandligi?
*1 m 50 sm
90 sm
100 sm
80 sm

№92

Maydonda hakamlar nechta bo'ladi ?
*3
4
2
6

№93

U.E.F.A kubogi musobaqalari qachon o'tkazila boshlagan ?
*1958 yil
1950 yil
1968 yil
1978 yil

№94

O'zbekiston terma jamoasi nechanchi yil va qayerda osiyo o'yinlari g'olibi bo'lgan?
*1994 yil Yaponiyada
1992 yil Koreya
1993 yil Eronda
1991 yil Malayziya

№95

U 23 Olimpiya Yoshlar terma jamoasi murabbiyi kim?
*R.Xaydarov
M.Qosimov
A.Abduraimov
D.Nuraliev

№96

Paxtakor jamoasi nechanchi yil tashkil topgan?
*1956 yil
1958 yil

1960 yil
1962 yil

№97

U 23 Olimpiya Yoshlar terma jamoasi nechanchi yil Osiyo chempioni bo'lgan?
*2018 yil
2017 yil
2016 yil
2015 yil

№98

2014 yilgi jahon chempionligini qaysi davlat qo'lga kiritgan?
*Germaniya
Argentina
Braziliya
Ispaniya

№99

2016 yilgi Yevropa chempionligini qaysi davlat qo'lga kiritgan?
*Portugaliya
Frantsiya
Italiya
Galandiya

№100

FIFA tomonidan dunyoning eng yaxshi o'yinchisiga beriladigan oltin to'p sovrinini 5 martadan qo'lga kiritgan futbolchi kimlar
*K.Ronaldo, L.Messi
Z.Zidan, K.Ronaldo,
L.Messi, Pele
K.Ronaldo, Maradona

10. FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Tanqidiy tahlil, qa'tiy tartib intizom va shaxsiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoydasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoev 2017y
2. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi prezidenti .M.Mirziyoev 2017y
3. Karimov I.A. Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Konstitutsiyaning 12 yilligida so'zlangan nutq. "Xalq so'zi", 2004 yil 8 dekabr'.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod-mamlakatimizning mustahkam tayanchi. O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashida so'zlangan nutq. "Xalq so'z", 2012 yil 11 fevral'
5. Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'grisida"gi Qarori 1999 y.
6. Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy tarbiya va sport yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'grisida"gi Qarori 1999 y.
7. Uzbekiston Respublikasi "Ta'lim to grisida"gi qonuni, 1997 y.
8. Verxoshanskiy YU.V. Sportchining maxsus jismoniy tayyorgarligini asoslari. M.: Jismoniy tarbiya va sport, 1988.-331 b., (Fan sportga)
9. Uzbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'grisida"gi Qonuni, 1992 y
10. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" 1997 y.
11. O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'grisidagi qaror. 2002 yil 24 oktyabr.
12. Nurimov R.I.Iseev P. – futbolchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat (Pedagogik tavsiyalar) T. 1990.
13. Nurimov R.I, Sergeev G.M. – Jismoniy tarbiya institutining pedagogika fakul'teti uchun dastur (ixtisoslashtirish kursi) T.1995.

14. Sergeev G.M., Nurimov R.I. – futbol bo'yicha bolalar va o'smirlar sport maktabi olimpiya o'rinbosorlari, bolalar va o'smirlar maxsus maktabi, olimpiya o'rinbosorlari bilim yurti o'quv-mashq qilish va sport komolotiga erishish guruhlar uchun dastur T. 1997.

15. Akramov R.A. – Yosh futbolistlarni tanlab olish va tayyorlash T.1989.

16. Akramov R.A., Talibdjanov A. – Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash. O'quv qo'llanma.

17. Akramov R.A. – Yosh futbolchilarni tanlab olish va tayyorlash T.1989

18. Nurimov R.I., Akmalov R.A., Abduraxmanov F.A.-Opređenje. Model' trudnosti studentov-praktikantov UzGIFK, spetsializiruyushixsya po futbolu i ruchnogo myacha v period proxoždeniya praktiki T. 1987

19. Акромов Р.А. Отбор и подготовка юных футболистов. Алжир 1990

20. Акромов Р.А., Тихонов В.М., Исеев Ш., Нуриманов Р.И., Сергеев Г.М.- Планирование и организациа учебно-тренировочного процесса в командах мастеров. Т. 1997

21. Акромов Р.А. Чемпионат мира 2002-контроль-анализ-тренировка. Т-та, 2003.

22. Нуриманов Р.И. – Совершенство тактических действий футболистов высокой квалификации. Т. 2000


23. Сергеев Г.М.- физическое воспитание в школе для учащихся 4-10 классов" медицина " УзССР 61 1987

24. Акромов Р.А., Сергеев Г.М. Нуриев Р.И. Г. Исаев.Т., - завершение подготовки футболистов в командах мастеров в Узбекистане т.1985

MUNDARIJA

KIRISH	4
1. Bob. Futbolni vujudga kelishi, uni jahonda va O'zbekistonda rivojlanishi	6
1.1. Futbol o'yinining rivojlanish tarixi	6
1.2. Futbol boshqaruvining tashkiliy tuzilishi	13
1.3. Futbolning rivojlanishi va musobaqalar tarixi	14
1.4. O'zbekistonga futbolning kirib kelishi va rivojlanishi	15
2. Bob. Futbol o'yin texnikasi	25
2.1. Futbolda harakatlanish texnikasi	26
2.2. Maydon o'yinchisining texnikasi	31
2.3. To'pga zarba berish texnikasi tasnifi	32
2.4. Bosh bilan zarba berish tasnifi	39
2.5. To'pni to'xtatish jarayonini tasnifi	40
2.6. To'pni olib yurish tasnifi	46
2.7. Futbolda aldash harakat texnikalari	49
2.8. To'pni olib qo'yishning tasnifi	53
3. Bob. Darvozabon texnikasi tasnifi	58
3.1. To'pni ilib olish	59
3.2. To'pni qaytarib yuborish	65
3.3. To'pni tashlab berish	67
3.4. O'yin taktikasi tasnifi	70
3.5. O'yinchilarning vazifalari	73
4. Bob. Futbol o'yin texnikasini o'rgatish metodikasi	75
4.1. Harakatlanish texnikasini o'rgatish metodikasi	75
4.2. To'pga zarba berishni o'rgatish metodikasi	76
4.3. To'pni to'xtatishni o'rgatish metodikasi	77
4.4. To'pni tashlashni o'rgatish metodikasi	78
4.5. Darvozabonning texnik usullarini o'rgatish metodikasi	79
4.6. Taktik tayyorgarlik	79
5. BOB. FUTBOL O'YINI BO'YICHA MUSOBAQALAR O'TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH	81
5.1. Futbol musobaqalarni tashkil etish, o'tkazish va uning ahamiyati	81
5.2. Musobaqa turlari	82
5.3. Musobaqalarni rejalashtirish	83
5.4. O'yin tizimlari	84
5.5. O'yinlar (musobaqa)da o'rinlarni aniqlash	90
5.6. Musobaqa nizomi	93
5.7. Hakamning ishoralari	94
6. Bob. Qoidalarning falsafasi va ruhiyati	103
6.1. Futbol o'yin qoidalari	106
6.2. Nazariy mashg'ulotlarni olib borish usuliyati va uni tashkil etish	173
6.3. Yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligi	177

7. Bob. Yosh futbolchilarda o'yin taktikalarini tarbiyalashda, o'yin qoidalarini o'zlashtirish	181
7.1. Futbol o'yinida taktik tizimlarning qo'llanilishi	186
7.3. DARSNI TASHKILLASHTIRISHDA NOAN'ANAVIY O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH	190
7.4. Ma'ruzachiga qo'yilgan talablar	195
8. Glassariy	198
9. Fanga oid testlar	200
10. FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR	216



**MAXSUD SHERMATOV
SHERALI JURAYEV**

FUTBOL VA UNI O'QITISH METODIKASI

Darslik

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	I. Xakimov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84¹/₁₆. "Cambria" garniturası, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 15,75.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 2133082.

**Olmaliq kitob business MCHJda chop
etildi.**